

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА



2018 йил 1 сон

**Бош муҳаррир:** Наманган давлат университети ректори, техника фанлари доктори, профессор **А.В.Умаров**

**Масъул муҳаррир:** Илмий ишлар бўйича проректор, кимё фанлари номзоди, доцент **М.Р.Қодирхонов**

**Масъул муҳаррир ўринбосари:** Илмий бўлим бошлиғи **Б.Уринов**

### ТАХРИР ҲАЙЪАТИ

**Физика-математика фанлари:** ф-м.ф.д., доц. Б.Саматов, ф-м.ф.д. проф. М.Тўхтасинов. **Кимё фанлари-** к.ф.д., проф. Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф Т.Азизов. **Биология фанлари-** б.ф.д. А.Баташов, б.ф.д. Ғ.Абдуллаев. **Техника фанлари-** т.ф.д., проф. А.Умаров, С.Юнусов. **Қишлоқ хўжалиги фанлари** – г.ф.д., доц. Б.Камалов, к-х.ф.н., доц. А.Қазақов. **Тарих фанлари** – т.ф.д, проф. А.Расулов, т.ф.д., проф. У.Абдуллаев. **Иқтисодиёт фанлари** – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов, **Фалсафа фанлари** – PhD Р.Замилова, ф.ф.н., О.Маматов. **Филология фанлари** – ф.ф.д., проф. Н.Улуков, ф.ф.д.,доц. Ҳ.Усманова. **География фанлари** - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов, **Педагогика фанлари-** п.ф.д., проф. Л.Муминова, Б.Ходжаев. **Тиббиёт фанлари** – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев. **Психология фанлари** – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

**Техник муҳаррир:** *А.Бойдедаев*

**Тахририят манзили:**  
**Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.**

**Тел:** 227-01-44, 227-06-12

**Факс:** 227-07-61

**e- mail:** [ilmiy@inbox.uz](mailto:ilmiy@inbox.uz)

“НамДУ илмий ахборотномаси – Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномасига биноан чоп этилади.

НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 25.03.2018 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишига рухсат этилган (Баённома № 3).

Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.

## МУНДАРИЖА

## 10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

1	О`zbek adabiyotining feminist vakilasi - Kibriyoxonim Qahhorova. <i>N.Abdullayeva</i> .....	7
2	Таржима назарияси ва амалиёти фанини буюк британияда ўрганилиши. <i>М.Абдурахманов</i> .....	9
3	Знакомство с лексической синонимией на занятиях русского языка. <i>У.Э.Ахмедова</i>	13
4	Фразеологик объектининг таржимада ўзгариш ва сакланиш ҳоллари. <i>Б.Толибжанов</i> .....	16
5	Таржима ва тилшунослик. <i>Г.Фаниева</i> .....	18
6	Importance of english language fluency for engineers. <i>I.Imotov</i> .....	20
7	Teaching english for architects. <i>U.Abdukodirov</i> .....	22
8	Teaching architectural vocabulary on the theme “house”. <i>U.Abdukodirov</i> .....	24
9	Бобур ва “Бобурнома” чинакам тарихий намуна. <i>М.Қорабоев</i> .....	26
10	On researches of one ghazel of Alisher Navoi. <i>D.Kuliyeva, Q.Siddikov</i> .....	29
11	Literary aspects of poetry in the period of enlightenment. <i>Sh.Nematjanov</i> .....	33
12	Тил – таржима калити. <i>Ё.Отаханова</i> .....	35
13	Таржимада метафоранинг ишлатилишида учрайдиган муаммолар. <i>Ш.Неъматжонов</i> .....	38
14	Бадий асардаги лисоний тасвир воситалари таржимаси хусусида. <i>Ш. Самандаров</i>	40
15	Шавкат Раҳмон шеърятда поэтик фигуралар ифодаси. <i>Д.Тожибоева</i> .....	43
16	Муаллиф нуткида қўлланилган ўлчов бирликларини ифодаловчи сўз ва ибораларнинг таржимада берилиши. <i>Ш. Самандаров</i> .....	46
17	История происхождения латинской терминологии и употребление их в профессиональной деятельности врача. <i>О.С.Туйчиева</i> .....	48
18	Проблемы перевода строительных текстов и документации. <i>У.И.Нушонов</i> .....	53
19	Problems and difficulties of translation of law terminology in different languages <i>I.Umrzakov</i> .....	55
20	Навой мероси - комил инсон тарбияси манбаидир. <i>З.М.Усманова, И.Жалилов</i> .....	59
21	Lexical meaning and semantic structure of english words. <i>I.Umrzakov</i> .....	61
22	Насрий асар фонопоэтикаси (ўзбек ва немис тилларидаги асарлар). <i>О.Хасанова</i> ...	64
23	Leksik usul bilan modallik ifodalash va modal so‘zlarning tasnifi masalalari. <i>Sh.Ergasheva</i> .....	68
24	Fonopoetik hodisalar (geminatsiya haqida). <i>О.Хасанова</i> .....	71
25	Use your body language to improve classroom management. <i>N.Ergasheva</i> .....	74
26	И.В.Гетенинг “Фауст” трагедиясидаги фауст образини яратишда фразеологизмларнинг ўрни. <i>А.Улканов</i> .....	76
27	Таржимада каузативлик муносабати. <i>Ж.Нажмиддинов</i> .....	80
28	Инглиз эртақшунослиги ва унинг ривожланиш тарихи. <i>Б.Толибжанов, Х.Ёқубжанова</i> .....	82
29	Vadiiy obraz va tarjimada ifodaviy qatlamlar xususida. <i>J.Najmiddinov</i> .....	85

## 11.00.00-ГЕОГРАФИЯ ФАНЛАРИ

1	Развитие экотуризма в ферганской долине. <i>Ф.Усмонов</i> .....	86
2	Сув хўжалиги ташкил этишдаги айрим муоммолар тўғрисида мулоҳазалар. <i>А.Баратов</i> .....	89
3	Аҳолини географик ўрганишда карталаштиришнинг аҳамияти. <i>Х.Мирзаахмедов, И.Акабоев</i> .....	93
4	Фарғона водийсида сув хўжалигини ривожлантириш муаммолари. <i>А.Баратов</i> .....	96

5	Buxoro voha landshaftlari va ularni asrashning chora tadbirlari. <i>V.Mamajonov</i> .....	99
---	---	----

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

1	Мониторинг физического состояния студентов в высших учебных организациях. <i>С.В. Гурьев</i> .....	102
2	Teaching english at technical institutes. <i>A.Amanov</i> .....	106
3	10 - sinflarda to'plam elementlarini o'tish metodikasi. <i>N.Badalova, R.Ibragimov</i> .....	110
4	Grammatika tushunchasi haqida. <i>G.G`Burxonova</i> .....	113
5	Применения электронного тестирования в обучении иностранному языку в вузе <i>А.Галиакберова</i> .....	115
6	Инновацион таълим воситасида билиш жараёнларини фаоллаштириш. <i>Н.Фуломов</i>	117
7	Oson va qiziqarli grammatika. <i>M.Jo`rayeva</i> .....	120
8	Using simulations in the classroom. <i>N.Abdullayeva</i> .....	123
9	Особенности преподавания немецкого языка в области машиностроения. <i>Г.Бурхонова</i> .....	125
10	The effectiveness of audio-visual aids in language teaching. <i>A.Galiakberova</i> .....	129
11	Ingliz tilida tinglab tushinishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari. <i>S.Daliyeva</i> .....	130
12	Yosh futbolchilarda bo'lajak o'yin va musobaqa oldidan emotsional tanglik va uni tug'diruvchi omillar. <i>E.Djuraev, O'.Djuraeva</i> .....	133
13	The benefits of using peer and self-assessment in the classroom. <i>F.Jo'rayeva</i> .....	136
14	Олий ўқув юртларида дарсдан ташқари спорт машғулотларини ташкил қилиш. <i>Э.Жўраев</i> .....	138
15	Жамиятимизда соғлом бола тарбиясининг педагогик ва психологик омиллари хусусида. <i>А.А.Боймирзаев</i> .....	141
16	Курашчининг жисмоний тайёргарлигининг илмий-услубий жиҳатлари. <i>Б.Д.Гайназаров</i> .....	144
17	The most successful activities in teaching listening. <i>I.Iminahunova</i> .....	147
18	Баскетбол спорт турини ривожлантиришда инновацион технологиялардан фойдаланиш. <i>И.Исломов</i> .....	150
19	New directions in teaching foreign language. <i>S.T.Ismailova</i> .....	154
20	Концептуальные основы учебно-методического обеспечения по иностранному языку. <i>М.Мадрахимова</i> .....	158
21	Применения электронного тестирования в обучении иностранному языку. <i>М.Мадрахимова</i> .....	161
22	Теоретические основы организации самостоятельной работы студентов <i>М.Д.Мадумарова</i> .....	163
23	Загадка как средство мотивации при обучении иностранным языкам. <i>Х.Мамадалиева</i> .....	166
24	Olimpizm tashviqotini sportchi faoliyatining emotsional, irodaviy va ma'naviy xususiyatlariga ta'siri <i>D.Mamajonov, Sh.Jaxongirov</i> .....	168
25	Lernen mit spielen - neue art der lernmethode. <i>M.Mamashayeva</i> .....	171
26	Современные педагогические подходы в обучении русскому языку. <i>М.Д.Мадумарова</i> .....	174
27	“География” фанини ўқитишда ўқув методик таъминотдан фойдаланишининг аҳамияти. <i>М.Ж.Махмудова</i> .....	176
28	Sog'lom turmush tarzni shakillantirishda jismoniy tarbiyani o'rni. <i>M.S.Mullabaeva,</i> <i>Sh.Mahliyo</i> .....	179
29	“Жаҳон иқтисодий-ижтимоий географияси” фанини ўқитишда мустақил таълимни ташқил этишининг моҳияти. <i>М.Ж.Махмудова</i> .....	182
30	Инновации в педагогике - требование времени. <i>Набиева Н.М.</i> .....	184
31	Ҳаракат хавфсизлигини ташқил этиш ва транспорт логистикаси фанини ўқитишда	186

	интерфаол методларнинг мавзуга қўлланилиши. <i>А.А.Эшанбабаев, М.М.Жўрабаев</i>	
32	Профессиональные качества преподавателя на современном этапе развития языкового образования. <i>А.Нигматуллина</i> .....	191
33	Иқтисодий маданиятни ривожлантиришда педагогик ёндашув. <i>О.Пўлатова, Н.Фуломов</i> .....	193
34	The ways of gives english language to architects. <i>A.Nigmatullina</i> .....	196
35	Importance of english language fluency for engineers. <i>Sh.Oxunova</i> .....	198
36	Teaching vocabulary specific to the exterior of a house. <i>R.Nizamova</i> .....	200
37	Importance of english communication for engineering students. <i>R.Nizamova</i> .....	202
38	Кадрлар тайёрлаш жараёнидаги касбий-компетентлик. <i>О.Пўлатова, П.Ваҳобов, Ф.Одилова</i> .....	204
39	Инновационные технологии проблемного обучения иностранным языкам в сфере профессионального образования <i>М.Парпиева</i> .....	207
40	Ona tili darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etishning o`ziga xos xususiyatlari <i>D. Rasulova</i> .....	210
41	Болалар спортини ривожлантиришнинг энг муҳим омиллари ва хусусиятлари <i>С.Рахимова</i> .....	212
42	Теоретические основы проблемы самообразования студентов. <i>М.М.Парпиева</i> .....	215
43	Effect of using all language skills equally in teaching process. <i>D.Raxmanova</i> .....	217
44	Valeologiya asoslari fanining jismoniy tarbiya ta`limidagi ahamiyati. <i>A.Satimov</i> .....	220
45	Chet til o`qitish mazmunining tarkibiy qismlari va ularni dars jarayoniga tadbiiq qilish hususida. <i>Yo.Soliyev</i> .....	223
46	Юқори малакали белбоғли курашчиларнинг техник ва тактик тайёргарлигини такомиллаштириш. <i>Т.С.Тўйчиев</i> . ....	225
47	Немис тили грамматикасини ўргатиш ва ўрганишда учрайдиган муаммолар: артикларни ўрганиш ва ўргатиш. <i>О.Турсунова</i> .....	231
48	Артикларни ўрганишда визуаллаштиришдан фойдаланиш масаласи. <i>О.Турсунова</i>	233
49	Чет тили дарсларида мультимедиа воситалари ва уларнинг аҳамияти <i>М.Тўхтамуродова</i> .....	235
50	Linguistics across cultures: the impact of culture on second language learning <i>I.M.Tuxtarova</i> .....	237
51	Kurashchilarning o`quv mashg`ulotlarini rejalashtirishning asosiy qonuniyatlari <i>A.U.Xamidjonov</i> .....	239
52	Improving speaking skill through information gap technique. <i>S.Hamidova</i> .....	242
53	Possibilities of using educational and moral activities in preparing students of orphanages to the social life. <i>O`Asqarova</i> .....	244
54	Sog`lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy madaniyatning o`rni va ahamiyati. <i>M.Xoliqova</i> .....	249
55	Using music in teaching foreign languages <i>N.Ergasheva</i> .....	252
56	Boshlang`ich sinflarda interfaol metodlar va ularni qo`llashning ahamiyati <i>N.G`oyibnazarova</i> .....	254
57	Использование интернет-ресурсов на занятиях иностранного языка <i>Э.Б.Ягьяева</i> .....	256
58	Использование мультимедийных технологий в обучении иностранным языкам. <i>Ягьяева Э.Б.</i> .....	258
59	Can grammar be fun- entertaining ways of teaching grammar. <i>Sh.Jalolov</i> .....	260
60	Sharq mutafakkirlari me`rosida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarni qo`llash. <i>X. Yoqubjonova</i> .....	262
61	Ta`lim jarayonlarini texnologiyalashtirish zarurati <i>M.Lutpillayeva, I.Olimov</i> .....	265
62	Kimyo fanini o`qitishda virtual laboratoriyaning o`rni. <i>A.Boydedayev, M.Lutpillayeva</i>	268
63	Узбекские реалии на фоне немецких эквивалентов <i>Убайдуллаев Шухрат, Мансурова Каромат</i> .....	270

64	Ertaklar tarjimalari xususida <i>Каримова Наргиза</i> .....	274
----	---	-----

### **14.00.00-ТИББИЁТ ФАНЛАРИ**

1	Ферменты слюны у больных с нарушением выделительной деятельности почек <i>Хамракулов Ш., Чартаков К., Косимова Д.С., Джалолова О.К., Ахмеджанова Г.К.</i>	277
2	Болезнь крона. <i>Мамасалиев Н.С., Мамасалиев З.Н., Усмонов Б.У., Қўзиева Г.А.</i>	281
3	Анемии. <i>Мамасалиев Н.С., Усмонов Б.У., Мадаминова Н.Э. Қўзиева Г.А.</i> .....	287
4	Системные заболевания соединительной ткани. <i>Мамасалиев Н.С., Мамасалиев З.Н., Усманов Б.У., Қўзиева Г.А. Авазбеков Л.А.</i> .....	297
5	Практические вопросы раннего выявления, лечения и профилактики основных заболеваний опорно-двигательного аппарата (терапевтические аспекты). <i>Мамасалиев Н.С., Сайитжонов Л.С., Авазбеков Л.А. Қўзиева Г.А.</i> .....	304
6	Системные заболевания соединительной ткани. <i>Мамасалиев Н.С., Мамасалиев З.Н., Усманов Б.У., Қўзиева Г.А. Авазбеков Л.А.</i> .....	313
7	Синдром раздражённого кишечника. <i>Мамасалиев Н.С., Мамасалиев З.Н., Соитова Г.А. Қўзиева Г.А.</i> .....	321
8	Хронические диффузные заболевания печени: современные вопросы диагностики и лечения. <i>Мамасалиев Н.С., Сайитжанов Л.С., Мамасалиев З.Н., Соитова Г.А., Қўзиева Г.А.</i> .....	327
9	Практические аспекты заболеваний желчного пузыря и поджелудочной железы <i>Мамасалиев Н.С., Усманов Б.У., Сайитжонов Л.С. Қўзиева Г.А.</i> .....	338
10	Sog'lom turmush tarzi- oilada bolalarni har tomonlama shakllantirishning muhim omili. <i>D.Kosimova, O.Djalolova</i> .....	347

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

1	Болани мактабга тайёрлигини таъминлашда оиладаги соғлом турмуш тарзининг аҳамияти. <i>Н.Қосимова</i> .....	350
2	Роль семьи в воспитании молодёжи. <i>Н.М.Набиева</i> .....	353
3	Шахс руҳиятида сенсор депривациянинг намоён бўлиши <i>Д.Ориббоева, М.Маматураимова</i> .....	355
4	Соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, психологик зўриқишларни олдини олиш ва руҳий холатларни бошқариш усуллари. <i>Н.Қосимова</i> .....	358
5	Женщины и их роль в прогрессе общества. <i>Н.М.Набиева</i> .....	361
6	О подготовке молодёжи к семейной жизни. <i>З. Усманова</i> .....	363
7	Психологияда депривацияга оид илмий изланишлар. <i>Д.Ориббоева, Х.Ёқубжанова</i>	366

## **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

### **O`ZBEK ADABIYOTINING FEMINIST VAKILASI KIBRIYOXONIM QAHHOROVA**

*Abdullayeva Nargiza*

*NamDU Fakultetlararo chet tillar kafedrasida katta o`qituvchisi*

*Annotation. This article is about one of the representatives of Uzbek feminist literature Kibriyo Khahhorova and her works. Readers can learn that Kibriyo Khahhorova was very creative translator of Uzbek literature. She was a wife of famous Uzbek writer Abdulla Khahhor and during their life together she always helped him to create plays and translated his works into Tajik. Kibriyohonim wrote a little book called "Chorak asr hamnafas" about her husband and showed her great love and loyalty to great writer.*

*Аннотация. В этой статье говорится о ведущем узбекской феминисте Кибриё Каххарове. Она сделала большой вклад в литературу узбекского и таджикского языка в области перевода произведений. В статье приведены также сведения о личной жизни писателя.*

Tarjima - bu madaniyatning ajralmas qismidir. Har bir xalqning o`ziga hos madaniyati, ma`naviyati bo`lgani kabi, bunga bog`liq holda badiiy tarjima asarlari va ularning mohir yaratuvchilari ham mavjud. Agar ana shu tarjimalar ayollar tomonidan yaratilgan bo`lsachi... Albatta, yanada go`zal, jozibali, maftunkor bo`ladi, chunki ayollar hayotga o`zgacha bir nazar bilan qaraydi va yaratilayotgan asarida ham bular namoyon bo`ladi.

O`zbek badiiy tarjima taraqqiyotida alohida o`rin egallagan tarjimonlardan biri Kibriyo Qahhorovadir. Kibriyoxonim Qahhorova 1914 yilning 14 aprel sanasida Samarqand shaxrida, ziyoli oilasida tavallud topadi. Uning dadasi Lutfullo Maxsum Fayzullov (ba`zi adabiyotlarda Lutfullomahdum deb ham beriladi) umrining o`ttiz yilini Buhoroning Ko`kaldosh madrasasida ta`lim olishga sarflagan riyoziyotchi olim, o`z zamonasining taraqqiyparvar fozil kishilaridan biri bo`lgan. U qizining ma`rifatli bo`lishiga katta ahamiyat bergan. Kibriyoxonim 5-6 yoshligidayoq rus tilidan boshlang`ich saboqlarni o`qib boshlagan. Otasi yordamida qobiliyati o`tkir Kibriyoxonim arab va fors tillarini mukammal o`rganib oladi va eski qo`lyozmalarni o`qishgina emas, sharhlash san`atini ham puxta egallaydi. 10 yoshga to`lganda Hofiz Sheroziy, Mirzo Bedil, Shayh Sa`diy, Abdurahmon Jomiy asarlarni bemalol mutoala qila olardi. Keyinchalik u uzbek, tojik, rus tillarini mukammal egalladi va sarmahsul ijod qildi. Yosh adiba o`zining ish faoliyatini 1932 yili Samarqanddagi tojik nashriyotida Sadridin Ayniyning kotibasi sifatida ishlashdan boshlaydi. Nashriyotda ishlar ekan, atoqli adib Sadridin Ayniy tavsiyasi bilan u dastlab muharrir, keyinchalik adabiyot bo`limi mudirasi vazifasiga tayinlanadi.

1938 yilda u Leningrad davlat universitetining Sharqshunoslik fakulteti talabalari safidan o`rin oladi. U universitetda o`qish bilan birga shu yerda ilk tarjima ishlariga qo`l uradi.” O`zbek tarixi, adabiyot va madaniyat jurnali”ning 2016 yil 17 sentabrdagi sonida nashr etilgan “Men dardimni kimga aytaman?” maqolasida ta`kidlanishicha Kibriyohonim 1943 yili Turkiston harbiy okrugining «Frunzevets» gazetasida harbiy tarjimon sifatida ish boshlagan va u shu yillari gazetada ham muxbir, ham tarjimon sifatida ishlagan. Toshkentda ishlagan yillari Kibriyo Qahhorova atoqli o`zbek adibi Abdulla Qahhor bilan tanishadi. 1945 yilning 12 aprelida bu ikki ijodkorning umr yo`llari birlashadi. Keyinchalik Abdulla Qahhor maslahati va ko`magi bilan Kibriyo Qahhorova tarjimonlik bilan jiddiy shug`ullana boshlaydi.

1947 yilda tarjimon birinchi bor mashxur adib Abdulla Qahhorning “Qo`shchinor chiroqlari” romanini tojik tiliga o`giradi va yaxshi natijaga erishadi. Keyinchalik o`zbek tilini mukammal o`zlashtirgach 1952 yilda N. B Gogolning “Revizor” asarini, 1957 yilda A. Serafimovichning “Temir Oqim” romanini, 1955 yilda L.Tolstoyning “Urush va tinchlik” epopeyasining ikkinchi jildini hamda 1964 yilda uchunchi jildini zo`r mahorat bilan tarjima qiladi. Bundan tashqari M. Gorkiyning “Ona” romanini va “Mening dorulfununlarim” povestini, Ch. Aytmatovning “Sevgi” romanini, Mavlono Ali Safiyning “Latouf -ut-tavouf”, Abul Faroj Rumiyning “Qiziqarli vaqealar” asarlarini, Avdeevning “Bir aholi yashaydigan punktda”, B. Gaminning “Podalar yo`llarda” povestlarini ham o`zbek tilidagi tarjimalarini kitobxonlarga taqdim etgan. Abdulla Qahhorning bir qator hikoyalarini tojikchaga tarjima qilish bilan bu ikki qardosh xalqlar o`rtasidagi adabiy muhitni yanada boyitdi.

Abdulla Qahhor bilan Kibriyo Qahhorova uzoq yillar baxtli hayot kechirishdi. Oradan yillar o`tib, Kibriyo opa Abdulla Qahhor bilan o`tkazgan kunlarini xotirlab adib haqida «Chorak asr hamnafas» nomli xotiralar kitobini yozdi. Kitob xajm jihatdan kichik bo`lsada uni varaqlar ekansiz dilingizdan ajib bir tuyg`u o`tadi. Ikki sevishgan ijodkor insonlarni yanada chuqur hurmat bilan yodga olasan kishi.

Kibriyoxonim badiiy asarlarni tarjima qiluvchi ayollar ichida sermaxsul, ishchan, tirishqoq, o`ziga talabchanligi bilan ajralib turadi va buning natijasida katta yutuqlarga erishdi. U 1987 yili «O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan madaniyat xodimi» unvoni bilan taqdirlandi.

Kibriyo Qahhorova tarjimon sifatida o`zbek tilining lug`aviy tuzulishi uning yoqolib borayotgan yoki aksincha yangi shakllanib borayotgan so`zlariga befarq qaray olmas edi. “Sharq yulduzi” jurnalining 1989 yil 12-sonida Kibriyo Qahhorova bilan olib borilgan suhbat ham yuqoridagi fikrimizga dalil bo`la oladi. Shu o`rinda Kibriyohonimning shu suhbatdagi ayrim so`zlaridan parcha keltiramiz. “Bugungi kunda biz matbuot tilini ko`zdan kechirsak, tepa sochimiz tikka bo`ladi. Qaysi bir no`noq jurnalistning aybi bilan tilimizga «noqoratuproq» degan so`z kirib ketgan edi, endilikda qayerda do`ppi tor kelsa «no»ni ishlatamiz-qo`yamiz. Qaysi bir dehqon «bizning yerlar noqoratuproq» deb gapiradi. Men aminmanki, hammasi «bizning yerlar bo`z yer» deydi. «Sun`iy» degan so`z turgan joyda «notabiiy» deymiz. «G`ayriqonuniy»ning o`rniga

«noqonuniy» deb ishlatamiz. «Odotsiz», «uyatsiz», «manmanlikka berilgan» degan soʻzlardan «nokamtarin»ni afzal koʻramiz. «Kerak emas» oʻrniga «nokerak» deymiz”. Kibriyohinimning yuqoridagi fikrlaridan koʻrinib turibdiki u oʻzbek tilini juda yaxshi bilgan va uning asl holaticha saqlanishiga astoydil tirishgan. Uning tarjimasida chop etilgan asarlardan ham bularni yaqqol koʻrishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. “Men dardimni kimga aytaman“ Kibriyo Qahhorova bilan suhbat “Sharq yulduzi” jurnali 1989 yil 12-son.
2. Chorak asr hamnafas. Kibriyo Qahhorova. 1989
3. <https://ok.ru/profile/3256408>

### **ТАРЖИМА НАЗАРИЯСИ ВА АМАЛИЁТИ ФАНИНИ БҮЮК БРИТАНИЯДА ЎРГАНИЛИШИ**

*М. Абдурахманов*

*Инглиз тили ўқитиши методикаси кафедраси катта ўқитувчиси*

*Анотация. В статье с помощью примеров изучаются достижения и недостатки английского переводчика Ж. Кетфорда в области теории перевода. Указываются непрерывные исследования в области переводоведения для поисков решения различных проблем.*

*Annotation: Achievements and disadvantages of the English translator J. Catford in the field of Theory of Translation are researched with different examples in the given article. Continuous researches in the field of Translation Sciences for the search of solution to different problems are indicated.*

Таржима- миллатлар орасида бевосита маънавий алоқа қилиш курали. Бинобарин, таржима адабий таъсирнинг ишончли омили ҳисобланади. Таржима тўғрисида жаҳон адабиётидаги етакчи тенденциялар, илғор ғоялар, бадиий кашфиётлар ўзаро айирбошланади. Инглиз адиби Байроннинг фикрича, "Таржималар энг яхши шеърий ва драматик асарларнинг ер юзига ёйилишига, маъқул жанрлар, сермахсул ва мақбул усулларнинг тарқалишига аксар сабабчи бўлган, шу асосда халқаро адабий ютуқларни жамловчи, синтезловчи омилга айландилар."

Қадимий илму-урфон, гўзал санъат ва бой адабиётга эга бўлган муаззам Шарқ халқларининг адабий ёдгорликларини инглиз тилига таржима этилишининг узок тарихи бор. Европалик толиби илмлар аксарият Бағдод, Дамашқ, Қоҳира каби шаҳарларга бориб, араб тилини ўрганиб, мадрасаларда илму-фан асосларини ўрганганлар. Айнан ана шу толиби илмлар араб тилидаги китобларни инглиз тилига таржима қилишнинг оташин ташаббускорлари бўлиб майдонга чиқдилар. Натижада араб тилидан таржима қилиш Англияда жуда авж олиб кетди.

Инглиз таржимони Ж.Кетфорд инглиз таржимашуносликнинг асосчиларидан бири ҳисобланади. Унинг “Toward of science of Translating” ҳамда “The Theory and Practice of Translation” номли китоблари коммуникатив таржимашуносликка муносиб ҳисса бўлиб, унга жуда катта шухрат келтирди. Ж. Кетфорд “Toward of Science of Translating” китобида таржима жараёнига лисоний ва маданиятлараро жараён сифатида қарайди. Бунда у Б.Ворфнинг антропологик тилшунослик йўналиши ҳамда Б. Русселнинг мантиқий тил таҳлили ва психоллингвистик қарашларига таянади.

Таржимонлар таржима воситасида янги бир маданий ҳудудга аслиятдаги маълумотни олиб кирдилар. Ҳумболт назариясига асосан, таржима аслиятда акс этган воқеъликни бошқа бир маданий жараёнга кўчириб ўтказди.

Аслият матнини таржимада репродукциялаш унинг бош мақсадидир. Кетфорд тадқиқотларида формал эквивалентлик сўзма-сўзлик билан ёнма-ён қўйилди. Таржима тили қабул қилувчи тил билан кенгайтирилди. Таржималар аслиятликдан ташқари бошқаларни ҳам баҳраманд қиладиган элчилик даражаси ҳам борлигини кўрсатди.

Тил ва таржима ривожланган бугинги кунларда Ж. Кетфорд қарашларига айрим қуйидагича танқидий фикрлар берилмоқда. Жумладан *эквивалентлик жуда эркин таснифлаштирилган. Найданинг эквивалентлик концепцияси доминант тилларга асосланганлиги боис бошқа тиллар унга тобеликда қолади ва доминант тиллар этномарказчиликка бориб қолади.* Унинг фикрича таржима фақат соф лисоний ҳодиса эмас, балки коммуникатив-илмий жараёндир. Унда узатувчи, воситачи, қабул қилувчи томонлар иштирок этади. Бу жараёндаги эквивалентлик формал эквивалентлик, яъни аслиятдаги мазмун ва шаклни таржима тилида имкон даражасида муқобил қайта яратиш. Формал аспектларга синтаксис, сўзнинг ўрни, идиомалар таржима матнида қайта акс эттирилади. Динамик эквивалентлик, бу асосан қабул қилувчига йўналтирилган бўлиб, унинг талабига кўра аслият матни таржима ўқувчисига ҳам аслиятдагидек таъсир эта олиши лозим. Мазкур эквивалентликни амалга оширишда таржима тили меъёрларига ҳам амал қилиш талаб этилади. Бунга кўра таржима худди аслият каби ўқилиши, хатто таржималиги, айтиш лозимки, қоида бўйича таржиманинг аслиятга нисбатан формал мос келиши, бир матндаги маданий хосликни бошқасига ўтказиш учун ҳақиқий эквивалентлик бўла олмайди. Шунинг учун ҳам Кетфорд формал эквивалентликдан ўсиб чиқиб, динамик эквивалентликка қараб боришни таъкидлайди. Ана шундан келиб чиқиб аслият ва таржима матнлари ўртасидаги лисоний фарқларгагина эмас, балки маданий ўзига хосликларга кўпроқ эътибор беришга чақиради. Бу эса тиллар ўртасидаги структурал, сўзма-сўзликдан кўра аслият ва таржима ўртасида контекстуал ва динамик муқобиллик яратилиши лозимлигини айтади. Аслиятдаги маданиятни формал имитация қилмасдан уни таржима тилидаги муқобил варианты билан бериш мақсадга мувофиқ.

Кетфорд таржимада аввало маъно, кейинчалик услуб муҳим аҳамият касб этишини айтди. Бундан келиб чиқиб, аслият ва таржима матнлари ўзаро динамик эквивалентлик томон боришлари лозим.

Кетфорднинг “The Theory and Practice of Translation” асарида билдирган фикрича муайян тил воситалар маъноларини она тили бирликлари ёрдамида тушунтирадиган мавжуд икки тилли луғатлар, қанчалик кенг ва атрофлича тузилган бўлишларига қарамасдан, нутқ жараёнида намоён бўладиган икки тил мувофиқларининг барчасини акс эттира олмайди. Бошқача қилиб айтганда, ҳар қандай луғат ҳам бирликларнинг нутқ жараёнида намоён бўладиган қўшимча, тасодифий-матний маъно белгилари ўзларининг бир нечтадан моддий ифодасига эга бўладиларки, уларнинг ҳаммасини жамғарган ҳолда луғатга киритиш амалий имконият доирасига сиғмайди. Шунинг учун энг тафсилотли тузилган деб тан олинган луғат ҳам муайян нутқий вазиятда тил соҳиби мурожаат қилиши мумкин бўлган ифода воситасини башорат қила олмайди.

Луғатлар одатда нутқ амалиёти орқасидан қувиб ета олмайди. Уларда одатда тил тизимида ўз аксини топган имконий маънолар ўрин олган бўладик, айрим нутқий вазиятларда мазкур маъноларнинг бирортасидан ҳам фойдаланиб бўлмайди. Бинобарин, таржимоннинг вазифаси нафақат муайян лисоний воситанинг луғатга киритилган маъноларидан энг муқобилини, балки луғатда ўз аксини топмаган ёки топиб улгурмаган, бироқ ушбу нутқий вазият учун айтилган муддао бўлган маъносини матний таҳлил асосида муайян қилишдан иборатдир. Бундан ташқари, лисоний воситанинг айрим маъно белгилари тилда қатор синонимик воситалар ёрдамида ифода этилган бўладик, уларнинг барчасини луғатда акс эттиришнинг имкони бўлмайди. Бир сўз билан айтганда, мавжуд луғатлардан таржимон учун зарур бўлган барча ахборотни тўла-тўқис олиш амалий жиҳатдан мумкин эмас.

Шунга қарамай, луғатларда акс этирилган таллараро эквивалентлар барча нутқий вазиятларда лисоний воситанинг маъно ва вазифасини муайян этишда ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Таржимон лексик бирликларнинг луғатларда тасвирланган мувофиқ маънолари асосида таржима тилида уларнинг зарурий матний маъноларини ифода этадиган лисоний воситалар қидириб топади. Ваҳоланки, барча матний маънолар имконий воситалар сифатида луғатдан ўрин олган асосий семантика атрофида у ёки бу даражадаги гуруҳлашган бўлади.

Тилнинг барча халқлари учун бирдай фикр алмашиш курали эканлиги аслият ва таржима тиллари бирликларининг қатор ҳолларда бир-бирларига луғавий мос келишларини тақозо этадики, таржимонлар бундай қулай имкониятдан одатда унутли фойдаланадилар, чунки луғавий мос бирликлар кўпинча бир хил вазиятлар тасвири учун қўлланиладиган доимий эквивалентлар ҳисобланганлари ҳолда, таржима жараёнида уларнинг бири иккинчиси орқали осон алмаштираверилади.

Аммо тилларнинг миллий хусусиятга эга эканликлари, уларнинг мустақил тараққиёт жараёнини босиб ўтишлари туфайли қатор ҳолларда аслиятда

қўлланилган у ёки бу лисоний воситага таржима тилида муайян бир тил бирлиги эмас, балки бир нечта, қатор ҳолларда бир-бирларидан маъно белгилари, баъзан эса услубий вазифалари жиҳатидан фарқ қиладиган лисоний воситалар мос келади. Аниқроғи, асл нусхада акс этган муайян бир фикр таржима тилида бир неча имконий намуналар ёрдамида ифода этиладики, бу ҳол санъаткор олдига айни намуналарнинг, контекст талабидан келиб чиқиб, аслиятга энг мос келадиганини танлаш вазифасини кўяди.

Гоҳо муайян бир фикр ифодаси учун аслиятда қўлланилган лисоний воситанинг луғавий эквиваленти ёрдамида ўгирилиши натижасида ҳосил бўлган ифодани таржима тили меъёри, маданияти ҳазм қила олмайди. Бундай пайитда мазкур фикр ифодаси учун таржима тилида мутлақо ўзгача семантикага эга лисоний воситадан фойдаланиш зарурати юзага келади. Айни восита аслиятдаги бирлиги сингари ўзининг моддий-мантиқий маъносида бўлиши ҳам, мажозий хусусиятга эга сўз ёки тилда барқарорлик касб этган сўз бирикмаси шаклида ҳам келиши мумкин. Ушбу ҳол ҳар қайси тил бирликларининг воқеликни ўзига хос тарзда ифода этишини кўрсатадики, бундай ҳолларда икки тил бирликлари орасидаги мувофиқлик матний хусусият касб этади.

Кетфорднинг фикрича таржимашуносликда моддий-мантиқий маъно ифодаси учун фойдаланиладиган тил воситалари таржимаси ҳақида анчагина яхши фикр ва хулосалар келган бўлса-да, уларнинг кўпроқ илмий-техникавий адабиётлар таржимаси далилларига асосланганлиги, бадий асарлар таржималари мисолида бундай фикр ва мулоҳазаларнинг нисбатан камлиги, бадий асарлар таркибида моддий-мантиқий маъно ифодаси учун қўлланиладиган бирликлар таржимаси ҳақида қисқача тўхталиш заруратини туғдиради. Бу ҳақидаги фикрлар шунинг учун ҳам зарурки илмий-техникавий адабиётлар таркибидаги лингвистик воситалар асосан ахборот тарикасидаги хусусиятга эга бўлиб, таржима жараёнида улар кўпроқ ўзларининг доимий эквивалентлари билан алмаштирилсалар, бадий асарлар таркибидаги лингвистик воситалар моддий-мантиқий вазифалар ифодаси учун қўлланилсаларда, кўпроқ фикрнинг жонли, бадий-тасвирий баёни учун хизмат қилганлари ҳолда, хилма-хил контекстларда турли-туман маъно белгилари, контекстуал маънолар касб этадиларки, бу ҳол таржимонлар олдига сўзсиз назарий умумлаштирилиши лозим бўлган қатор амалий қийинчиликларни кўндаланг қилиб кўяди. Бундай мураккабликларни ечимини топиш учун таржимашунослик соҳасида тинимсиз изланишлар олиб борилмоқда.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Муминов О., Тургунов Р. Ёзма таржима. - Т., 2008
2. Мусаев К. М. Таржима назарияси асослари. - Т., 2005
3. Рахимов Ф. Таржимонлик амалиёти. - Самарканд: СамДЧТИ нашри, 2008
4. Саломов Ф. Адабий анъана ва бадий таржима. - Т.: Фан, 1980

## **ЗНАКОМСТВО С ЛЕКСИЧЕСКОЙ СИНОНИМИЕЙ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА.**

*Ахмедова У.Э.*

*Старший преподаватель Ферганского филиала Ташкентской медицинской академии*

*Аннотация. В данной статье актуализируется необходимость знания и использования в речи синонимов, отличающиеся оттенками значений, эмоциональной окраской, стилевой неоднородностью, сферой употребления.*

*Annotation. The article is discussed the problem of using of synonyms, which help to describe nouns.*

Культура человечества движется вперёд путём накопления ценностей всех предыдущих поколений, изучить которых возможно лишь, соединяя знания многих наук и, прежде всего, языка. Человек должен быть культурным во всех отношениях, должен стремиться овладеть духовными народными богатствами, в том числе богатствами русского языка, культурой русской речи. Культурной можно считать такую речь, которая отличается смысловой точностью, богатством и разносторонностью словаря, грамматической правильностью, логической стройностью, выразительностью. Культурная речь – это речь нормированная. В своей устной форме она должна отвечать существующим в настоящее время нормам произношения, в письменной форме – нормам орфографии и пунктуации. Лексические возможности языка безграничны. Лексическая стилистика даёт оценку использованию слова в различных ситуациях, определяет, насколько оправдано его применение в каждом конкретном случае, выявляет ошибки в словоупотреблении и учит их исправлять. В словах получает полное отражение работа человеческой мысли. Основное назначение слова – быть средством: а) наименования реалий: предметов (инъекция, лекарство, земля); признаков (красивый, громадный, отличный, каждый, мой); действий (писать, читать, ехать); количества (три, семь, сто, оба); указания на предмет (он, некто, себе).

В слове, помимо вещественного понятийного значения, может быть ещё эмоционально- экспрессивная и стилистическая окраска путём синонимов.

Слова, называющие один и тот же предмет, признак, действие и относящиеся к одной и той же части речи называются синонимами. Большинство слова – синонимов имеет близкое значение. Слова – синонимы отличаются оттенками значений (например: смотреть, глядеть), эмоциональной окраской (например: упасть, брякнуться), стилевой неоднородностью (глаза (нейтр.), очи (высок.), гляделки (низк.), сферой употребления (например: бегемот, гиппопотам; повар, кок).

В аудитории сообщается, что под термином «синонимы» объединяются два рода явлений. С одной стороны, это слова, близкие по значению, с другой –

отличающиеся друг от друга оттенками своего основного значения. Например: *бой-сражение- битва; большой – крупный- огромный- громадный- гигантский*.

Слова – синонимы объединяются в группы, называемые синонимическим рядом. На первое место в синонимическом ряду ставится нейтральное во всех отношениях слово. Такое слово называется заглавным словом, или доминантой. Приведя ряд синонимов – прилагательных *старый, давний, старинный, ветхий, древний*, писатель Д.И.Фонвизин так объяснял смысловое различие между ними: «*Старо* то, что давно было ново; *старинным* называется то, что ведётся издавна. *Давно* то, чему много времени прошло. В настоящем употреблении *ветхим* называется то, что от старости истлело и обвалилось. *Древне* то, что происходило в отдалённых веках».

Итак, включенные в синонимический ряд слова обозначают примерно одно и то же одновременно не одно и то же: в них заключён общий смысл, но уточнены его оттенки. При употреблении синонимов именно оттенки значения играют главную роль. Общность значения улавливается сразу: любой студент скажет, что в словосочетаниях *смелый боец, храбрый боец, отважный боец, мужественный боец, бесстрашный боец, неустрашимый боец* имеются синонимы, характеризующие человека, не поддающегося чувству страха, умеющего преодолеть его. Однако не только студент, но и вполне образованный взрослый человек может затрудниться в выяснении тонких различий между употреблёнными в этих словосочетаниях прилагательными. А различия существуют, и немалые. Если носителем общего значения является слово *смелый*, то *храбрый* – «активно смелый, не боящийся опасности, идущий навстречу ей», *отважный* – «очень смелый, готовый совершить поступок, требующий бесстрашия»; *мужественный* – «не теряющий присутствия духа перед лицом опасности»; *бесстрашный* – «чрезвычайно смелый, не знающий страха»; *неустрашимый* – «такой, которого ничто не устрасит».

Например, мы не сомневаемся в том, что глаголы хотеть, желать, стремиться, жаждать синонимичны: их объединяет общее значение «ощущать потребность в чём – либо». Но установить различия между ними для правильного выбора синонима не так – то просто.

Использование синонимов – важнейшее условие обогащение речи, её разнообразия и выразительности. Богатая синонимика русского языка позволяет избежать назойливого повторения в тексте одних и тех же слов (при употреблении глаголов в речи сказать, спросить). Русские писатели умело использовали глаголы не только для устранения лексического однообразия речи, но и для более точного и выразительного описания ситуации высказывания. Так, в романе «Мать» М. Горького использовано свыше 30 глаголов- синонимов. В произведениях М.Е. Салтыкова – Щедрина слово *говорил* имеет более 30 синонимов: *брякнул, буркнул, бухнул, воскликнул, выдавил из себя, загвоздил, заикнулся, залаял, заметил, икал,*

*калякал, курлыкал, обратился, повествовал, подхватил, пустил шип по-змеиному, рассуждал, ржал, рывкнул, сболтнул, стонал, хлопнул и др.*

Слова, обозначающие одни и те же понятия, но различающиеся своей стилистической характеристикой, эмоционально- стилистической окраской и сферой распространения, - это синонимы стилистические. Слова разговорные, просторечные выступают в качестве синонимов к словам стилистически нейтральным. Например: Глаза у него были неприятного цвета. Они не смотрели, а высматривали. Не глаза, а гляделки.

Синонимы могут различаться дополнительными стилистическими оттенками или стилистической окраской, придающими высказыванию к примеру характер торжественности, грубоватости и т.п. В этом плане различают слова нейтральные, книжные, разговорные, просторечные. Они обычно выделяются в толковых словарях: признаки (нейтр.), - симптомы ( книжн.), похитить ( книжн.)- украсть ( нейтр.) – спереть, свистнуть ( разг.). Синонимы могут различаться также экспрессивной окраской: Родина (нейтр.)- отчизна ( высок).

Последовательность и систематичность в изложении стилистической синонимии также требует разбора и понимания студентами стилей речи. Формулировка стилистических синонимов как слов, обозначающих одни и те же понятия, но различающихся своей стилистической характеристикой, эмоционально – стилистической окраской и сферой распространения, чрезвычайно сложна для понимания и полного осмысления студентами неспециального вуза. В этом плане следует дать понятие о неоднородности стилистической синонимии, о том, что среди синонимов выделяются две большие группы:

1. Устаревшие слова (архаизмы), которым в современном русском языке соответствуют другие названия тех же предметов, явлений: уста – губы, ланиты – щеки;

2. Слова, имеющие распространение в современном литературном языке, но функционирующие либо в пределах определённой территории (диалектизмы), либо в определённых стилях устной и письменной речи: конь- лошадь- скакун.

Принцип систематичности и последовательности позволяет систематизировать обширный материал по лексической синонимии с учётом линейно-концентрического и комплексного принципов расположения грамматического материала презентировать его нерусским студентам.

#### **Использованная литература:**

1. Р.М.Абдуллаева, учебное пособие для студентов – медиков ( научный стиль речи), Ташкент, 2012 г.
2. Е.В.Комарова, Л.Е. Генинович, «Русский язык», Ташкент, 2007 г.
3. В.Н.Дьякова. «Диалог врача с больным», Санкт – Петербург, 2009 г.

## **ФРАЗЕОЛОГИК ОБЪЕКТИНИНГ ТАРЖИМАДА ЎЗГАРИШ ВА САҚЛАНИШ ҲОЛЛАРИ**

*Бахромжон Толибжанов*

*НамДУ ўқитувчиси*

*Annotation: In this article we are talking about phraseological terms and their possible equivalents in the practice of translation*

*Аннотация: В статье рассматриваются основные элементы художественного сходство слов и фраза текста и анализ этих составляющих и особенности перевода.*

Фразеология тилшуносликнинг кичик соҳаси бўлиб, фраза – ибора, логос – таълимот деган маъноларни англатади. Фразеология атамаси асосан икки маънода ишлатилади:

- 1) Тилнинг фразеологик таркибини ўрганувчи тилшунослик соҳаси;
- 2) Шу тилнинг фразеологизми мажмуи.

Фразеологиянинг ўрганиш предмети фразеологизмнинг табиати ва субстансионал хусусиятлари ҳамда уларнинг нутқда амал қилиш қонуниятидир.

Икки ва ундан ортиқ сўздан таркиб топган, яхлит бир кўчма маъно ифодалайдиган, таъсирчанликка эга бўлган ва маъноси бир сўзга тенг маънодаги сўзлар йиғиндиси ёки гаплао йиғиндиси ибора дейилади.

Иборалар тилшуносликнинг фразеология бўлимида ўрганилади, шунинг учун ҳам ибораларни фразеологизмлар деб ҳам атаймиз.

Таржима назариясининг бир қанча муҳим масалалари қатори фразеологизмлар, идиомалар, сўз ўйинлари ва образли ибораларни бир тилдан бошқа тилга таржима қилиш муаммоси ҳам ғоят катта аҳамият касб этади.

Фразеологик иборалар жуда кўплиги, уларни таржима қилиш учун фақат инглиз адабий тилидангина эмас, балки унинг шеваларидан ҳам хабардор бўлиш, инглиз адабий ва жонли тилини мукамал билиш керак.

Фразеологизм объекти уни қандай таржима қилиш кераклигини белгиловчи нарсадир.

Таржима назарияси бўйича нашр этилган адабиётларда фразеологик бирикмаларни таржима қилишнинг тўртта усули борлиги ҳақида маълумот берилади.

- 1) Образни қандай бўлса, шундайлигича сақлаш;
- 2) Образни қисман ўзгартириш;
- 3) Образни бутунлай бошқа образ билан алмаштириш;
- 4) Таржимада образни бутунлай сақламаслик ёки уни тушириб қолдириш.

Асл нусхада сўз ўйини ясаиб, фразеологизм мазмуни талқин қилинган ёки бирикма тартибдаги объектларнинг ўрнини алмаштириб комбинация яшаш орқали

фразеологик бирикма ҳосил қилинган бўлса, таржимада бирикманинг объектини акс эттиришга зарурият туғилади.

Таржимада фразеология объектининг ўзгариш ва сақланиш масаласи дунё тилшунослигида чуқур ўрганил-маган соҳадир.

Айрим фразеологик бирикмаларнинг тилда аниқ эквиваленти ёки муқобил вариантлари йўқлиги уларни умуман таржима қилиб бўлмаслигини кўрсатмайди. Аксинча, худди шу ҳол уларни аниқ таржима қилишга эҳтиёж туғдирувчи сабаблардан биридир.

Масалан: Инглиз тилидаги: Old birds are not caught with chaff. Строго варобья на мякине не проведёт. Маталнинг ўзбекча муқобил варианты йўқ. Уни «Туллак чумчүкни тузоққа тушириш осон эмас» деб таржима қилса бўлади.

Икки тилда баъзан фразеологик ибораларнинг луғавий мазмуни бир-бирига, ҳатто бутунлай зид, яъни антонимик характерда бўлганда ҳам уларнинг фразеологик маъноси мувофиқ бўлиши мумкин.

Фразеологизмларнинг луғавий маъноси бир-бирига нақадар зид бўлмасин, уларнинг идиоматик маъноси мувофиқ бўлиши мумкин.

Масалан: 1. Come up roses

Бўйи етди.

2. Лола ранг

Scarlet, tulip coloured.

3. Чўпдек озгин

As lean as a rake

Юқорида келтирилган ушбу фразеологик бирликлар сўзма-сўз таржима қилиниб, ўзбек тилига мослаштирилган. Шундай фразеологик бирликлар ҳам борки, битталаб қилинган таржима ичидаги сўзларда ўз маъносини топмайди. Маълумки, ҳар бир халқнинг ўз эътиқоди, психик тизими ва ўзига хос миллий хусусиятлари бор.

Масалан: 1. Small potatoes

Арзимаган нарса

2. A sweet potato

Ёқимли куй

Зотан, муайян бир тилдан бошқа тилга кимни, нимани ва қандай таржима қилиниётганига қараб, таржима қонуниятлари, талаблари, принциплари ҳам ўзгаради. Ҳар бир тилнинг ҳам ўзига хос кучли ва заиф томонлари бор. Дунёда бошқа тилларда мавжуд барча луғавий-услубий хусусиятлар, семантик грамматик ресурсларни батамом қоплай оладиган мутлоқ бой тил йўқ ва бўлиши мумкин эмас. Ҳар бир тил ўзича бой ва ўзича гўзал.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш жоизки, миллий фразеологик бирликларни таржимада ифодаланишини ўрганиш биринчидан бадиий асардаги миллий ўзига хосликларни ифодалаш усуллари аниқлаб таржимонлар учун амалий, назарий билимларини такомиллаштиришга ёрдам беради, иккинчидан, билвосита ва

бевосита таржима жараёнида кўлга киритилган бой тажрибаларни умумлаштиришга, йўл қўйилган хато ва камчиликларни аниқлаб бадий асарнинг гоёвий мазмунини чуқурроқ англанишига олиб келади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

- 1.Саламов Ғ. Таржима ташвишларн. Т.: Фан. 1983.
- 2.Салимов. Ғ. «Тил ва таржима», Тошкент, «Фан» нашриёти. 1966.
- 3.Смит Л.П. «Фразеология английского языка». 1959.
- 4.Телия В.Н. Что такое фразеология, издательство «Наука», М. 1966.

### **ТАРЖИМА ВА ТИЛШУНОСЛИК**

*Ганиева Гулбаҳор, Уйчи тумани*

*36-умумтаълим мактаби*

*инглиз тили ўқитувчиси*

*Аннотация. В данной статье раскрываются связи между языком, переводом и предметом лингвистики (языкознание). Перевод – это творческий процесс. Формулируя высказывания профессора Г.Саламова, можно сказать, что перевод это заново созданное творение текста или устной речи, созданный на одном языке посредством другого языка. Чтобы заниматься переводом, нужно хорошо знать данный язык, но одного этого, конечно же не достаточно.*

*Annotation. In this article, it has given an idea about relation with the language and the subject of linguistics. The translation is creative process. The professor G.Salomov says, recreation with created text or oral speech's other means is important. Somebody must know the language for translating, but only knowing the language somebody cannot translated the text.*

Бир тилда яратилган ёзма матн ёки оғзаки нутқни иккинчи тил воситалари билан қайта яратишни - *таржима* дейилади[1]. Таржима аввало бир тилдаги бир қарра яратиб бўлинган оригинал матнни бошқа тил материаллари асосида қайта қуриб чиқишдан иборат жараён. Демак, тилсиз таржима бўлмайди. Аммо фақат тилнинг ўзи билан ҳам таржимани амалга ошириб бўлмайди. Ҳамонки, бир тилдаги матнни иккинчи тилда қайта тиклаш масаласи кун тартибига қўйилар экан, таржиманинг тил билан, тил тўғрисидаги фан бўлмиш тилшунослик фани билан муносабатини аниқлаб олиш лозим.

Қ.Мусаевнинг “Таржима назарияси асослари” китобида таржимашунослик фанига тилшунослик фани предмети сифатида қаралади. Бу биртомонлама тўғри. Чунки, ҳозирги кунда таржимашунослик фанининг ўз тадқиқот объекти бўлган умумфилологик фан сифатида эътироф қилинганлигига анча муддат бўлди. Шундай бўлса ҳам, айрим олимлар ҳамон таржима назариясини тилшунослик фани объекти сифатида қараб келадиган. Бизнингча, буни бошқача ном билан атамоқ керак. Яъни, таржима назариясининг икки қаноти бор. Бири тил, иккинчиси

адабиёт. Бу ерда гап лисоний таржимашунослик тўғрисида бориши керак. Ҳақиқатдан ҳам таржимашуносликнинг тилшунослик аспекти ҳам, унинг адабиётшунослик ва услубшунослик қаноти каби жадал суръатлар билан ривожланиб бормоқда.

Таржима – ижодий жараён. Профессор Ғ.Саломов таъбири билан айтганда бир тилда яратилган матн ёки оғзаки нутқни бошқа тил воситалари билан қайта яратишдир. Таржима қилиш учун тил билиш керак, аммо фақат тил билиш билангина таржима қилиб бўлмайди. Таржима тўғрисидаги фан даставвал тилшунослик заминидан туғилган. Яъни тилшунослик фани куруқ қоидалар ва абстракт тил асносида эмас, балки конкрет матнлар ҳамда жонли нутқ фаолияти таҳлилига асослана бошлагандан кейин таржима тўғрисидаги фан пайдо бўла бошлади. Ҳозирги кунда мазкур фан умумфилологик фан бўлиб, унинг тилшунослик ва адабиётшуносликдан иборат қанотлари пайдо бўлди ва бақамти ривожланмоқда. Ғарб мамлакатларида, жумладан Германия, АҚШ ва Англия мамлакатларида, шунингдек, Россияда ҳам таржимашунослик фани асосан тилшунослик йўналишида ривожланиб бормоқда.

Таржима амалиётини том маънода тилшунослик нуқтаи назаридан таҳлил қилиш зарурлиги тўғрисидаги фикр, аниқроғи, таржимашунослик тилшуносликнинг ажралмас бўлаги сифатида тан олиш тахминан ўтган асрнинг 70-йиллари охиригача А.В.Федоров ва унинг издошлари томонидан илгари сурилиб, бунда асосан грамматик муаммолардан келиб чиқадиган қийинчиликлар таҳлилига эътибор қаратилган. Ўша пайтларда кўпчилик олимларнинг эътиборини тортган таржимашуносликнинг тилшунослик йўналиши Қ.Мусаевнинг фикрича бошқа нуқтаи назарларни асло камситмайди. Таржимани тилшунослик нуқтаи назардан ўрганишни “таржима лингвистикаси” деб ҳам аталади. Бу терминни таниқли рус таржимашунос олими В.Н.Комиссаров[2] қўллаган.

Таржима назариясини том маънодаги тилшунослик муаммоси таркибига киритиш жоизлиги тадқиқотнинг коммуникатив нуқтаи назардан олиб борилишини тақазо этади. Коммуникатив муносабат тиллараро мулоқот жараёнида иштирок этадиган барча омишларни ҳисобга олади. У таржима қилинаётган матн таркибида мужассамлашган маълумотлардан ташқари яна ахборот берувчининг матн ташқарисида акс этган мулоқот масадини ҳамда таржимоннинг баён этилган фикрни Ъўғри қабул қилиш учун зарурий маълумот, билим ва малакага эга бўлишини ҳам назарда тутди. Мазкур омишлар таржима тилида ўзига хос аслиятга муқобил таъсирчанликнинг пайдо бўлишига замин бўлади. Таржима жараёнига бундай муносабат таржима назариясини лингвистик тадқиқотнинг алоҳида мустақил соҳаси сифатида ажратиш жоизлигини белгилайди. Кенг тарқалган тиллараро коммуникация амалиёти, хусусан таржима фаолияти тилшунослик фанининг доимий кузатувида бўлиши керак, дейди Ғарб таржимашуносларидан Р.Якобсон[3].

Унинг Россиядаги энг йирик вакиллари билан А.В.Фёдоровдан кейин Л.С.Бархударовдир. Унинг “Язык и перевод”[4] китоби шу соҳадаги энг нуфузли рисолалардан ҳисобланади.

Мазкур олим таржимашуносликни қиёсий тилшуносликдаги ўзига хос моделлаштириш назариялари билан боғлайди. Унинг фикрича, лингвистик таржимашунослик ўз олдига таржима жараёнининг ўзига хос бўлган муайян модели, ушбу жараёни акс эттирадиган илмий схемаси (тузулмаси)ни яшашни қўяди. Бу ерда гап назарий моделлаштириш ҳақида боради. Бу ерда моделлаштиришнинг икки томонига эътибор қаратиш керак:

Таржима назарияси, ҳар қандай моделлаштиришдан иборат бўлган фан каби акс эттириладиган нарсанинг энг муҳим томонларини ўзида мужассамлаштиради. Таниқли филоф Б.М.Кедровнинг таъбири билан айтганда, - “Модель моделлаштириш жараёнидан фарқ қилади. Моделлаштириш жараёнида акс эттириладиган нарсанинг энг керакли томонларигина талқин қилинади”. Қ.Мусаевнинг фикрича, Шундай қилиб, таржиманинг тилшунослик фани таркибида тадқиқ қилиниши лозимлиги ҳақидаги нуқтаи назар вужудга келдики, таржима амалиётини тадқиқ қилиш шу йўл билан олиб борилгандагина тилшуносликнинг айна тармоғи кўпроқ тараққий этади, ривожланади[5].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
2. Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода. – Москва: ИМО, 1980.
3. Jacobson R.J. On linguistic aspects of translation. In: R.A.Brower (td.)On translation. New York.,Oxford University Press,1966. P.234.
4. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – Москва, 1975.
5. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари ... – Б.49.

## **IMPORTANCE OF ENGLISH LANGUAGE FLUENCY FOR ENGINEERS**

*Inomiddin Abdulkhamidovich Imomov*

*senior teacher of In-service and retraining institute of managers and specialists of public education named A.Avloni.*

*Аннотация: Мазкур мақолада муҳандис талабаларга инглиз тилида мулоқот қилишнинг аҳамияти баён қилинган.*

*Abstract: The importance of communicating in English for engineering students is discussed in the article.*

So, it should be noted that mastering economic and legal terminology in a foreign language is a complex and multifaceted process, and all the difficulties that arise in the process of translating these terms are certainly not exhausted by the problems described in the article. Nevertheless, we hope that the peculiarities and translation strategies outlined in this article can be useful when working with texts of an economic and legal nature.

#### USED LITERATURE

1. Marsden, Richard (2004). The Cambridge Old English Reader. Cambridge: Cambridge UP. p. 221. ISBN 978-0521456128
2. Edmund Colledge, O.S.A. and James Walsh, S.J. (1978). Julian of Norwich. Showings. Paulist Press. ISBN 978-0-8091-2091-8.
3. A Glossary of Literary Terms, M. H. Abrams. (Fort Worth, Texas: Harcourt Brace, 1999, pp. 165–6.
4. Dictionary of Literary Terms and Literary Theory, p. 523.
5. The Norton Anthology of English Literature, 7th edition, vol.2, ed. M. H. Abrams, p. 1741.
6. <http://www.duhaime.org/dictionary>
7. <https://en.wikipedia.org/wiki/Translation>

## **НАВОИЙ МЕРОСИ - КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИ МАНБАИДИР**

*Усманова З.М.*

*Фаргона политехника институти катта ўқитувчи*

*Жалилов Иномжон*

*Фаргона давлат университетининг талабаси*

*Аннотация. В статье авторы освещают вопросы, касающиеся творчества выдающегося мыслителя, поэта и государственного деятеля Алишера Навои. Раскрыт вклад Алишера Навои в мировую литературу.*

*Annotation. In the article the author covers issues concerning the work of the outstanding thinker, poet and statesman Alisher Navoi. The contribution of Alisher Navoi to the world literature is revealed.*

Низомиддин Мир Алишер 1441 йилнинг 9 февralида Ҳиротнинг Боғи Давлатхона мавзейида, теурийлар хонадонига яқин бўлган давлат хизматчиси Ғиёсиддин Баҳодир оиласида таваллуд топган. Тарихчи Мирхонд «Равзатус-сафо» асарида ёзишича, Амир Алишернинг бобоси Амир Теуурнинг ўғли Умаршайх билан эмикдош бўлган. Навоийнинг илмга бўлган иштиёқи эрта уйғониб, 4 ёшида мактабда таълим ола бошлаган. Навоий ҳазратлари 7 ёшида Фаридиддин Атторнинг «Мантикут-тайр» асарини ёддан билганлар.

7 ёшли Низомиддин Мир Алишер буюк муҳаддисимиз Бухорий ҳазратларининг олти мингдан зиёд ҳадиси шарифларини ёд билган. Мир Алишер 7-8 ёшларидан бошлаб ғазаллар ёза бошлаган.

Алишер Навоий «муқарраби ҳазрати султоний» («султон ҳазратларининг энг яқин кишиси») деган унвонни олган. Унвон Навоийга давлатнинг барча ишларига аралашиш ҳуқуқини берган.

Туркий тилни қайта тирилтиргани Навоийнинг маънавиятимиз учун улкан жасорати бўлган. Заҳириддин Муҳаммад Бобур «Туркий тил била то шеър айтибдурлар, ҳеч ким онча кўп ва хўб айтқон эмас», — деб ёзса, Ҳусайн Бойқаро «Мир Алишер турк тилининг ўлик жасадиға Масих нафаси ила жон ато этди» деб таъкидлаган. Давлатшоҳ Самарқандий Алишер Навоийни “Мир Низомиддин”, яъни “диннинг низоми – қонуни” деб бежиз улуғламаган. Ҳазрат Навоийнинг деярли барча асарларида, хусусан, “Хамса” дostonларининг муқаддималарида Аллоҳга ҳамд, Пайғамбарга наът, муножот ва Расулуллоҳ с.а.в мадҳининг мавжудлигиёқ бу фикрни тасдиқлайди. “Арбаъин” (“Қирқ ҳадис”) – ҳадисларнинг шеърый таржимаси бўлиб, анъанавий ҳамд ва наът билан бошланади. Асар муқаддимаси – “Сабаби таълифи манзума”да Навоий устози Абдурахмон Жомий саҳиҳ ҳадислардан 40 тасини танлаб олиб, форсий тилда “Арбаъин” яратганини, лекин туркий китобхон бу чашмадан бебаҳра эканлигини айтиб, Жомийнинг руҳсати билан шу 40 ҳадисни туркий тилга таржима қилганлигини ёзади:

Форсийдонлар айлабон идрок,  
Орий эрди бу нафъдин атрок.  
Истадимки, бу халқ ҳам бори  
Бўлмағайлар бу нафъдин орий.  
Мен демакни чу муддао айлаб,  
Ул ижозат бериб дуо айлаб. [2]

“Оламда туркий ва форсий тилда сўзловчи бирон-бир инсон йўқки, у Навоийни билмаса, Навоийни севмаса, Навоийга садоқат ва эътиқод билан карамаса. Агар бу зотни авлиё десак, у авлиёларнинг авлиёси, мутафаккирларнинг мутафаккири, шоир десак, шоирларнинг султониدير” – Биринчи Президентимиз Ислом Каримовнинг “Юксак маънавият –енгилмас куч” асарида келтирилган бу доно фикрлар чиндан ҳам буюк шоир Алишер Навоий асарларида тафаккурнинг негизи бўлган ахлоқий тарбияга алоҳида эътиборни қаратади. Ёш авлодга маънавиятдан таълим-тарбия бериш учун вақтни ҳам, кучни ҳам аямасликка даъват этади.

Мутафаккир шу билан бирга инсон ҳуқуқларини, унинг ор-номусини ва кадр – қимматини ҳимоя қилишга чақиради. Навоий дунёда инсон камолотидан улкан нарса йўқлигини, унга табиат ва жамият сир-асрорларини, юксак чўққиларини билиш қобилияти, ақл-заковат, куч ҳада этилганини таъкидлайди. Халқнинг асосий ва бунёдкор ҳаётини бузувчи ёмонлик, ёвузлик, ҳақсизликка қарши курашиш жамиятдаги ҳар бир киши олдидаги бурч эканлигини асар қахрамонлари тимсолида тасвирлайди. Алишер Навоий ўзининг “Садди Искандарий” достонида инсон ва унинг комиллиги ҳақида гапириб, Искандар бутун дунёни забт этгани, шу билан бирга сувсизликни ҳам забт этишга отланган пайтда касал бўлиб жон бериш остонасида онасига ёзган васиятида онасига дейдики: “Онажон, сиз менинг доимо Искандарияда ғалаба билан келганимни кутиб олгансиз. Бу сафар руҳим чиқиб кетган мурдамни кутиб оласиз. Бу сиз учун нақадар оғир эканлигини тушунаман, онажон дод солманг, сочингизни юлманг, жуда бардош бера олмасангиз Искандарияда катта-кичик кишиларни чақириб зиёфат уюштиринг, зиёфатни меҳмонлар олдига қўйгандан кейин эълон қилдиринг кимнинг жигар банди вафот этмаган бўлса шу одам овқатни бошлаб берсин, денг. Агар овқатни ҳеч ким бошлаб бермаса, билингки, бу қора кун ҳаммининг бошида бор”.

Иккинчидан, шу тариқа ўлиб кетишимни билганимда Искандарияда сизнинг пойкадамингизни ўпиб, сизга ҳурмат – мурувват кўрсатган бўлар эдим ва минглаб оналарни босқинчилик туфайли йиғлатмаган бўлар эдим.

Учинчидан, ва лекин мени тобутга ётқизган пайтларингда, ёқут тешигидан икки қўлим чиқариб қўйилгани каби, албатта бир қўлимни тобутдан чиқариб қўйинг. Токи халқим бу қўлга ҳайрат кўзи билан эмас, балки ибрат кўзи билан боқиб “Бу панжалар саф тортиб, ер юзини ўз қўлига олган эди, бутун дунёдаги мамлакатларнинг ҳаммасини қуруқликда ва сувда бўлган барча лаълу-гавхарларни шу кафтга киритиб олган эди. Энди ажал куни бу дунёдан қўли ноғорасини қоқиб,

бўйнига абадийлик томон жўнаш бошвоғини солгач тана энди бу қўллар дунёдан шол кишининг қўлидай курук, чинорнинг япроксиз булоғидай бум бўш кетаётир, - десинлар. Бу ҳол одамлар учун бир ибрат мактаби бўлиб, дунёни эгаллаш машғулотида қўлларини тортсинлар”.[1]

Бу ҳаяжонли сатрлар орқали ҳазрати Навоий, минглаб бегуноҳ одамларни қурбон қиладиган урушларнинг олдини олиш, ҳалоллик, поклик иймон-эътиқод каби ғояларга даъват этади. Бу ғоялар комил инсон ғояси бўлиб, ёшларимиз қалбида она Ватанни севиш, ардоқлаш, унинг тинчлиги, осойишталиги фаровонлиги учун тинимсиз кураш олиб бориш туйғусини уйғотади.

Бутун умрини туркий тил мавқеини кўтариш, туркий давлатчилик асосларини мустаҳкамлашга, жамиятда ҳақиқат ва адолат, ахлоқ ва тарбия мезонларини қарор топтиришга бағишлаган буюк зот – ҳазрати Навоий асарлари ёш авлоднинг маънавий камол топишида бекиёс аҳамиятга эгадир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Навоий Алишер. Вақфия. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1998. 14-жилд. – Б. 231-270.
2. Навоий Алишер. Арбаъин. Сирож ул-муслимин. Муножот. Рисолаи тийр андохтан. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2000. 16-жилд. – Б.261-308.
3. Навоий Алишер. Вақфийя / Нашрга тайёрл. И.Шамсимуҳамедов. – Т. : Фан, 1991.

## **LEXICAL MEANING AND SEMANTIC STRUCTURE OF ENGLISH WORDS.**

*I.Umrzakov*

*teacher of the department of foreign languages and literature*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Ingliz tilidagi soʻzlarning lugʻaviy maʼnosi va ularning semantik xususiyatlari, uning sabablari va tasniflari, leksik maʼnoning oʻziga xos xususiyatlari va turlari, semantik guruhlar va soʻz tizimidagi aloqalar, yaʼni sinonimlar oʻrganilgan.*

*Аннотация В этой статье обсуждается лингвистический смысл английских слов и их семантических особенностей, его причин и классификации, особенности и типы лексического значения, семантические группы и основанные на словах отношения, такие как синонимы.*

Semasiology deals not with every kind of linguistic meaning only. This does not mean that we need not pay attention to the grammatical meaning. On the contrary, grammatical meaning must be taken into consideration in so far as it bears a specific influence upon lexical meaning.

The main objects of semasiological study are as follows: semantic development of words, its causes and classification, relevant distinctive features and types of lexical

meaning, polysemy and semantic structure of word, semantic groupings and connections in the vocabulary system, i.e. synonyms, antonyms, etc.

Let us examine the interrelation between:

#### 1-Meaning and sound form

The sound-form of the word is not identical with, its meaning namely [kot] is the sound form, used to denote a bed for a child. There are inherent connections between this sound form, used to denote a bed for a child. There are inherent connections between this sound form and the meaning of the word "cot", but they are conventional and arbitrary. We may prove it by comparing the sound-forms of different languages, conveying one and the same meaning, cf. English [kot] and Russian [krovatka]. On the contrary, the sound-cluster [kot] in the English language is almost identical to the sound form in Russian language possessing the meaning "male-cat".

#### 2-Meaning and concept

When we examine a word, we see that its meaning, though connected with the underlying concept is not identical with it. To begin with, concept is a category of human cognition. Concept is the thought of the object that singles out its essential features. Our concepts abstracts and reflect the most common and typical features of the different objects and phenomena of the world. Being the result of abstraction the concepts are thus almost the same for the whole of humanity.

The difference between meaning and concept can also be observed by comparing synonymous words and word-groups expressing the same concepts, but possessing linguistic meaning, which is felt as different in each of the units under considerations:

Big - large;

To die - to pass away - kick the bucket - join the majority;

Child - baby-babe-infant;

Daddy - father - governor - etc.

#### 3-Meaning and referent

To distinguish meaning from the referent, i.e. from the thing denoted by the linguistic sign is of the utmost importance. To begin with, meaning is a linguistic phenomenon whereas the denoted object or the referent is beyond the scope of language. We can denote one and the same object by more than one word of a different meaning. For example, an apple can be denoted by the words apple, fruit, smth, this, etc. So far as all these words have the same referent.

It follows that in the functional approach meaning may be viewed as the function of distribution: 1) semantic investigation is confined to the analysis of the different or sameness meaning; 2) meaning is understood essentially as the function or the use of linguistic signs.

#### Relation between the 2 approaches

When comparing the two approaches in terms of methods of linguistic analysis, we may see that the functional approach should not be considered an alternative, but rather a valuable complement to the referential theory. It is only natural that linguistic

investigation must start by collecting an adequate number of samples of context. Once this phase had been completed, it seems but logical, to pass on to the referential phase and try to formulate the meaning thus identified. There is absolutely no need to set the two approaches against each other; each handles - its side of the problem and neither is complete without the other.

The meaning of the word, its components

The word is one of the fundamental units of language. It is a dialectal unity of form and content. Its content or meaning is not identical to notion, but it may reflect human notion, but it may reflect human notion and is considered as the form of their existence. So the definition of a word is one of the most difficult in linguistics, because the simplest word has many different aspects: a sound form, its morphological structure, it may occur in different word-forms and have various meanings.

It is universally recognized that word meaning is not homogeneous, but it is made up of various components, which are described as types of meaning. There are 2 types of meaning to be found in words and word forms:

- 1) the grammatical meaning;
- 2) the lexical meaning.

Such word forms as "girls", "writers", "tables", etc., though denoting different objects of reality have smth in common, namely the grammatical meaning of plurality, which can be found in all of them. Thus, the grammatical meaning is the component of meaning in the word forms of verbs (asked, thought, walked, etc.) or the case meaning in the word forms of various nouns (girls, boys, nights).

Word forms "speaks", "reads", "writers" have one and the same grammatical meaning as they can all be found in identical distribution, only after pronouns "she", "he", "they" and before such adverbs and adverbial phrases as "yesterday", "last years", "two hours ago", etc.

The grammatical aspect of the part of speech meaning is conveyed as a rule by individual sets of word forms expressing the grammatical meaning of singularity (e.g. table) plurality (tables) and so on.

A verb is understood to possess sets of forms expressing, for instance, tense meaning (works-worked), mood meaning (work - I work).

The part of speech meaning of the words that possess but one form, e.g. prepositions, some adverbs, etc., is observed only in their distributions (c.f. to come in (here, there) and in (on, under) the table).

Lexical meaning

Besides the grammatical meaning, there is another component of meaning. Unlike the grammatical meaning this component is identical in all the forms of the word. Thus the word-forms "go", "goes", "went", "going" possess different grammatical meanings of tense, person and so on, but in each of these forms we find one and the same semantic component denoting the process of movement. This is the lexical meaning of the word,

which may be described as the component of meaning proper to the word as a linguistic unit.

Thus, by lexical meaning we designate[1] the meaning proper to the given linguistic unit in all its forms and distributions, while by grammatical meaning we designate the meaning proper to sets of word forms common to all words of a certain class.

Both lexical and the grammatical meanings make up the word meaning as neither can exist without the other.

The interrelation of the lexical and the grammatical meaning and the role, played by each varies in different word classes and evening different groups of words within one and the same class. In some parts of speech the prevailing component is the grammatical type of meaning. The lexical meaning of prepositions is, as a rule, relatively vague (cf. to think/speak of smb., independent of smb., one of the friends, the room of the house). The lexical meaning of some preposition, however, may be comparatively distinct (cf. in/on/under the table). In verbs the lexical meaning usually comes to the fore, although in some of them, the verb "to be", e.g. the grammatical meaning of a linking element prevails (cf. "he works as a teacher").

#### **USED LITERATURE**

1. Атрушина Г. Б., Афанасьева О. В., Морозова Н. Н. Лексикология английского языка: Учеб. пособие для студентов. — М.: Дрофа, 1999. — 288с.
2. Зенков Г.С., Сапожникова И.А. Введение в языкознание: Учеб. пособие для студентов дистанционного обучения КГНУ - Б.: ИИМОП КГНУ, 1998.- 218 с.
3. *Shorter Oxford English Dictionary* (6th ed.),
4. Oxford University Press, 2007, ISBN 978-0-19-920687-2
5. Hargraves, Orin (2002). *Mighty Fine Words and Smashing Expressions: Making Sense of Transatlantic English*. Oxford: Oxford University Press. ISBN 0-19-515704-4.
6. <http://accurapid.com/journal/00org.htm>
7. <http://method.novgorod.rcde.ru/getblob.asp?idq5000...>

#### **НАСРИЙ АСАР ФОНОПОЭТИКАСИ (ЎЗБЕК ВА НЕМИС ТИЛЛАРИДАГИ АСАРЛАР)**

*Хасанова Озода  
ФарПШ ассистенти*

*Annotation The article analyzes phonopoetics works of the “Dunyoning ishlari”.  
The article reports that*

*АннотацияСтатья анализирует фонопоэтики произведения “Dunyoning ishlari”.  
Статья сообщает о целях, которые могли быть выражены согласных.*

Насрий нутққа хос ифода талаффузи, назмий ифода талаффуздан жиддий фаркланади. Насрий асарда ҳам ёзувчи қахрамон кайфияти, рухияти ва шу кабилар

тасвирида унлиларни чўзиш, ундошларни қаватлаш, товушлар такрори, товуш вариантларини қўллаш, товушларни алмаштириш сингари фонетик ҳодисалардан фойдаланади. Бу эса ўз навбатида асар тилининг аниқ ва равон бўлишига, фикр изчиллигини ифодалашга, китобхонни янада кучли эстетик завқ олишига хизмат қилади.

Назм ва наср ижодкорлари ўз тафаккурида пайдо бўлган ғоялар, тасаввурларни нуткий жараёнда ранг-баранг, жилоланган шеърий интонация, ритмларни ўзининг структурасига қамраб олган, талаффузи ва айтилишида оҳангдошлик, қофиядошлик каби ҳодисаларни сингдирган товуш ва товушлар бирикмаси орқали ифодалайди.[3]

Бадиий матнни таҳлил қилиш жараёнида нафақат унли товушларнинг, балки ундош товушларнинг ҳам аҳамияти эътиборга молик. Уларда ҳам поэтик актуаллашув жуда ёрқин намоён бўлади.

Ундош товушлар ўзининг ҳосил бўлиш ўрни ва усули ҳамда товуш миқдорининг оз ёки кўплигига кўра унли товушлардан фарқ қилади.[5]

Талаффузда ундош товушларни қаватлаш, товушларни тушириш, товушларни алмаштириш каби ҳодисалар муҳим аҳамиятга эга. “Дунёнинг ишлари” асарида ҳам персонажларнинг руҳий ҳолатини тўла намоён қилишда ундош товушларни чўзишдан унумли фойдаланилган.

Масалан, асарнинг “Хўжа” ҳикоясида ундошларни чўзиш ёрдамида кучли экспрессив-эмоционал ҳолатлар ифодаланган: *-Нега к-к-келдинг?! – дедди у газабдан тили тутулиб. – Нима к-к-керак сенга?! – Унинг бутун вужуду, хатто боши ҳам қалтираб кетди. Ҳар доим таёқдек осилиб ётадиган чап қўлигача титраб кетгандек бўлди. – Нима к-к-керак, айт! – деди лаблари тирпираб.* (Дунёнинг ишлари, 185-бет.)

Немис тилидаги вариантда эса қуйидагича таржима ўқишимиз мумкин: *“Warum bist du g-g-gekommen?!”, stotterte er vor Wut. „Was s-s-suchst du hier?!“ Nun zitterte nicht nur sein ganzer Körper sondern auch sein Kopf. Sogar seine linke Hand, die immer wie ein Stock herunterhing, schien zu zittern. „Was s-s-suchst du, sag es!“, sagte er und dabei zitterten seine Lippen.* (Kein Himmel auf Erden, S. 227. )

Кўринадики, бадиий тасвирда воқеалар мазмунига мос ҳолда ишлатилган фонопозетик воситалар китобхон ҳиссиётига кучли таъсир қилади. У ўзини воқеалар тасвири баёнида қатнашаётгандек, шу воқеаларнинг бевосита иштирокчиси бўлаётгандек ҳис қилади.

Парчада “келдинг” сўзини “к-к-келдинг” шаклида, “керак” сўзи эса “к-к-керак” шаклида қўлланилган. Бу сўзларнинг график жиҳатдан ёзилиши, кўринишига эътибор берадиган бўлсак, “к-к-келдинг” ва “к-к-керак” сўзларидаги бошги харфлар чизикча-чизикча билан ёзилган. Ёзишнинг бу тури товушларнинг қандай талаффуз этилганлигини айнан англатиш учун хизмат қилмоқда. Айни пайтда шу сўзларнинг денотатив маъносига тутулиш, қичқириш, каби қўшимча маънолар ҳам

кўшилиб келган. Лекин бундан ташқари “**тутилиб**” лексик воситасини ҳам ишлатилиши қаҳрамоннинг вазиятдаги ҳолатини ифодалаб келмоқда.

Сўздаги бир ундошнинг такрорланиш миқдори у ифодалаб келаётган экспрессив бўёқ миқдорини белгилаб беради. Сўзда бир ундош қанча кўп такрорланса ва у график жиҳатдан ёзувда шундай ифодаланган бўлса, экспрессия даражаси ҳам ортиқ эканлиги кўрилади. Сўзда коннотатив маъно фонетик воситалар билан ҳам даражаланиб бориш хусусиятига эга. Ундош товушларнинг чўзилиши оғзаки нутқда уларни қўш ундош ҳолатига келтириб талаффуз қилиш, ёзма нутқда эса иккилантириб ёзиш орқали рўёбга чиқарилади. Бу усулда қуйидаги коннотатив маънолар ифодаланади:

**а) таъкид:** *М-мен эмас, м-мана бу ажратган! Эгамберди ака қўлини бигиз қилиб, Хўжанинг ойисини кўрсатди. – М-мана шу ажратган!* (Дунёнинг ишлари, 185-бет.)

Немис тилида эса таржима қуйидагича берилган: “*N-nicht ich, sondern sie trennte sich voneinander!*” *Onkel Egamberdi zeigte mit seinem Zeigefinger auf Chudschas Mutter. „D-d-diese hat getrennt!“*. (Kein Himmel auf Erden, S. 228.)

Кўринадикки, ҳар икки тилда ҳам фонопоэтик бирликнинг қўлланиши айнан бир хил. Лекин таъкид маъносини бериш учун таржимон ўзбек тилидаги „мен“ сўзини эмас, “*емас*” „*nicht*” сўзини танлаган. Кейинги ўриндаги „*мана*“ сўзи эса ўзгартирилган, яъни оддий ҳолатда қўлланилган. Лекин шу сўз иккинчи марта берилганида „*d-d-diese*“ тарзида таржима қилинган. Ундошнинг такрорланиш миқдори ўзбек тилидан бир марта кўпайтирилиб, юқоридаги „*мана*“ сўзидаги кўшимча маъно ҳам иккинчи „*мана*“ сўзининг таржимасига кўчирилган.

**б) қаҳр-газаб:** *У қаддини ростлаган эди, менга кўзи тушиди. – Н-нима гап? Хўжа қ-қани?* – *деди гоҳ менга, гоҳ бузоққа қараб.* (Дунёнинг ишлари, 188-бет.)

*Als er sich aufrichtete, blickte er mich. „W-was ist los? W-wo ist Chudscha?“ Er betrachtete bald mich, bald das Kalb.* (Kein Himmel auf Erden. S. 232.)

Ҳар иккала тилда ҳам бир хил услуб намоён бўлган.

**д) иккиланиш, таажжуб:** *Унинг қўлидан болтаси тушиб кетди. Бир зум лаблари титраб, тикилиб турдию кўзларига ёш қалқиб чиқди. – Н-нега, н-нега кетади? – деди инграб.* (Дунёнинг ишлари, 188-бет.)

*Das Beil fiel ihm aus seiner Hand auf den Boden. Seine Lippen zitterten kurz, dann traten ihm Tränen in die Augen. „W-warum? W-warum geht er weg?“ stöhnte er.* (Kein Himmel auf Erden, S. 232)

**е) кўрқинч:** - *Синди!* – *дедим овозим титраб. Вали югуриб тепамага келди: - Вой-й-й! Энди даданг ўлдирди.* (Дунёнинг ишлари, 175-бет.)

Лекин немис вариантыда бу маъно ҳам лексик восита ёрдамида ифодаланган: „*Es ist gebrochen!*“, *sagte ich mit bebender Stimme.*

*Wali lieft sofort zu mir: „Ach...Jetzt wird dich dein Vater verprügeln.“* (Kein Himmel auf Erden, S.216.)

Ундош товушларнинг сўзнинг турли ўринларида иккилантирилиши ҳам стилистик қимматга эга. Сўз бошидаги ундош товушнинг иккилантирилиши персонажга хос нутқий камчилик ёки унинг ўта ҳаяжонланганлигини ифодаласа, сўз охиридаги ундошнинг бирдан ортиқ такрори шу сўзнинг чўзиқ талаффузини билдиради. Худди шунингдек, сўз бошида ундош товушларни иккилантириб талаффуз қилиш ва ёзиш орқали бадиий тасвирда вазиятдан келиб чиқадиган нутқий камчиликлар ёки нутқ органларида бирор нуқсон бор шахсларнинг талаффузи реал акс эттирилади.[5] Масалан, “Хўжа” ҳикоясида қўлланилган ундошларни чўзиш ҳодисаси айнан ўта ҳаяжонланганликни ифодалаб келганини кўришимиз мумкин: - *Уялмайсизми, она! – деди ҳамон лаблари пирпираб. – Қ-қўшмачилик қ-қ-қилганини уялмайсизми?* (Дунёнинг ишлари, 185-бет.)

*“Schämen Sie sich nicht, Schwester?!”, fragte er sie. Seine Lippen zitterten. „Schämen Sie sich nicht, sich mit K-Kuppelei zu b-b-beschäftigen?!“* (Kein Himmel auf Erden, S. 228.)

Вазиятдан келиб чиқадиган турли нутқий камчиликлар ҳам мавжуд. Бундай вайизатларга маст ёки эснаётган кишиларнинг нутқи мисол бўлиши мумкин. Лекин “Дунёнинг ишлари” асарида бундай ҳолат учрамайди. Сўзловчининг индивидуал талаффузига хос хусусиятлар график қайд қилинади, ёзувдаги бундай қайд “графон” деб ҳам юритилади [5]. Айрим ўринларда кулги кўзғатиш мақсадида ҳам сўзлар атайин бузиб талаффуз қилинади ва ўша тарзда ёзилади, графон ҳосил бўлади. Масалан:

*Чолнинг кенжа ўғли Москвада, аспирантурада ўқийди.*

*-Дилгиром келди, йигирманчида келаркан. Чоршанба куни Кўктеракка бориб қўй опчиқдим,- дейди чол. –О`ғлим келиши билан оёғига сўяман.* (Дунёнинг ишлари, 226-бет.) Парчадаги „*Дилгиром*“ сўзи кекса ёшдаги одамнинг тилга янги кириб келган сўзни тўғри тасаввур қилмаслиги оқибатида келтириб чиқарилган. Лекин немис тилидаги вариантда бу сўз айнан нейтрал маъносидан, ўз ҳолича қўлланилган: *Der jüngste Sohn des Greises studierte an der Moskauer Universität als Aspirant. „Wir haben schon ein Telegramm von ihm bekommen. Er kommt am zwanzigsten. Am Mittwoch habe ich im Basar von Kukterak ein Schaf gekauft. Wenn er kommt, schlachte ich es vor seine Füßen!“* (Kein Himmel auf Erden, S.276.)

Қуйидаги парчада эса сўзловчининг индивидуал талаффузига хос хусусиятлар алоҳида ажратиб кўрсатишга ҳаракат қилинган:

*-Ҳодзир...*

*Шайх ғалати гапирди, „з“ни айтолмайди, „дз“ дейди, „с“ деёлмайди, аллақандай „ц“ қилиб айтади.*

*-Шайх тезроқ! Нозик меҳмонлар келиб қолди.*

*Шайх шошилмайди. Ишини билиб қолади.*

*-Цекин. Нодзик бўца, ўдзига, -дейди илжайиб.* (Дунёнинг ишлари, 35-36-бетлар.)

Немис тилига қилинган таржимада ҳам шу ҳолат кўзга ташланади:

*„Gleich jetdzt...“*

*Seit seinem Sturz damals sprach er etwas seltsam. Er konnte das „Z“ nicht aussprechen und sagte „dz“ und das „S“ klang bei ihm wie „ts“.*

*„Langsam, selbst wenn die Götter hochangesehen sind, ist das mir egal!“ erklärte er schmunzelnd. (Kein Himmel auf Erden, S. 45)*

Кўриб турганимиздек, икки тилда сўзларнинг турли хиллиги сабаб, немис тилидаги таржимада бир гапнинг ўзида еттита сўз алоҳида талаффуз қилингани ифодаланмоқда. Ўзбек тилида эса бу гапнинг таркибидаги графонларнинг сони учта эди.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, турли фонопозтик воситалар тилнинг жозибadorлигини, бадий матнинг эстетик хусусиятларини оширади. Китобхонларга асардаги қахрамонларнинг ҳолатлари, ўй-фикр ва кечинмаларини янада яқинроқ билишга имкон яратади. Товушлар ёзувчиларнинг китобхонга бадий-эстетик таъсир этувчи қуролига айланади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ў.Ҳошимов. Дунёнинг ишлари. Т.: Фафур Ғулом. 2016. 239 бет.
2. U.Hoshimov. Kein Himmel auf Erden. T.: Akadernashr Verlag. 2014. 300 bet.
3. Г.Т Яхшиева. Ўзбек тилида фонографик воситалар. Филол. фан. ном. дис. автореф. – Т., 1997.
4. Ш.Ғ.Тошхўжаева. Эркин Аъзам асарлари лингвопозитикаси. фил.фан. бўйича фалсафа доктори(PhD) олиш уч. дисс. Фарғона. 2017.
5. D.To`lanova. Badiiy matnda fonografik vositalarning qo`llanishi. BMI. Andijon. 2014.

### **LEKSIK USUL BILAN MODALLIK IFODALASH VA MODAL SO‘ZLARNING TASNIFI MASALALARI**

*Ergasheva Shahlo Po‘latovna o‘zbek tili o‘qtuvchisi  
Toshkent tibbiyot Akademiyasi Farg‘ona filiali*

*Anatatsiya. Fikrning voqelikka bo‘lgan munosbatlarining turli xil ko‘rinishlarini, shuningdek, bildirilyotgan naesalarining sub’yektiv tarzda tasniflanishni turlicha ko‘rinishlarini ifodalovchi funksional-semantik katigoriya.*

Ма’лумки, hozirgi zamon o‘zbek tilida «modal so‘zlar» nomi bilan yuritiladigan so‘zlar guruhi o‘zbek tilshunoslarini ko‘p vaqtdan buyon qiziqtirib kelmoqda. Garchi o‘zbek tilshunoslari bunday so‘zlarni to‘liq klassifikatsiya qilishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ymagan va ularni turli nomlar (ravish, ko‘makchi, turlanmaydigan so‘zlar, yuklama, kirish so‘zlar) bilan atagan bo‘lsalar ham, ular bu so‘zlarning turli semantik ma‘nolarini aniqladilar va shunga ko‘ra ularni 2 dan 9 guruhga bo‘ldilar. O‘zbek tilshunoslarining ba‘zilari modal so‘zlar doirasini juda cheklab qo‘ygan bo‘lsalar, boshqalari esa uni ma‘lum darajada kengaytirdilar[3]. Biroq, ular bu kategoriyaning chegarasini belgilash, uni klassifikatsiya qilish sohasida hali yagona fikrga kelgan emaslar.

Bu sohada erishilgan yutuqlarni e'tiborga olib va o'zimiz tekshirgan materiallarga asoslanib, modal so'zlarning anglatgan ma'nolariga ko'ra klassifikatsiyasini tavsiya etamiz. Fikrimizcha, bu klassifikatsiya ularning haqiqiy holatini ancha aniq ko'rsatadi.

O'zbek tilida yuzdan ortiq modal so'zlar mavjud. Anglatgan ma'nolariga ko'ra ularni quyidagi asosiy guruhlariga bo'lish mumkin:

1. So'zlovchining voqelik faktiga bo'lgan fikrining reallik darajasini ifodalovchi modal so'zlar.
2. So'zlovchining voqelik faktiga bo'lgan zaruriyatlik munosabatlarini ifodalovchi modal so'zlar.
3. So'zlovchining voqelik faktiga bo'lgan so'zlar
4. motsional munosabatlarini ifodalovchi modal so'zlar.
5. So'zlovchining fikrni ifodalash formasiga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi modal so'zlar.

Bu asosiy guruhlarining hammasi anglatgan ma'nolariga ko'ra bir qancha kichik guruh va turlarga bo'linadi.

1. So'zlovchining voqelik faktiga bo'lgan fikrining reallik darajasini ifodalovchi modal so'zlarni ikki kichik guruhga bo'lish mumkin:

1. So'zlovchining voqelik faktiga bo'lgan fikrining aniqligini ifodalovchi modal so'zlar.
2. So'zlovchining voqelik faktiga bo'lgan fikrining noaniqligini ifodalovchi modal so'zlar.

2. So'zlovchining voqelik faktiga bo'lgan fikrining aniqligini ifodalovchi modal so'zlar kuyidagi turlarga bo'linadi:

a) voqelik faktiga bo'lgan fikrning aniqligini tasdiqlash orqali ifodalovchi modal so'zlar. *Albatta, chindan, haqiqatan, darhaqiqat, shaksiz, shak-shubhasiz, so'zsiz, tabiiy, tabiiyki, beshak, filhaqiqat* kabi so'zlar bunga misol bo'la oladi.

Bu kichik guruhga mansub modal so'zlar so'zlovchining aytilayotgan fikrning aniqligiga ikkilanmasligini bildiradi (bu maqola modal so'zlar klassifikatsiyasiga bag'ishlangani ucnun biz bu yerda modal so'zlarning ma'nolari ustida to'liq fikr yuritish imkoniyatiga ega emasmiz, shuning uchun har bir kichik guruhning umumiy ta'rifini berish bilan kifoyalanamiz).

Misollar: *Albatta, umri do'konda o'tgan Aliqul qo'sh haydashdek nozik ishning uddasidan chiqolmasdi. Xattotlikda Sulton Ali, rasmda ustod Behzod, shubhasiz, zamonning xudo bergan iste'dodlaridir* (Oybek).

b) voqelik faktiga bo'lgan fikrning aniqligini salgina chekinish orqali ifodalovchi modal so'zlar. *Durust, rost, to'g'ri, tuzuk* kabi so'zlar shular jumlasiga kiradi. Bunday modal so'zlar ilgari aytilgan fikrni tasdiqlash uchun xizmat qiladi. So'zlovchi ilgari aytilgan fikrni tasdiqlaydi va asosan unga qo'shiladi, biroq, so'zlovchining fikricha, ma'lum fakt yoki hodisa ustida aytilgan fikrda „sal boshqachalik" bor, shu tufayli, u o'z fikrini qat'iy ayta olmagach, boyagi „sal boshqachalik" ka izoh beradi.

Misollar: *Durust, men otangizga birga ketolmasligimni, charlarni uch-to'rt kun kutib qolishimni bir necha vaqt aytolmay yurdim, lekin...* (A.Qodiriy). *Tug'ri, bizga shaxanshohning iltifot va muruvvatlari baland, sadoqatimizga imonlari komil, ammo unutmaylikki, podsho va Alisher bir qarich yoshdan boshlab do'st bo'lishganlar* (Oybek).

v) voqelik faktiga bo'lgan fikrning tasdig'ini ma'qullash va rozilik bildirish orqali ifodalovchi modal so'zlar. *Mayli, bo'пти, xo'p, yaxshi* kabi so'zlar bunga misol bo'la oladi. Bunday modal so'zlar so'zlovchining suhbatdoshi fikriga qo'shilganini, uni ma'kullaganini, shuningdek o'sha fikr bo'yicha kat'iy qarorga kelganini bildiradi.

Misollar:—*Mayli, tilingiz bormasa ham dilingizda bo'lsa bo'ldi* (P.Kodirov). *Yaxshi, usta amaki, nimaiki zarur bo'lsa, hammasini so'rang, jonu dilim bilan bajarishga tayyorman* (Sh. Rashidov).

g) *oldin bayon etilgan fikrni yanada konkretlashtiruvchi modal so'zlar. Aniqrog'i, tug'risi, tug'rirog'i, yaxshisi, eng yaxshisi* kabi so'zlar modal so'zlarning shu kichik gruppasiga mansubdir. Bunday modal so'zlar ilgari aytilgan fikrni konkretlashtirish, aniqlash uchun xizmat qiladi.

Misollar: *Otangiz Toshkentda ekan vaqtida men bu ishni OCHmoqqa og'irsingan, tug'rirog'i, uyalgan edim* (A. Kodiriy). *Aniqrog'i, bechoraga juda og'ir, "kundosh—xotin zotining o'limi" deganlar* (A. Kodiriy). *Ilgarilari u, xuddi xardek, muhitni payqamas, to'g'rirog'i, mensimas edi* (P. Kodirov).

d) Fikrning tasdig'ini eslash va eslatish orqali ifodalovchi modal so'zlar. *Voqean, darvoqe, aytganday, aytmoqchi, ma'lumki, ravshanki, belgilikki* kabi so'zlar shu kichik guruhga kiradi.

*Aytganday, aytmoqchi, voqean, darvoqe* modal so'zlari, asosan, bo'lib o'tgan, lekin so'zlovchining aybi bilan ma'lum vaqt davomida unutilgan bo'lsa ham, bir qancha vaqtdan so'ng uning esiga to'satdan kelib qolgan o'sha fikrni anglatadi. Bundan tashqari, bunday modal so'zlar aniq shaxslarga aloqador bo'ladi.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo'jaeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi.-Toshkent: Fan, 1992.
2. Pinxasov Y., Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida modal so'zlar. Jurnal "O'zbek tili va adabiyoti masalalari", №1, O'zFA nashriyoti, T., 1961.
3. S. Saidov. Modal so'zlarni o'rganish tarixidan, "O'zbek tili va adabiyoti " jurnali, O'zFA, T.,1963.

## **FONOPOETIK HODISALAR (GEMINATSIYA HAQIDA )**

*Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi*

*FarPI o`qituvchi*

*Annotation In the article were analyzed gemination the role of gemination in literary texts were explained.*

*Аннотация В статье идёт речь об геминации и анализирует роли геминации в художественного текста.*

Qadim zamonlardanoq, soʻzning qanday paydo boʻlishi, uning qanday qilib narsalarning nomi bilan bogʻlanishi, buyumlarga qanday qilib nom berilishi haqidagi savollar odamzotni qiziqtirib kelgan. Ayrim olimlar buyumga nom berilishi uning oʻzi, shakli - shamoyili bilan bogʻliq deb hisoblashgan boʻlsa, ayrimlari buyumlar qanday xoxlangan boʻlsa shunday nomlangan deb hisoblashadi. Ayrimlari esa buyumlarga nom berishga predmetning mohiyati, shu bilan birga predmetga oldindan berilgan nom mavjud boʻlgan deb ishonishgan.

Qadimgi yunon faylasufi Platon esa "...biz (bu yerda til egalari) predmetlarning nomini tanlashda xoxlovchilar hisoblanamiz, bu shunchaki xoxish yoki istak boʻlib qolmasdan, tarqoqlikdan holi emas. Predmetlarga nom berish unchalik erkin boʻlib qolmasdan, predmetning xususiyati va tovushlarning xususiyati ayrim hollarda erkin emas. Platonning fikricha, nutqda tez, ingichka, shovqinli va yumaloq singari tovushlar mavjud hisoblanadi. Shu bilan birga predmetlar ham tez, ingichka, shovqinli va yumaloq boʻladi. Uning fikricha tez narsalar va predmetlarni ifodalaganda "tez" tovushlardan foydalaniladi. Ingichka predmetlarga ingichka tovushlardan foydalanib nom beriladi. Qolgan shakldagi predmetlarga masalan shovqinli narsalarga nom berilishini ham shunday asoslash mumkin. Ular soʻz tarkibiga singib oʻziga xos maʼno va ohang kasb etib ulgurmagan tovushlarga ham oʻzgacha mazmun berishga intilishgan edi. Masalan, «r» – tezlikning, shiddatning ramzi, «l» - viqorning, silliqlikning, yaltiroqlikning ifodachisi, «i» - torning, «a» - kattaning, «e» - abadiyatning belgisi sifatida talqin qilingan. Keyinroq tovushlar tabiati bilan shugʻullanuvchi mutaxassislar «u», «d», «r» tovushlari dahshatni yodga solishi, «i» xursandchilikning, «m», «n», «l» tovushlari nazokatning sirli ramzlari ekanligi haqidagi mulohazalarini bayon qilishgan.[1]

Fonopoetika esa bugungi kunga kelib alohida tadqiqni talab etadigan sohalardan biri boʻlib qolmoqda. Fonopoetika lingvopoetik tadqiqotlarning ayrim qismi sifatida tekshirib oʻtilsada, hali monografik planda tadqiq etilgan emas. Nazmiy asarlarning fonopoetikasi, vaznlar fonopoetikasini oʻziga xosligi Tursunova O[8]. tomonidan tadqiq qilinishi boshlangan. U oʻzining bir necha maqolalari bilan fonopoetikaning ham alohida tadqiqot sohasi ekanligini koʻrsatib oʻtdi. Xalqaro miqyosda ham bu sohada hali yetarli darajada tadqiqotlar oʻtkazilmagan. Fonopoetika haqida gap ketganda fonetik hodisalardan hisoblangan alliteratsiya, assonans, geminatsiya, tovush orttirish, tovush

tushurish singari hodisalarning muhim ro'l o'ynashini belgilab o'tish lozim. Quyida esa fonetik hodisalardan biri bo'lgan geminatsiya hodisasi haqida fikr yuritiladi.

Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o'ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – **fonografik vositalardan** foydalanadilar. Masalan bunday keng qo'llaniladigan fonetik usullardan biri geminatsiya hisoblandi. «Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati»da mazkur hodisa «**qo'sh undoshlik** – ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi» sifatida izohlanadi.[3] «O'zbek tili tarixiy fonetikasi» o'quv qo'llanmasida esa bu hodisa «**qo'shoqlanish**» yoki «**ikkilangan undosh**» deb yuritiladi: «*Qo'shoqlanish* – undoshlarning cho'zilishi, ikkilanishi hodisasini fonetik o'zgarishlar sirasida ko'rib chiqish o'ta shartlidir. Lekin bu hodisa faqat ikki unli orasidagi yakka undoshda sodir bo'la olishi bilan fonetik o'zgarishlarga o'xshaydi. Qo'shoqlanish, asosan, ikki unli orasida kelgan **k, q, t, l** tovushlarida va faqat **2, 7, 8, 9, 30, 50** sanoq sonlarini nomlashda sodir bo'ladi. Bu sonlarni bir undosh bilan ham, *ikkilangan undosh* bilan ham talaffuz etish mumkin bo'lgan. Sanoq sonlar nomidagi bu xil qo'shoqlanish sabablari haligacha ochilmagan. Lekin **katta, latta, yakka, yalla, chakki, ukki** kabi so'zlardagi ikkinchi **t, l, k** lar tarixan morfologik ko'rsatkich bo'lib, ulardagi qo'shoqlanish singish (adaptatsiya) natijasidir degan fikr mavjud.»[9] Adham Abdullayev esa bu holat uchun «**undoshlarni qavatlash**» atamasini ishlatgan.[6] Undoshlarni qavatlab qo'llash orqali badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi xursandlik va xafalik holatlarini tugal tasvirlashga erishiladi. Masalan, *Ayyorlikda uchchiga chiqqanman deb maqtansam yolg'on emas* (Oybek). *Uni ayblashga sizning ma'naviy haqqingiz yo'q, uka! - dedi g'azab bilan* (gazetadan). Keltirilgan misollardagi undashlarning qavatlanishi qahramonlar tabiatidagi subyektiv holatni ifodalashga xizmat qilgan. Ya'ni, birinchi gapdagi qahramonning o'z «ishihunaridan» mamnunligi, «anoyi» emasligini ta'kidlash istagi qavatlangan «ch» undoshi orqali yanada aniq ifodalangan. Ikkinchi gapdagi qahramonning qahr-g'azabi esa «q» tovushi geminatsiyasi bilan ko'rsatib berilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, undoshlarning qavatlanishi alohida uslubiy vositadir. Duch kelgan tovushni qavatlab qo'llab bo'lmaganidek, so'zda turli sabablar bilan yonma-yon kelgan barcha undoshlar ham lingvopoetik jihatdan ahamiyatga ega bo'lavermaydi. Masalan: – Ukaginam, bu kennoyingizga (*kelin oyingizga – ellipsis*) zagsda *patta* (*so'z imlosida mavjud*) kesilmagan. Birinchisidan to'qqizta (*so'z imlosida mavjud*) bola bor. Bechora giroy bo'laman rosa tug'di. To'qqizinchisini tug'diyu o'zimizning tilda aytganda *brakka* (*brak+ga/ka*) chiqib qoldi. (S.Ahmad).

Badiiy matnda geminatsiyaning muhim o'rin tutishini ko'p kuzatishimiz mumkin. Poetik nutqda (okkozional) uslubiy maqsadni ifodalovchi ohangdorlik bu aynan geminatsiyadir. O'zbek tilshunosligiga oid adabiyotlarda geminatsiyaga yana quyidagicha ta'rif keltiriladi: ketma-ket kelgan aynan bir tipdagi undosh.[3] Bundan

tashqari geminatsiya haqida yana A.G‘ulomov,[4] A.Haydarov,[5] A.Abdullaev,[6] M.Yo‘ldoshev[7] asarlaridan ma‘lumot olishimiz mumkin. Demak, bu yerda so‘z tarkibidagi qo‘sh undoshlilik nazarda tutilgan. Bu esa poetik nutqda ma‘lum poetik vazifani bajarish, maqsadni kuchaytirish, tinglovchiga ta‘sir o‘tkazish uchun qo‘llaniladi.

*Birdan-bir o‘ynoqi, shaffof, ruh yeldi,*

*Shakkar sovurildi bebosh shamolda.*

*Birinchi qor kabi birinchi sevgi*

*Faqat osmondadir faqat xayolda. (I.Mirzo.)*

Bu o‘rinda ikki so‘zda «shaffof» asl holatda, ya‘ni lug‘atlarda berilishicha ifodalangan (shaffof-yorug‘lik yoki nurni yaxshi o‘tkazadigan, tiniq, O‘TIL, 403-bet). «Shakkar» so‘zida esa bir «k» tovushi orttirilgan. Aslida bu so‘z «shakar» tarzida bo‘lishi kerak (shirin, mazali, totli; kishiga yoqadigan, O‘TIL, 392-bet). So‘zlovchi o‘zining yoqimli holatini yo‘qotganini, tinchi buzilganini, ya‘ni «shaffof ruh»ning birdan qalbiga kelganligi, keyin esa shamolda (hayot yo‘llaridagi, mayda, maishiy turli-tumanliklarda) o‘sha shirin, yoqimli tuyg‘ularidan ayrilganini ta‘sirchan ohangda ifodalash, totli hislarini yo‘qotganidan g‘azablanish mazmunini yetkazib berish uchun aynan mana shu- geminatsiya usulidan foydalangan.

A.G‘ulomovning ko‘rsatishicha, ko‘pgina so‘zlarning ma‘nosini kuchaytirish maqsadida geminatsiya hodisasi yuz bergan, bora-bora qo‘sh undoshlilikning ekspressiv ma‘nosi yo‘qolib oddiy holga kelgan[4]. Geminatsiya hodisasi yuqorida ko‘rsatilgan manbalarda faqat undoshlarning juftlashib kelishi, deya talqin qilingan.

Fonopoetikani tovushdosh so‘zlar bilan boyitishda, ayniqsa, tovush juftlari ustida, ularning mo‘tadillashuvi, integratsion va differentsiatsion xususiyatlari yuzasidan olib boriladigan ishlar muhimdir.

Qat‘iylikni ifodalash maqsadida tovushlarni qisqartirishi, so‘z oxiridagi undoshni qattiq talaffuz etish kabi usullardan foydalanilsa, ishonchsizlik ma‘nosini berish uchun oxirgi undosh talaffuzini susaytirishdan foydalaniladi.

*«Yo‘q, sevgi emas bu, shunchaki xavas»,-*

*Ming bor yupatmoqchi bo‘ldim o‘zimni va*

*Yo‘qq! Ko‘rishmaymiz xayr endi,*

*Ortiq ko‘rishmaymiz yuzma-yuz. (Rauf Parfi)*

Misralardagi «yo‘q» va «yo‘qq!» so‘zlarining mantiqiy ma‘nosida farqlanish bor, birinchi «yo‘q» so‘zidan keyin kelgan vergul (,) va shu belgi so‘zni sustroq, mayinroq, ishonchsizroq ifodalasa, ikkinchi marta ishlatilayotgan «yo‘qq!» so‘zidagi «q» qattiq tovushning ikkilanishi hamda (!) undov belgisi so‘z ma‘nosini qat‘iy, ishonchli, so‘ngso‘z tarzida ifodalayotgani ma‘lum bo‘ladi. Fonopoetikani tadqiq qilish jarayonida so‘zning bunday ma‘no nozikliklari ustida ishlash o‘rganishning samarali usuli hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Кухаренко В.А. Интерпретация текста. –М: «Просвещение», 1988.

2. N.A.Baskakov, A.S.Sodiqov, A.A.Abdulazizov. Umumiy tilshunoslik. Toshkent "O`qituvchi". 1979. 21-b
3. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Т.: 2002.
4. Гуломов А. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. Докторская диссертация, -Т. стр-123
5. Ҳайдаров А. А. Бадиий тасвирнинг фоностилистик воситалари. Филол. Фанлари. Номзоди дисс...автореферат. -Т.: 2008. -Б.10.
6. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. -Т.: 1983.
7. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик сатҳ асослари. -Т.: Фан. 2007. 7- бет.
8. Tursunova O. PHONOPOETICS OF THE TEXT. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. P 115-117
9. Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. -Т; «Ўқитувчи», 1992, 86-б.

### **USE YOUR BODY LANGUAGE TO IMPROVE CLASSROOM MANAGEMENT**

*Ergasheva Nargiza Numonjonovna,  
teacher of Fergana Polytechnic Institute*

*Аннотация. Эта статья посвящена паралингвистике - языку тела и улучшению управления классом с помощью хорошего языка тела. В статье приведено общее определение языка тела и инструкции по улучшению управления классом при помощи языка тела.*

*Annotatsiya. Ushbu maqola paralingvistika - tana tili va sinfni yaxshi tana tili bilan yaxshilashga bag'ishlangan. Maqolada tana tili tushunchasiga umumiy ta'rif va sinfni qanday qilib tana tili orqali boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.*

**Body language** is a type of non-verbal communication in which physical behavior, as opposed to words, are used to express or convey information. Such behavior includes facial expressions, body posture, gestures, eye movement, touch and the use of space. Body language exists in both animals and humans, but this article focuses on interpretations of human body language. It is also known as kinesics.

Body language must not be confused with sign language, as sign languages are full languages like spoken languages and have their own complex grammar systems, as well as being able to exhibit the fundamental properties that exist in all languages.[1][2] Body language, on the other hand, does not have a grammar and must be interpreted broadly, instead of having an absolute meaning corresponding with a certain movement, so it is not a language like sign language,[3] and is simply termed as a "language" due to popular culture.

Effective teachers use body language to communicate with students, build rapport with them, and make them feel safe and supported.

“Face the student with arms uncrossed and relaxed,” says Mindy B “and usually always smiling! Give them eye-to-eye contact, and pay attention to them! By doing this, I’m conveying the message that ‘I care!’” [4]

“The ability of a teacher to establish positive rapport with students is a critical aspect of the teacher-learner relationship,” explains Ron Benner, a school psychologist in Bridgeport, Connecticut. “The successful teacher blends both verbal and nonverbal communication skills in establishing good rapport with students and this has a direct correlation to student achievement.”

Test your understanding of your students and how your body language affects them by standing in the doorway of the room as your students shuffle in. This close contact sets up a naturally occurring single file line that calms them before they enter the classroom and enables a positive learning environment before they even sit down, according to body language expert Chris Caswell.

From the start, command the classroom. Greet the class with a loud, clear, upbeat voice. If you look frazzled, you seem vulnerable. Lack of confidence is a red flag to students.

#### Body Language Dos and Don'ts

Where and how you stand in the classroom speaks volumes, too.

- **Stand up straight.** Poor posture—slumped shoulders, stomach sticking out—is not only physically unhealthy, but it can convey a whole range of attitudes and degrees of interest and respect.

- **Avoid folding your arms, standing behind a desk, and using barriers.** These behaviors “simply sends the signal that you don’t want to make contact,” says Caswell. It blocks you off and makes you appear unapproachable. Don’t cross your arms or shuffle papers that aren’t related to the lesson, and refrain from looking at your watch when a child is speaking.

- **Use the whole classroom.** Walk around the students’ desks to show interest, and indicate approval with a head nod. Caswell suggests leaning slightly forward and moving momentarily into their territory in a nonthreatening way.

- **Be aware of your facial expressions (or lack thereof!).** They can easily convey any number of moods and attitudes, as well as understanding or confusion.

- **Smile.** It conveys happiness and encouragement. Frowns show sadness or anger. Big, open eyes suggest fear. An animated face draws the listener in.

- **Make eye contact.** It helps establish rapport and trust, and it shows that you’re engaged and listening to the students.

- **Adopt different poses** when you want your students to respond in a particular way.

- **Your hand on your chin** encourages students to think about the answer and shows you’re waiting for their answer.

- **Hands out and palms up** shows that you’re open to questions and answering in a nonthreatening way.

- **Observe wait time**—don’t stare and rush them. Appear relaxed and ready to listen.

Body language helps you get your message across. Let students know that you want to create a supportive, productive learning environment.

#### **Literature:**

1. Klima, Edward S.; & Bellugi, Ursula. (1979). *The signs of language*. Cambridge, MA: Harvard University Press. ISBN 0-674-80795-2.
2. Jump up Sandler, Wendy; & Lillo-Martin, Diane. (2006). *Sign Language and Linguistic Universals*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Jump up to: Barfield, T (1997). *The dictionary of anthropology*. Illinois: Blackwell Publishing.
4. Mindy B. National Education Association on Facebook
5. Николаева Т.М. Паралингвистика//Лингвистический энциклопедический словарь// М.:1990 – 685 с.
6. Ахманова О.С. Параязык// Словарь лингвистических терминов. М.: КомКнига, 2007.

### **И.В.ГЕТЕНИНГ “ФАУСТ” ТРАГЕДИЯСИДАГИ ФАУСТ ОБРАЗИНИ ЯРАТИШДА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИНГ ЎРНИ**

*Акмал Улканов, ўқитувчи*

**Аннотация:** В статье рассматривается образ Фауста в одноимённом произведении великого немецкого писателя Й.В.Гёте на основе немецкого и узбекского переводов.

**Abstract:** This article reveals the character of Faust on the basis of German and Uzbek translations of the novel “Faust” written by the great German writer Y.W.Gothe.

Доктор Фауст ҳақида афсона XVI асрларда пайдо бўлган. Унинг мўжизалари ҳатто самодан гўзал Еленани ўзига ром этган Гомер ҳақидаги афсоналар халқда оғиздан оғизга кўчиб юрарди. Фауст ҳақидаги афсоналар шунчалик тарқалиб кетдики, ҳатто 1587 йилда қандайдир Иоган Спик деган одам уни шайтон билан алоқа қилишда айблади. 1599 йилда эса Фауст ҳақида Видман қаламига мансуб иккинчи китоб ҳам нашрдан чиқади. Фауст ҳақидаги афсоналар бошқа мамлакатларга ҳам кўчди. 1592 йилда Англияда Шекспир издоши Кристофер Марло сахна учун “Доктор Фаустнинг фожеавий тарихи” сецанарийсини ёзди. XVII-XVIII асрларда Германияда ҳам доктор Фауст ҳақида кўплаб бўш асарлар яратилди. Ўрта асрлардаги кўғирчоқ театр, бозор театри учун бош мавзу вазифасини ўтаб берди. Табиат сирларидан воқиф ва уларни ўзига бўйсундира оладиган инсон орзуси одамлар хотирасидан ўчмади. Енгилмас, доно, омадли доктор Фауст ҳақидаги афсоналар халқ хотирасида тўлқинланиб яшади. Гёте ушбу халқ афсонасини олди ва уни устида ишлаб халқ эпопеясига айлантира олди. Унинг яратган асарлари трагедия руҳида ёзилган. Саҳна имкониятларидан

ташқаридалиги эса ҳақиқат. Диалогик эпик поэма кўринишидаги фалсафий маъно касб этадиган ушбу асар ҳаётни тасвирлайди.

XVI-XVII аср халқ китобларида Фауст табиат сирларини ечишга ва уларни инсонга бўйсундиришга муваффақ бўлган омадли донишманд сифатида номоён бўлади. И. В. Гёте халқ афсонасини буюк эпопеяга айлантира олди. Унинг трагедиясида борлиқнинг доимий ва замонавийликнинг илғор саволлари, шунингдек марифий дунёқарашнинг муҳим ҳолатлари кўтарилади ва ривожланади. Бу мазмунли планда тасдиқланган Гёте универсиализми равшанроқ номоён қилади. Гёте трагедиясининг муҳим ғоялари деб онг ҳақидаги ғояни ва у билан боғлиқ XVIII аср Европа фалсафасининг махсулдор ғояларидан бири бўлган дунёни ўзгартириш ғоясини ҳисоблаш мумкин. Бу билан Гёте онгни метофизик гавдалантириш билан чекланмай, ўз қахрамонини ҳақиқатни англашнинг мураккаб жараёнида тасвирлайди. Гёте трагедияси сахналари 3 та пролог билан юзага чиқади. Улардан биринчиси - лирик "Zueignung" (Бағишлов)да ҳиссиётларнинг ўзаро уйғун ҳодисаларини ташкил қилади. Бу ерда ўтган йилларга ачиниш, ҳозирги замон ҳақида ташвиш, шубҳаланиш мавжуд:

Mein Lied ertoent der unbekannten Menge,  
Ihr Beifall selbst macht meinem Herzen bang,  
Und was sich sonst an meinen Lied erfreuet,  
Wenn es noch lebt, irrt in der Welt zerstreut.[3]

Э. Воҳидов таржимаси:

Бебахралар фикрин ҳеч йўқ қиммаати,  
Олқиш дилимга солади музлар.  
Ул хассос зарифлар йитди бу замон  
Кимсасиз йўлларда бесару замон.[1]

П. А. Усмон таржимаси:

Нетай, ётлар аро соламан ох, фарёд!  
Дил курғур эзилар қилса улар ханда;  
Муҳлисларим бўлса гар аҳён-аҳёнда,  
Сарсон-саргардондир бебаҳо жаҳонда.[2]

Аслиятдаги "bang machen" фразеологик бирлик ҳисобланади. Унинг таржимаси "қўрқитмоқ" ифодасини беради.[5] Э. Воҳидов бу бирликни "муз солмоқ" сўз бирикмаси билан таржима қилади. Бу ерда тасвирий таржимадан фойдаланилган, чунки аслиятдаги маъно ифодаси умуман ўзгариб кетган. П. А. Усмон тили билан "эзилмоқ" сўзи кўчма маънода фойдаланган. Бу ерда ҳам мазмун оригиналдагидан фарқ қилади. Лекин барибир шоирнинг умиди сўнмайди.

Was ich besitze, seh ich wie im Weiten,  
Und was verschwandt, wird mir zu Wirklichkeit.[3]

Э. Воҳидов таржимаси:  
Бу олам чекинур, ўтмишчи, аён-  
Кўзларим олдида бўлар намоён.[1]

П. А. Усмон таржимаси:  
Бор бисотим йироқ-йиокда қолгандек,  
Неки бўлмиш ғойиб боз бунёд бўлгандек.[2]

Таржимон Э. Воҳидов бу сатрлар таржимасини тушунтириш орқали ифадаланган. Ҳеч қандай фразеологик бирлик қўланилмаган. Таржимон П. А. Усмон қаламида бу қаторлар сўзма-сўз амалга оширилган.

Иккинчи пролог “Vorspiel auf dem Theater” шоирнинг эстетик ҳолатини номоён қилади ва трагедиянинг ғоявий мазмунини тушунишга ёрдам беради. Ва нихоят, “Prolog im Himmel” трагедиянинг ғоявий мазмунини очиб беради. Мефистофел худонинг мўжизаси инсонни кичик махлук даражасигача ерга уради. Инсон ва унинг моҳияти ҳақидаги баҳсни ечишга Фауст ёрдам бериш керак. Ахир алоҳида инсон тақдири эмас, балки инсониятга мўлжалланган бутун йўл жуда муҳимдир. “Prolog im Himmel” Фауст ва Мефистофел образлари диалектикасини ўзаро боғлиқ ҳолда тушунишга ёрдам беради. Худонинг ўзи Мефистофелни инсонни ҳаракатга келтириш учун жўнатади.

“Des Menschen Taetigkeit kann allzuleicht erschlafen,  
Er liebt sich bald die unbedingte Ruh”.[3]

Э. Воҳидов таржимаси:  
Инсон табиати уйқуга мойил,[1]

П. А. Усмон таржимаси:  
Осойишта бўлсам дер у гумроҳ.[2]

"Menschen Taetigkeit kann allzuleicht erschlafen" тўғридан-тўғри ўзбек тилига таржима қилсак, инсон фаолияти жуда тез сустлашиши мумкин. Таржимон Э. Воҳидов “Инсон табиати уйқуга мойил” деб таржима қилади. Бу ердаги таржима оригиналдагидан анча фарқланади. У инсонни сустланишини “уйқуга мойил” сўз бирикмасини кўчма маънода беради. Бундан келиб чиқиб бу ерда ҳам тасвирий таржимадан фойдаланилган. П. А. Усмон эса бу сўз бирикмасини ўрнига “инсонни алданиши” деб таржима қилади. Бу ерда ҳам тасвирий таржима қўлланилган.

Мефистотелнинг вазифаси инсонни уйғотиб ҳаракатга келтириш ва Фаустни йўлбошчиси бўлишдир.

“Der reizt und wirkt, und muss als Teufel schaffen”.[3]

Э. Воҳидов таржимаси:

Ҳар замон бедор тут, ором берма ҳеч.[1]

П. А. Усмон таржимаси:

Шайтон каби жалб этар ўзига[2]

Гёте ҳақиқат иккита ибтидонинг қарши курашида туғилади деб ҳисоблаган. Гёте ўзининг авторлик “мен”и Фаустга ҳам, Мефистофелга ҳам жойлашганини тасдиқлайди. Трагедияда Мефистофел Фаустнинг душман сифатида тасвирланган, У Фаустда инсоннинг жоҳил ҳис-туйғуларини уйғотишга интилади, лекин аксига эришади. У Фауст-инсон руҳиятининг энг яхши сифатларини кучайтиради. Унингсиз Фауст олдинга интилиши гумон эди.

Фауст доимо изланувчи, тиниб-тинчимас “бутун дунё ички алоқаларини” англашни орзу қилувчи инсондир. У ўз ҳаракатларининг мақсадини кўради. Гёте Фауст ҳикоясини олимнинг руҳий кризисини у ўз ўқувчиларига маънавий озуқа берадиган, қадимий схоластика фан кучига шубҳасидан бошлайди, лекин:

“Und ziehe schon an die zehn Jahr  
Herauf, herab und quer und krumm  
Meine Schueler an die Nase herum”[3]

Э. Воҳидов таржимаси:

Ўн йилдирки кечар ҳаётим  
Шогирдларни алдамоқ ила  
Гоҳ ўнгу гоҳ терс сабоқ ила[1]

П. А. Усмон таржимаси:

Ўтди беҳаён ўн йил ҳудди гуё.  
Ўргатайин деб паст-баланд, ўнг-сўлни,  
Шогирдларим-ла ҳар ён кездим сарсон.[2]

An der Nase herumziehen (führen) бу ердаги барқарор сўз ҳисобланади. Унинг таржимаси “водить за нос, обманывать, дурачить кого-л”[5], яъни лақиллатмоқ, алдамоқ. Таржимон Э.Воҳидов таржимасида бу бирликка муқобил вариант сифатида ҳеч қандай фразеологик бирлик ишлатилмайди. Лекин бутун бир жумланинг таржимаси оддий бир сўз билан таржима қилинган. Бунда ҳеч қандай бадиий тасвир сақланмаган. П. А. Усмон эса бу бирликни ўрнига “сарсон кезмоқ” ибораси билан беради. Бу ерда бадиий тасвир ифодаланган бўлса-да, бутун гапдаги

мазмун сақланмаган. Гапдаги мазмун ўзгарганлиги туфайли таржима тасвирий таржима қилинган.

Фан таҳлили – илмий таҳлилдан, адабиётда эса бу бадиий таҳлилдан иборат. Илмий мушоҳада билан бадиий мушоҳада тўғрисида ҳам шундай дейиш мумкин. Илмий татқиқот учун асос бўлган фактлар билан бадиий асарга асос бўлган омиллар бир-биридан жиддий фарқ қилганидек, бадиий образи билан фандаги шартли символлар бир-бирига сира ҳам ўхшамайди. Чунончи, математика, физика, техника, кимё каби фанларда қўлланиладиган формула, чизмалардаги шартли белгилар ҳам, аслида, ўзига ҳос “образ” тўғрисида, фикр муддао, ғояни абстракт тарзда умумлаштирувчи тимсолларидир. Лекин бирон роман ёки достондаги образ билан илмий монография ёинки рисоладаги шартли тимсолларда зоҳирий қиёсга йўл қўйилсада улар ўртасида чуқур бетиний тафовут бор. Демак бадиий адабиётнинг ўзига хослиги юзасидан баҳс очганда образ ва образлилик, тасвир ва тасвирийлик мажоз ва мажозийлик ҳақида гапириш ўринлидир. Бунда албатта образни яратишда фразеологизмни ўрни муҳим ҳисобланади.

### АДАБИЁТЛАР

1. И. В. Гёте. Фауст (Э. Воҳидов таржимаси) “Ғофур Ғўлом” .Тошкент -1985
2. В. Гёте. Фауст (П. А. Усмон таржимаси) “Алишер Навоий”. Тошкент -2007.
3. J. W. Goethe. Faust I/II Paralipomina Goethe ueber “Faust”. Berlin und Weimar 1980.
4. Ғ. Саломов. Адабий анъана ва бадиий таржима. Тошкент-1982
5. Л. Э. Бинович. Немецко-русский фразеологический словарь. М.:1956
6. Русча-ўзбекча луғат. Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси. Тошкент-1983
7. С. Д. Романов. Большой современнқй немецко-русский русский-немецкий словарь. Издательство ОАО “Полиграфкнига” 03057. Киев-2003

### ТАРЖИМАДА КАУЗАТИВЛИК МУНОСАБАТИ

*Ж.Нажмиддинов, НамДУ*

*Аннотация. В данной статье речь идёт об отношении каузативности (причины) и его употреблении в разных языках в переводе литературных произведений.*

*Abstract. This article is about the links of causativeness and its use in different languages in the translation of literary works.*

Каузативлик. Каузатив бу лингвистик термин бўлиб, у инглизча cause-сабаб, causative - сабаблилик сўзларидан келиб чиққан. Сабаблилик турли тилларда

турлича номлар билан аталади ва асосан улар маълум сабабларни англатувчи сўзлар воситасида ифодаланади.

Биз қўйида инглиз ва ўзбек тилларидаги сабаблиликни ифодаланишини бири-бирига таққослаб кўриб чиқамиз. Инглиз тилида сабаб маънолари қўйидаги сўзлар ёрдамида ифодаланади: because-чунки, туфайли, сабабли; since-шундай экан, туфайли; as-шундай экан, экан; that-учун, дея деб; in order that учун, мақсадида, сабабли;

Юқорида санаб ўтилган сабаб маъносини ифодаловчи сўзларга мисоллар келтирамиз:

She quit school because her mother was ill.

Ушбу жумла ўзбек тилига икки хил йўл билан таржима қилиниши мумкин. Она тилимиз хусусиятидан келиб чиқиб, биз қўйидагича гапларни ўзбек тилига, гарчи қўшма гап бўлишига қарамасдан содда ёпиқ гап тарзида таржима қиламиз.

У онаси касаллиги туфайли мактабга боришни тўхтатди.

Ушбу гапни қўшма гап тарзида қўйидагича таржима қилиш мумкин:

У мактабга боришни тўхтатди чунки унинг онаси касал эди.

Ушбу икки жумлани бир биридан фарқи, уларни маъно томонида, яъни сода ёйиқ гап шакли қўшма гап шаклидан ифодалаш, экспрессивлик жиҳатидан камбағал.

Юқоридаги инглизча қўшма гапни содда гапга айлантирсак: Because of her mother's illness, she quit school ёки she quit school because of her mother's illness.

Юқоридаги иккала гап таржимаси ва уларни сода ёйиқ гапларга айлантирилганда, уларнинг замон тузилиши, маъно ифодалашида ҳеч қандай фарқ бўлмайди, фақатгина унинг пунктуациясида ўзгариш бўлади. Бироқ инглиз тили хусусиятидан келиб чиқадиган булсак, купинча сода ёйиқ гаплар эмас, қўшма гаплар истеъмолда кўп учрайди.

Навбатдаги жумламиз:

Since we could not pay the fine, we could not drive the car.

Биз жаримани тўлай олмаганимиз туфайли машинани мина олмадик. Инглиз тилида tip-off words деб аталувчи сўзлар гуруҳи мавжуд бўлиб, улар асосан содда ва содда ёйиқ гапларни қўшма гапларга айлантиришда ишлатилади. Despite, despite of, in spite, in spite of, though, although каби сўзлар шулар жумласига киради. Since ҳам ана шундай сўзлар гуруҳидан бўлиб, ўзи бирга келаётган гапни Independent clause-эргаш гапга айлантиради ва маъно жиҳатдан бутун бир қўшма гапга таъсир ўтказиши. Бу сўз аслида перфект замонларда дан-бери маъносини ифодалайди, яъни у замонлар ясади ва маъно фарқланишида ҳам актив иштирок этади.

As you are the senior member, you should lead the procession. Сиз гуруҳ сардори экансиз жараённи бошқаришингиз керак ёки «Сиз гуруҳни сардори экансиз жараённи бошқаришингиз керак». As сўзи юқоридаги жумлада «экансиз», «бўлганингиздан кейин» маъноларини англатмоқда. Аслида бу сўз кўпинча, иккита қўлланилиб, as...as сингари, қанча бўлса, шунча каби маъноларни ифодалайди.

They died that their nation might live.

Улар миллатимиз яшасин дея қурбон бўлдилар.

Ушбу жумлада that сўзи деб, дея маъноларини англашмоқда.

Турли тиллар системасида сабаблиликни ифодаланиши турли хил бўлиб, уларнинг таржимаси алоҳида диққат эътиборни талаб қилади. Айниқса, уларнинг турли хусусиятларини бир-бирига солиштириб, таққослаб ўрганиш самарали натижаларни беради. Уларни таққослаш, солиштириш, ўхшаш ва ноўхшаш томонларини аниқлаш у мавзуни янада чуқурроқ ўрганишга ёрдам беради.

Ҳар қандай чет тилида ўтиллаётган янги бир мавзу она тилимиз хусусиятлари билан солиштирилса, ўхшаш ва фарқли томонлари тўла аниқланса мавзуни ўрганишга катта ёрдам беради.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ж.Б.Буронов. “Инглиз ва ўзбек тиллари киёсий грамматикаси”. Тошкент 1973 й.
2. В.Л. Каушанская. “A grammar of the English Language”. 1973 й.
3. Ж. Буронов. “Инглиз тили грамматикаси”.

### **ИНГЛИЗ ЭРТАКШУНОСЛИГИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ**

*Б.Толибжанов*

*Ўқитувчи*

*Ёқубжанова Хилола*

*талаба*

*Наманган давлат университети*

*Abstract. In this article we are talking about the translation and the national characteristics of development of the Uzbek and English folktales.*

*Аннотация: В этой статье мы говорим о переводе и национальных особенностях развития узбекских и английских народных сказок.*

Англияда адабий эртақ жанрининг ўтмиши деярли узоқ тарихга эга эмас. Бироқ, ўрта аср инглиз фольклоршунослигида муаллифларнинг ижодларини тадқиқ этиш ва ўрганиш жуда эрта бошланган. (Thomas Malory, Morte Darthur, 1470) Уйғониш даври инглиз адабиёти халқ оғзаки ижоди билан узвий боғлиқ эди. Фольклор мотивлари Филип Сидней (Philip Sidney, 1554-1586) ва Эдмунд Спенсернинг (Edmund Spenser, 1552-1599) поэзиясини бойитган. Уильям Шекспир ўзининг бекиёс фантастик асарларида эртақ фольклорининг муҳим жиҳатларига таянади. (The winter's Tale, 1610), Қиш эртаги, (The Tempest, 1612) Бўрон, (A midsummer Night's Dream, 1559). Ёзнинг тунги туши.

Шундай қилиб узоқ йўл босиб, инглиз фольклори қирол Фей Обероннинг театр сахнасида кўп қиёфали Робин Пак ижросида намойиш этила бошланади. Эртақ сахна асарлари сифатида кўп йиллар давомида ўз йўналишини мустаҳкамлаб борди.

XVIII асрнинг иккинчи ярмига келиб, Англияда ақл кўзи билан иш юритишнинг ривожланишига қарама-қарши қўйилган ғоявий курашни ўша даврда яратилган готик ва дахшатли турдаги романлар тасдиқлайди. Эртақлар адабиёти ноодатий, сирли воқеаларни безовчи, ғояларни такомиллаштиришга, тасаввурга йироқ ва афсонавий воқеаликларни ифодалашда асосий таянч бўлди. Масалан: Ҳорас (Horace Walpole, 1717-1797) нинг “Отранто қалъаси” (The Castle of Otranto, 1764) асаридир. Дидактик ёзувчилар “соф ақл идрок” ни ўз асарларида тарғиб этардилар. Булар вақти-вақти билан болаларга ўқиш учун зарарли ёки фойдали бўлиши мумкинлиги борасида мунозаралар бўлиб турса-да, лекин улар туганмас эмас эди. Кейинги давр ёзувчилари ҳам адабиётни қайта ўрганиб, фольклорда тарбиявий ва маърифий аҳамиятини намоёниш қиладиган ижодлари билан омманни жалб эта бошладилар. Шуниндек чегара билмас чексиз қатламларини ишғол қилишга бел боғлаб, халқ оғзаки ижодиёти намуналарининг маъно-мазмунини янгилаш билан маънавий-ахлоқий ҳикояларни яратилишга замин тайёрладилар. Бунга мисол тарзда “Пашшанинг ҳаёти ва саргузаштлари” эртагини келтириш мумкин. (The life and Adventures of a Fly).

XVIII аср охири ва XIX бошларида адабиётга дадил қадам билан романтизм кириб келади. У билан биргаликда эса, халқ оғзаки ижодиётига бўлган қизиқиш янада кенг тус олиб, фантазия янада кенг қулоқ ёзади. Дунёнинг турли мамлакатлари, асосан Германияда фольклоршуносликни кенг тарғиб қилиш йўлга қўйилади. Халқ эртақлари Карла Музеуса, Вильгельм Гауф, Якоб ва Вильгельм Гриммлар ва кейинчалик, албатта, даниялик Ханс Христиан Андерсон ижодларида қайта жонланади ва “ёқимли- таъсирчан” шаклига кириб, кишилар ҳаётининг романтизимида ўзгача бир кўринишда тасвирга олинади. Шундан сўнг, XIX асрнинг бошларида Англияда ўзига хос тарзда, ўтмиш ёдгорликларининг характерларидаги анъаналарини ўзида жам этган адабий эртақчилик шакллана бошланади. Романтизм даврининг дастлабки эртақларида рационализмнинг ақл кучига таяниш қудратини намоёниш этиш, инсон табиатдаги марказий объект эканлигини идеаллаштириш, аксарият дуч келадиган жанг-у жадални бўртириб кўрсатиш, шунингдек, сентиментализмда туйғу култи билан, аллегория ва ўзига хос юмшоқ ҳажвларга мойиллик сезилиб туради. Бундай эртақларнинг мақсади дунёни бус-бутунича эстетик англаш, табиатни ақл кўзи билан идрок этиш, унга нисбатан самимий муносабатда бўлиш ва қонуниятларига риоя қилишдир.

*“Come, take up your hats, and away let us haste  
To the butterfly’s ball and grasshopper’s feast...”*

Таржимаси: “Келинг, қалпоқларни отиб, учамиз елдек,  
капалаклар рақсига, чигирткалар базмига...”

*(Butterfly’s Ball and Grasshopper’s Feast, 1807 William Roscow, 1753-1831)*

Бундай рамзий тарздаги ифодалар нафақат ўқувчиларни, шунингдек ёзувчиларни ҳам ўзига жалб этди. 1808 йилда Кэтрин Дорсет (Cathrine Dorset) “Уйдаги Товус” (“The Peacock at Home”), 1809 йил эса ўндан ортиқ табиат

хақидаги назмий эртакларини чоп эттирди. Шунинг учун ҳам фольклоршунос Уильям Роскони инглиз эртақшунос-анималистларининг дастлабки салафларидан бири деб, ҳисоблашган.

Британия эртақшунослиги негизида ўзига жалб қиладиган, тез суратда ўсиб боровчи жанр адабий эртақчилик мустақил тарзда шаклланиб бориб, авваламбор нафақат ёзувчи ва шоирларнинг қаламини ўткирлаштирди. Шунинг билан бирга, кўп ижодкорларни ўзига тортгани ҳаммага маълум. Эртақ жанри инглиз адибларидан Байрон, Кольридж, Мурнинг асарларига сайқал берди. “Уч айиқ” эртагини Саути ўз ижодида қайта тиклади. (Robert Southey, 1774-1841, *The Three Bears*). Рескин (John Ruskin, 1819-1900) унинг таъсирида “Олтин дарё қироли” (*The King of the Golden River*, 1841) эртагини яратди.

XIX асрнинг инглиз моҳир эртақшунослари орасида кўзи ожиз ирландиялик Френсис Браун ва унинг шотландиялик тўқувчи ўғли Жорж Макдональд номлари машҳур эди. Брауннинг хизмати фақатгина сюжет ва композицияларнинг ривожини билан чекланмай, шунингдек унинг эртақлари турли жабҳадаги меҳнаткаш омма ҳаётига қаратилган: балиқчи ва зодагон, чўпон ва этикдўз каби мавзуларни ҳам камраб олган эди.

“Мерримайнд ҳақида ривоят” эртаги (*The story of Merrimind*) “Зулмат қўйнидаги ўлка” (*Dreary Land*) да ҳатто қушлар ҳам сайрашдан тўхтаган: улар худди одамлар каби, бир сўз демай эътирозсиз ўз юмушларига ошиқиб меҳнат қилардилар. Гротескка кирувчи бу асарида Браун, доим гарданида тупроқ тўлдирилган саватини опичиб олган хўмрайган чолни тасвирлайди. Бу муболағага олинган образ фақат гротеск эмас, шунингдек аллегорияга ҳам мансуб бўлиб, асрлар оша аёвсиз меҳнатда эзилган Ирланд халқининг нафрати намойиш этилган.

Бу эртақ XIX асрнинг 50-йилларида яратилган асар бўлиб, меҳнаткаш ишчиларнинг оммавий кўзғолони ҳаракати, чартизм (Чартизм –инглиз ишчиларининг XIX асрнинг 30-50 йилларидаги биринчи оммавий кўзғолони ҳаракати) муҳитини тасвирга олади. Бу эртақни ўқир экансиз чартист шоири Томас Гуднинг қуйидаги шеърини ўқиб, ўша давр муҳитини эсга оласиз (Thomas Hood, 1799-1845):

*“Work-work-work  
Till the brains begins to swim!  
Work-work-work  
Till the eyes are heavy and dim!” (The song of the Shirt, 1843)*

Ишла-ишла-ишла  
Бошинг чайқалгунча!  
Ишла-ишла-ишла  
Кўзларинг толгунча!

Бироқ Брауннинг эртақчиси эзгуликнинг ғалабасига ишонади. Айнан шунинг учун ҳам муаллиф ҳар бир эртагида одамларни саодатли кўриш учун яхшилик билан яқунлайди. Қушлар сайраб, Мерримайнд ўлкасида пахлавондек деҳқон ўн

учта болалари, елкасида тупроқ кўтарган ирланд дехқони мулкдорининг ерида хуррам ва шодон турган ҳолатида тасвирлайди. Мерримайнд эса бозордан сеҳрли скрипка сотиб олиб, ёруғ дунёдан сеҳрли ипни (тор) топиш учун йўлга тушади. Айнан шунинг учун ҳам энг мураккаб, оғир йўлни танлайди. Мерримайнд инглиз адабий эртагининг содда ижобий қаҳрамонидир.

## **BADIIY OBRAZ VA TARJIMADA IFODAVIY QATLAMLAR XUSUSIDA**

*J.Najmiddinov, NamDU*

*Аннотация. В данной статье речь идёт об особенностях употребления художественного образа в переводе литературных произведений.*

*Abstract. This article is about the peculiarities of the use of an artistic image in the translation of the literary works.*

Tarjima qilish uchun so'zlarning asosiy lug'aviy mazmuni-yu, tilning grammatik qoidalarini bilishning o'zi kifoya emas. Buning uchun tilni his etish lozim. Tilning ana shunday "missiy" tomonlaridan biri muayyan asarda avtor tilning qaysi qatlamlaridan, qanday, ne yo'sinda foydalanganida o'z ifodasini topadi. Bu esa uslub bilan bog'liq.

Albatta, xar bir konkret yozuvchi, konkret asar, konkret janrga mansub ishlar tarjimasida birinchi o'ringa chiqadigan talablar bo'ladi.

Olaylik, I.A.Krillov masallari tarjimasida bu milliylikni berish, Muxammadsharif Gulxaniyning "Zarbulmasal"i tarjimasida - paremiologiya, frazeologiya, idiomatika; komediya tarjimasida hajviyot va yumor; lirika va xalq qo'shiqlarida – tuyg'u, shartli simbolika va hokazodir.Hatto bir til taraqqiyotining turli bosqichlarida muayyan bir xil so'z, tarkib, grammatik vositalar orqali ifodalangan uslubiy ma'nolarda xam turli farqlar, siljishlar, torayish va kengayishlar sodir bo'ladi. Keng ma'noda, tillararo tarjimada xam konkret lisoniy vositalarning uslubiy koeffisienti bir hil qimmatta ega emas. Chunonchi, boshqird adabiyotidan - eston tiliga tarjima qilishda bosh masala tuyg'u va soddalikni aks ettirishning murakkabligi, eston adabiyotidan - boshqird tiliga o'girishda esa poeziyaning racional asosini aks ettirish jiddiy qiyinchilik tug'diradi. Lekin xamma gap shundaki, muallif uslubini aks ettirishi, badiiy tarjimaning barcha aspektlari uchun umumiy va zaruriy shart hisoblanadi.

Badiiy tarjimani qiyosiy uslubshunoslik asosida o'rganish muammosini yirik rus tarjimashunos olimi prof. A.V.Fyodorov va boshda mutaxassislar ilmiy asoslab berdilar.Nazariya sohasida ishlayotgan kishilar o'rtasida badiiy tarjimada asosiy birlik deb nimani qabul qilish masalasida bir to'xtamga kelingan emas. Bunday birlik: I.Kashkinning aytishicha-obraz, VI.Rosselsning fikricha -parcha, A.Fedorovning e'tiqodiga ko'ra -gapdir. Aslida, tillarning leksik, sintaktik va uslubiy vositalarini chog'ishtirib o'rganish masalani bunday umumiy tarzda qo'yib bo'lmasligini ko'rsatadi.

Zotan, muayyan bir tildan boshqa tilga kimni, nimani va qanday tarjima qilinayotganiga qarab, tarjima qonuniyatlari, talablari, prinsiplari ham o'zgaradi.Har bir tilniig ham o'ziga xos kuchli va zaif tomonlari bor. Dunyoda boshqa tillarda mavjud barcha lug'aviy-uslubiy xususiyatlar, semantik grammatik resurslarni batamom qoplay

oladigan mutloq boy til yo'q va bo'lishi mumkin emas. Har bir til o'zicha boy va o'zicha go'zal.

Bir tildan boshqa tilga o'girish ishida tarjima jarayonida "qatnashuvchi" tillarning imkoniyati masalasiga doir juda qiziq bir kuzatish, Jorj Munenning tarjima nazariyasiga doir asarida keltiriladi. Faqat bu o'rinda umuman tilning imkoniyati emas, balki "sub'ektiv" omillari - tilning leksik uslubiy normalari nechog'lik ishlanganligi hamda "demografik" omil -tarjimada qatnashuvchi tillarning egasi bo'lgan xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy -siyosiy, ilmiy, adabiy - madaniy aloqalarining qanchalik rivojlanganligi nazarda tutiladi. "Rus tilidan fransuzchaga tarjima bo'lish (traductibilite) masalasini tahlil qilish har ikki tilning qiyosiy tipologiyasini (sof tilshunoslik asosida) hisobga oladi yoki hisobga olishi kerak; lekin bu ikki til o'rtasidagi butun aloqalar tarixini xam e'tiborga olishi lozim; rus tilidan fransuzchaga 1960 yilda tarjima qilish - bu 1760 yilda yoki hatto 1860 yilda xam rus tilidan fransuzchaga tarjima qilish bilan sirayam bir xil narsa emas, oldingi davrda (xali birinchi fransuzcha - ruscha lug'at (1786) ham yaratilmagan bir vaqtlarda) aloqa kam edi.

XVIII asrdan e'tiboran rus tilidan qilingan har bir tarjima, har bir sayoxat, shunday sayohatlar haqidagi xar bir tafsilot va hikoya ruslar yoxud fransuzlar uchun umumiy birdamlik vaziyatini yuzaga keltira boshladi, xar bir aloqa undan keyingi aloqalarni taqozo eta boshladiki, nixoyat, bora -bora Fransiyada Turgenev, Tolstoy, Dostoevskiylarning shuxrati keng yoyildi, bu aloqalar esa millionlab fransuz kitobxonlarning qalbiga yo'l oldi, buning natijasida xox tilda bo'lsin, xox boshqa sohada bo'lsin, tafovutlar har gal kamaya bordi"

Ma'lumki, fransuz tilining bobokaloni lotin tili hisoblanadi. Holbuki, xali qadimgi fransuz tili qaror topgan davrdayoq lotin tili o'lik tillar qatoriga o'tib ulgurgan edi. Shuning uchun ham M.V.Lomonosov o'z ajdodlarining tilini tushunmaydigan xalq deganda fransuzlarni nazarda tutgan. Shu tariqa fransuz tili o'zining negizi bo'lmish lotin tilidan batamom uzilib qolishi oqibatida unda arxaik so'zlar soni juda kam miqdorni tashkil etadi.

Afsuski, bizda ko'p hollarda til lug'atining arxaik qatlamiga qandaydir keraksiz, ba'zan xatto "zararli", ortiqcha narsa deb qaraladi. Vaholanki, bu tamoman to'g'ri emas. Arxaik so'zlar, V.G.Belinskiyning ta'biri bilan aytganda "xaqiqiy bebaho xazinadir". Chunki ular vositasida lug'atning ko'p ma'nolilik xususiyati oshadi hamda maxsus she'riy ma'no va lisoniy muxit yaratish uchun katta imkoniyat yuzaga keladi.

Fransuz tilining arxaik lug'at boyligi juda kam, borlari ham o'zining mustaqil his – tuyg'u anglatish ma'nolaridan maxrum bo'lib, maqol, matal va idiomalar tarkibidagina shartli timsol sifatida saqlanib qolgan, xolos. Xuddi shu sababdan arxaizm tushunchasiga xamma tillar uchun yagona ta'rif xam berib bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.G.Mounin. Les problemes historiques de la traduction. P. 1953, p. 277
- 2.A.V.Fyodorov. Ocherki obshey i sopostavitelnoy stilistiki. M.,1972, s. 21.
- 3.M.V.Lomonosov. Polixobr. soch. T. VII, M., 1952, s. 587 592.

## **11.00.00-ГЕОГРАФИЯ ФАНЛАРИ**

### **РАЗВИТИЕ ЭКОТУРИЗМА В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ**

*Усмонов Ф.*

*Ферганский Политехнический Институт*

*Аннотация. Ушбу мақолада муаллиф томонидан Фарғона водийсида экологик туризмни ривожлантириш масалалари ёритиб берилган. Муаллиф томонидан экологик туризмни жадаллаштириш бўйича тавсиялар берилган*

*Annotation. This article highlights issues related to the development of ecological tourism in the Ferghana Valley. In the article the author gives recommendations concerning the promotion of ecological tourism.*

В настоящее время за рубежом и в нашей стране актуальными становятся вопросы развития экологического туризма. И это становится требованием времени, так как современный человек находится под влиянием достижений НТП, растёт уровень урбанизации, и при всём при этом человеку нужно найти отдушину для активного отдыха, а это возможно благодаря развитию экологического туризма.

Термин «Экотуризм» на Западе был официально использован на одной из конференций мексиканским экологом Эктором Себальосом-Ласкурайном (исп. *Hector Ceballos-Lascurain*) в первой половине 80-х годов XX в.

Всемирный фонд дикой природы даёт следующее определение экологическому туризму «Экотуризм — туризм, включающий путешествия в места с относительно нетронутой природой, с целью получить представление о природных и культурно-этнографических особенностях данной местности, который не нарушает при этом целостности экосистем и создает такие экономические условия, при которых охрана природы и природных ресурсов становится выгодной для местного населения».

Индустрия туризма в Узбекистане имеет существенный потенциал развития. Он связан как с наличием большого числа уникальных природных объектов (озер, горных вершин, речных пойменных лесов), так и богатым культурно-историческим наследием.

В настоящее время экотуризм охватывает более 10 % мирового туристического рынка, что говорит о его востребованности. Более 41 % туристов старше 50-ти лет, посетивших Узбекистан, хотели посетить живописные места и заповедные зоны. Следует отметить, что потенциал рекреационных ресурсов в Узбекистане достаточно богат. Узбекистан обладает большим количеством ресурсов для развития экотуризма. Богатый природно - климатический потенциал может предложить туристам как горы с их многочисленными пещерами, ледниками и озерами в Ташкентской области так и в Ферганской долине.

По оценкам специалистов из всего туристического потока, направляющегося в Узбекистан 24,6 % иностранных туристов проявляют интерес к достопримечательностям, расположенным в Ферганской долине. Из этого следует, что в данном регионе возможностей для развития туризма вообще и экологического туризма в частности достаточно. Как нам известно, экологический туризм или экотуризм — путешествие с ответственностью перед окружающей средой по отношению к ненарушенным природным территориям с целью изучения и наслаждения природой и культурными достопримечательностями, которое содействует охране природы, оказывает „мягкое“ воздействие на окружающую среду.

По нашему глубокому убеждению развитие экотуризма в Ферганской долине внесёт свой вклад и в увеличение занятости населения, то есть будет налицо взаимовыгодное сотрудничество – польза и для туристов, а так же для принимающей стороны. Особый акцент на развитие экотуризма сделан в Бешарыкском, Фуркатском, Язъяванском, Ташлакском районах, а также в Фергане и Коканде.

Следует отметить, что в той же Малайзии туриндустрия имеет большой опыт развития, который мы можем заимствовать. Можно констатировать, что одной из составляющих привлечения туристов может так же оказаться возможность насладиться великолепной узбекской кухней.

В последнее время среди малайцев особенную популярность приобретает агротуризм, подразумевающий проживание в домах в сельской местности и совместное участие в сборе экзотических фруктов и овощей. В этом смысле экологически чистые и вкуснейшие фрукты Ферганы представят огромный интерес для малайцев.

В целях развития и пропаганды экотуристических возможностей страны, повышения экологической культуры населения, привлечения иностранных туристов и граждан Республики Узбекистан к природе, уникальному растительному и животному миру Узбекистана, экологическим движением Узбекистана и Национальной Компанией «Узбектуризм» была создана организация специализирующаяся на развитии экотуризма ООО «EKOSARBON». В Узбекистане в целом, а так же в Ферганской долине есть многое, что может привлечь сюда туристов из-за рубежа и что будет интересно и самим узбекистанцам, - красивая природа, архитектурные памятники, богатая история главное это эффективно использовать и пропагандировать, без ущерба для окружающей среды. Еще одним положительным моментом в развитии экотуризма является то, что в этом случае не требуется наличие гостиниц высокого уровня обслуживания. Достаточно лишь установить палатки и устроить кемпинги для большего приобщения к природе.

В то же время «раскрыванию» в полной мере экотуризма в Узбекистане препятствует невысокий уровень сервиса, малое количество визит-центров и кемпингов на территории охраняемых природных территорий, нехватка гидов-экологов. Следует отметить, что разработана программа развития экотуризма в Узбекистане на 2016—2018 годы Государственного комитета по охране природы,

которая предусматривает создание необходимых дополнительных организационно-правовых мер для дальнейшего развития данной сферы. Актуальным сегодня является обмен опытом и изучение международной практики планирования и организации турмаршрутов, инфраструктурного и информационного обеспечения, подготовки квалифицированных кадров и совершенствования образовательных программ в данной сфере. Изюминка для развития экологического туризма – это наличие красивейших пейзажей, которые могут завлечь любого туриста, просто необходимо качественно преподнести то, что есть в нашем арсенале. Экотуризм в настоящее время - относительно новое, но перспективное явление, которое надо развивать разносторонне.

Таким образом, основной целью экотуризма является получение представления о природных и культурно-этнографических особенностях данной местности, где при этом не нарушается целостность экосистемы и создаются такие экономические условия, при которых охрана природы и природных ресурсов становится выгодной как для местного населения, так и для туристов.

#### Список литературы

1. <http://uza.uz/ru/tourism/turisticheskiy-potentsial-uzbekistana-prodemonstrirovan-v-ba-13-02-2018>
2. Колбовский Е.Ю. Экологический туризм и экология туризма М.Академия 2011 год

## СУВ ХЎЖАЛИГИ ТАШКИЛ ЭТИШДАГИ АЙРИМ МУОММОЛАР ТЎҒРИСИДА МУЛОҲАЗАЛАР

*А. Баратов*

*НамДУ*

**Резюме.** В статье исследуются вопросы дефицита орасительной воды и вопросы рационального использования водных ресурсов Ферганской долине

**Resume.** In this article there outlined topic is about effectively using water resources and deficiency of water resources in the regions of Fergana

Сув хўжалиги - халқ хўжалигининг барча соҳаларини доимий ошиб борувчи сувга бўлган талабини қондириш ва у билан боғлиқ салбий жараёнларини бартараф қилиш мақсадларида сув ресурсларидан самарали ва мукамал фойдаланишни, муҳофаза қилиш ва тиклаш, уларни бошқариш, сақлаш, истеъмолчига етказиб бериш ва тозалаш билан шуғулланади.

Бу вазифаларни ечишда сув хўжалиги гидротехник ва бошка муҳандислик иншоотлари, сув ресурсларини автоматик бошқариш каби тизимлардан кенг фойдаланади.

Республикамизда XX асрнинг 20-йилларидан бошлаб ирригация ва мелиорация тадбирларини кенг миқёсда амалга оширила бошланди ва эски суғориш

тармоқларини тиклаш ва янгиларини куришга алоҳида эътибор берилди. Ирригация ва мелиорация ишлари жараёнида, айниқса, Ўзбекистонда Мирзачўлни ўзлаштириш мисолида янги мелиоратив курилишнинг мутлақо янги технологияси барпо қилинди. Техник жиҳатдан мукамал мелиоратив тадбирлар тизими ишлаб чиқилди. Сув ресурсларининг серсув ҳудудлардан кам сув ҳудудларга ўтказилиши билан машиналашган суғориш тизими (насослар ёрдамида) жуда тез ривожланди.

Кейинги 70-80 йил мобайнида Ўзбекистонда сув ресурсларидан самарали фойдаланиш ва сув иншоотлари барпо қилиш, ишлаб чиқариш ва ноишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш, унинг моддий-техник асосларини мустаҳкамлаш соҳасидаги замонавий сув хўжалиги шаклланди.

Сув хўжалигини ривожланишига бағишланган қатор тадқиқотларда сув хўжалигининг мазмун-моҳиятини муайян даражада аниқлаштиришга уринилган. Масалан, иқтисод фанлари доктори, А.Ғафуровнинг фикрича республикамизда сув хўжалиги ташкилотлари, суғориш бошқармалари, сув омборлари, магистрал сув каналлари, сув хўжалиги учун курилиш материаллари ишлаб чиқарадиган корхоналар, ремонт-механика корхоналари, карьерлар, механизациялашган кўчма колонналар, қувур ва бошқа темир-бетон йиғилмалар ишлаб чиқарадиган заводлар, комбинатлар, суғориш системаларини автоматлаштириш ва телемеханизациялаш ташкилотлари, сув истеъмол қилувчи хўжаликлар, янги ўзлаштирилган ҳудудлардаги уй-жой, маданий-маиший хизмат кўрсатиш, суғориш ва захини қочириш тизимлари, курилиш ташкилотлари, лойиҳалаш институтлари ҳамда конструкторлик бюrolари, транспорт ва алоқа муассасалари, йўл курилиш таъмирлаш корхоналари, илмий-тадқиқот ва олий ҳамда махсус ўрта таълим муассасаларини ўз таркибига олади.

Шунингдек, сув хўжалигига кирувчи тармоқларнинг бир-бирига ўзаро таъсири жараёнида сув хўжалиги интеграцияси амалга оширилади. Мамлакат, шу жумладан, регион ва айрим сув хўжалиги мажмуаси бирданига таркиб топиб, шаклланган эмас, улар узоқ тарихий йўлни босиб ўтди. Бу жараён ҳозир ҳам такомиллашиб бормоқда деб уқтиради[2].

Р.Абдуллаханов «сув хўжалиги иншоотлари, сув хўжалигини бошқариш тизими ва сувдан фойдаланувчи субъектларни алоҳида-алоҳида ҳолда эмас, балки яхлит бир бўғин сифатида тушунишни»[3] таклиф қилади.

Бизнинг фикримизча, сув хўжалиги жуда мураккаб ва яхлит ижтимоий-иқтисодий ва бошқарув тизими эмас, балки сув ресурслари, ирригация ва мелиорация инфратузилмалари ҳамда бошқарув тизимини сув хўжалиги сифатида кўриш ва талқин қилишни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Чунки сув хўжалиги тушунчаси амалиётда кенг қўлланилмоқда.

Сув хўжалиги: очик суғориш ва зах сувларни қочириш тармоқлари, каналлар, сув омборлари, ариқлар ва уларнинг сув тақсимлаш тугунлари, темир-бетон ва лоток каналлари, очик ва ёпиқ закон - зовурлари, ёпиқ сув қувурлари, кўп миқдордаги сув чиқариш қудуқлари, насос станциялари киради. Бундан ташқари

сув хўжалигига, автоматлаштирилган суғориш тизимлари, сув истеъмол қилувчи хўжаликлар уларнинг ички хўжалик суғориш ва захини қочириш тизимлари ер ости минераллашган сувларни чиқариб юбориш ва сув билан таъминловчи ташкилий-технологик шакллар, сув хўжалигига хизмат қилаётган саноат корхоналари ва ташкилотлари, фойдаланишдаги суғориладиган ерлар, сув хўжалигининг моддий-техника базаси, ишлаб чиқариш фондлари ва бинокорлик материаллари, аппаратлар, механизмлар ишлаб чиқарадиган заводлар, ривожланган ижтимоий инфратузилмаларни ўз таркибига олади. Сув хўжалиги илмий муассасалари, мелиоратив тажриба станциялари агросаноат тармоқлари ҳамда сув хўжалиги учун олий ва ўрта махсус маълумотли мутахасислар тайёрлаб чиқарадиган муассасалар, коллеж ва лицейлар, уй-жой фондлари, сув ресурсларини муҳофаза қилиш ҳамда транспорт, алоқа ташкилотлари ва сув хўжалиги ишлаб чиқариш инфратузилма ҳам мамлакат сув хўжалиги таркибига киради.

Бугунги кунда мамлакат сув хўжалиги тизимида Ўзбекистон сув хўжалиги Вазирлиги таркибига кирувчи Сув хўжалиги Бош бошқармаси, Қорақалпоғистон Республикаси ва 12 та вилоятларда сув хўжалиги бошқармалари таркиб топган. Бошқарма таркибида ирригация ва сув қурилиш трестлари, уларнинг қурилиш монтаж ташкилотлари, вилоят насос станциялари, энергетика ва алоқа бошқармалари уларнинг туманлардаги бўлимлари, вилоят гидрогеология-мелиоратив экспедициялари ва уларнинг туман бўлимлари, йирик магистрал каналлар бошқармалари, мавжуд сув омборларни ишлатиш бошқармалари, ҳавза суғориш тизими бошқармалари, сув истеъмол қилувчи қишлоқ хўжалиги корхоналари, хўжаликлараро корхоналар, аҳоли ва саноат корхоналарининг ёрдамчи хўжаликлари мавжуд.

Қадимдан суғориладиган деҳқончилик ерлари бугунги кунда ҳам ирригация тизимларини ишлатиш ва бошқаришда бевосита қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришда асосий манба бўлиб қолмоқда. Шу ҳудудларда суғориш тизимларидан унумли фойдаланиш, суғориладиган янги ерларни самарали ўзлаштириш, уларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, суғориш тизимларининг ишчи ҳолатда сақлаб туриш муҳим ўрин тутади. Қадимдан суғориладиган ҳудудлардаги эски суғориш тизимларидан унумли фойдаланиш, каналлар ва суғориш тармоқларининг фойдали иш коэффициентини ошириш, суғориладиган ерларнинг меъёрий гидрогеологик ва тупроқ-мелиоратив шароитларини сақлаш янгидан вужудга келтириладиган каналлар ва суғориш тизимлари билан бир қаторда захи қочириладиган тармоқлар (коллектор-дренажлар) ва гидротехник иншоотлари ҳам сув хўжалигини ривожлантиришнинг муҳим шароитларидан бўлиб қолмоқда.

Суғориладиган ерларнинг кенгайиб бориши билан мамлакатимизда сув ресурслари муаммоси тобора долзарб тус олмоқда.

Бунинг оқибатида сув кам бўлган ерларда қишлоқ хўжалигининг суғориладиган майдонларини сув билан таъминлашда анчагина қийинчиликлар

юзга келмоқда. Натижада, мавжуд сув ресурсларидан тежамкорлик билан фойдаланиш биринчи даражали аҳамият касб этади.

Маълумки, Ўзбекистон қудратли сув хўжалигига эга бўлиб, суғориладиган ерлар кўлами 4,2 млн. гектардан иборат. Сувга бўлган йиллик талаб 70-71 млрд.м<sup>3</sup> ни ташкил этади, унинг 92 фоизи қишлоқ хўжалиги экинларини суғоришда фойдаланилади (50-54 млрд.м<sup>3</sup>). Умумий сув сарфининг 60 млрд.м<sup>3</sup> и дарё сувларидан, 11млрд. м<sup>3</sup> и ер ости сувларидан ва қайта ишлатиладиган сувлардан иборат. Мамлакатимиз сув хўжалиги тасарруфида умумий узунлиги 1355 км бўлган (сув сарфи 25 минг м<sup>3</sup> /сек.дан ортиқ) йирик 80 га яқин канал, умумий ҳажми 16,8 млрд. м<sup>3</sup> 54 та сув омборлари, 28,1 минг км хўжаликлараро, 172,4 минг км ички хўжалик каналлари (34 минг км бетон билан қопланган), 1602 та доимий насос станциялари (5059 та насос агрегати билан), ва 11633 та закон- зовурлар[6] бор.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Мамлакатимизда ирригация ва мелиорация тадбирларининг барча харажатлари тўлиқ давлат бюджети ҳисобидан қопланмоқда. Бу қишлоқ хўжалиги экинларидан мўл ҳосил олишда муҳим омил бўлмоқда. Қишлоқ хўжалиги экин майдонларини сув билан кафолатли таъминлаш мақсадида ҳар йили давлат бюджетидан 2 триллион сўмдан ортиқ, суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш учун 400 миллиард сўмдан зиёд маблағ ажратилмоқда[1].

Суғорма деҳқончиликни ривожлантириш мақсадида кўплаб сув омборлари, сув тақсимлаш иншоотлари, сув айирғичлар ва каналлар қурилмоқда. Суғориладиган ерлар сув ресурсларига нисбатан анча кўпдир. Айни вақтда, ер ресурслари эмас, балки сув ресурслари суғориш имкониятларининг чегараларини белгилайди. Шу боисдан биринчи навбатда сув ресурсларидан ҳар томонлама тежаб-тергаб самарали фойдаланиш, қувурли сув ўтказгичлар, темир-бетон ариқлардан фойдаланиш, очик бетонланган каналларни қуриш, ер ости сувларидан фойдаланиш учун вертикал қудуқларни ишга солиш гоят муҳимдир.

Сув хўжалиги қурилишининг замонавий босқичидаги ўзига хос хусусиятларидан бири-экологик мураккаб шароитда, яъни ерлар шўрланган ва қийин ўзлаштириладиган ҳудудларда иш олиб борилиши, шунингдек, одамлар кам яшайдиган, чўл майдонларини ўзлаштириш ва суғориш учун насослар ёрдамида сувларнинг юқорига кўтариш, капитал текислаш ва шўрларни ювиш, нафақат ишлаб чиқариш, балки ижтимоий соҳадаги қурилишлар олиб боришнинг зарурлигидир.

Демак, сув хўжалигининг бугунги ва истиқболли ривожланиши, минтақаларда суғорма деҳқончиликнинг етарли сув билан таъминлаш асосида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришни кўпайтириш ва сифатини яхшилаш ҳамда иқтисодиётнинг бошқа тармоқларини етарли сув билан таъминлаш сув хўжалиги фаолиятини доимий такомиллаштириб боришни тақозо қилади.

### **Адабиётлар**

1. Мирзиёев.Ш.М Риск-рўзимиз бунёдкори кишлоқ хўжалик ходимлари меҳнатини улуглаш, соҳа ривожини янги босқичга кўтариш-асосий вазифамиздир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Қишлоқ хўжалиги ходимлари кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи.
2. Ғофуров Г. Ўзбекистон сув хўжалиги комплексининг ривожланиши. –Т.: Меҳнат. 1987. 15-16 б.
3. Абдуллаханов Р.А. Ўзбекистонда сув хўжалиги комплекси ва уни муаммолари. МСҲ. «Таълим манбаи» 2003, 28-32 б.
4. Ғофуров Г. Ўтиш даврида сув хўжалиги мажмуаси ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш. Иқ.фан.номзод даража олиш учун автореферат. Т., 2003. 20-б.
5. Эшонov Х. Худудий принципдан ҳавза принципига // Ж. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -Тошкент, 2004. № 3. –Б. 10.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12-жилд –Т.: Давлат илмий нашриёти, 2006. 301-302 б.

### **АҲОЛИНИ ГЕОГРАФИК ЎРГАНИШДА КАРТАЛАШТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ**

*Мирзаахмедов Х. Акабоев И.  
Наманган давлат университети*

*Аннотация: В этой статье говорится о применении современных картографических методов в составлении карт населения, значении и преимущества составления карт в географическом обучении населения, а также об аспектах составления карт на которые нужно обращать внимание.*

*Annotation: Applying modern methods in compiling the maps of population, importance and advantages of compiling maps in geographical education of the population as well as noticeable aspects in compiling maps are indicated in this article.*

Табиат ва жамиятда бўладиган воқеа ва ҳодисаларнинг моҳиятини ўрганишда географик карталарнинг илмий ва амалий аҳамияти катта ҳисобланади. Табиат ва жамиятдаги воқеаларнинг ривожланиш эволюциясини интенсивлиги воқеяликнинг табиий, иқтисодий ёки ижтимоийлигига боғлиқ бўлиб бу жиҳатдан аҳоли ўзига хос ўрин тутади. Қолаверса, иқтисодий ва ижтимоий география фани тизимида аҳоли ниҳоятда муҳим ва марказий ўринни эгаллаган ҳолда фаннинг ички ўзак бўлаги, қаноти сифатида хизмат қилади. Шу боис иқтисодий ва социал географияда аҳолига эътибор жуда кучли бўлган. Илмий ва амалий жиҳатдан олганда аҳоли жойлашувини кўрсатувчи картографик асарлар аҳамияти катта бўлиб, улар ўз хусусиятига кўра бир қанча афзалликларга эга. Биринчидан, аҳоли карталари худудийлик тамойилига асосан худуддаги реал воқеяликни кўрсатиб

берувчи илмий манба ҳисобланади; иккинчидан, худуддаги аҳоли билан боғлиқ жараёнларни ўзгаришини ўрганишда статистик маълумотларга нисбатан аҳоли карталари анча кўргазмали ва аниқ тасаввур ҳосил қилади; учинчидан, аҳоли жойлашуви ва ривожланишига оид йиллар давомидаги ўзгаришларни кўрсатиб бериш имконияти мавжуд; тўртинчидан, аҳоли жойлашуви ва ривожланиши билан боғлиқ тафсилотларни географик тарқалишини фақат карта орқали яхлит кўрсатиб бериш мумкин; бешинчидан, маълум бир худудда аҳолига оид турли маълумотларни кўргазмали белги моделлар ва турли бошқа қўшимча маълумотлар асосида ифодалаш имконияти мавжуд ва ҳ.к.

Аҳоли жуда камрови кенг, мураккаб объект-тизим ҳисобланиб, у билан боғлиқ географик жараёнлар ҳам турлича кечади. Бунга сабаб аҳолининг социал – иқтисодий категория эканлиги бўлиб аҳоли карталарида айнан шундай хусусиятларини ҳам кўрсатиш имконияти мавжуд. Маълумки, аҳоли билан боғлиқ муаммолар билан турли фанлар, шу жумладан, демография, этнография, тарих, социология, иқтисод, тиббиёт ва бошқалар ҳам шуғулланади. Бу барча фанлар учун ягона ва умумий бўлган объектда ҳар бир фаннинг ўзига хос алоҳида ўрганиш жиҳатлари мавжуд бўлиб, юқоридаги фанларни қизиқтирадиган ва тадқиқот доирасига мос тушадиган қирраларини аҳоли карталарида кўрсатиб бериш имконияти юқори. Масалан, аҳоли карталарида аҳоли табиий ва механик ҳаракатлари, меҳнат ресурслари ва бандлиги билан боғлиқ жараёнлар, никохлар ва бошқа демографик кўрсаткичларни тасвирлаш мумкин.

Табиий, сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ҳодисалар фақатгина қачон ва маълум вақт доирасидагина эмас, балки қаердадир муайян географик муҳитда, худуд-маконда содир бўлади. Шунинг учун, географияда аҳоли билан боғлиқ бўлган серқиррали муаммоларнинг худудий жиҳатлари кенг ўрганилади. Аҳолини соф, махсус географик ўрганишдан ташқари, уни қўшни, турдош фанлар қиррасида тадқиқ этишда ҳам мавзули карталар аҳамияти катта бўлиб, картографик манбаалар илмий восита сифатида иштирок этади. Бироқ, аҳолига оид картографик маълумотлардан илмий манбаа сифатида фойдаланишда ниҳоятда эҳтиёткорлик талаб этилади. Зеро бунда картанинг қайси мақсадда чиқарилганлиги, чиқарилган вақти, кимлар учун мўлжалланганлиги ва бошқалар эътиборга олиниши лозим. Акс ҳолда географик тавсилотлар ва маълумотлар аниқлик даражаси билан боғлиқ муаммолар келиб чиқиши мумкин. Агар ана шу меъёр ва мезонларга риоя қилинса, турли фанларда картографик усуллардан фойдаланиш орқали самарали натижаларга эришилади.

Аҳолининг иқтисодий функцияларини кўрсатувчи карталарда, энг аввало, меҳнат фаолиятига доир маълумотларга устувор эътибор берилишини тақозо этади. Шунинг учун бу йўналишда асосан меҳнат бозорининг шаклланиши ва улардан фойдаланишнинг худудий жиҳатлари карталаштирилиши лозим. Социология фани қиррасида аҳолини карталаштириш, авваламбор, унинг шахс сифатида шаклланиши, ҳаёт фаолияти, яшаш шароити ва тарзи, касб-ҳунари ва бошқалар маълум

худудий бирликлар доирасида турли картографик усуллардан фойдаланган ҳолда карталаштирилади.

Аҳолини ўрганишда география фани айниқса демография билан яқин туради. Агар демография аҳолини биосоциал категория сифатида унинг табиий ва миграция ҳаракатларини тадқиқ этса, география ана шу муаммоларга, энг аввало, макон жиҳатдан, худудий тафовутларни аниқлаш нуқтаи назаридан қарайди. Шу жиҳатдан олганда демографик жараёнларга оид маълумотларни картага тушириш самарали усул саналади.

Табиийки, аҳоли сони вақт давомида ўзгариб туради, унда тадрижий силжишлар юз беради-ки, уларни географик жиҳатдан изоҳлаш катта аҳамиятга эга. Аҳоли карталарида ҳам мана шундай аҳамиятли жараёнларни турли картографик тасвирлаш усулларини қўллаган ҳолда карталаштирилади. Бунинг учун ўрганилаётган худуд аҳолисини яқин ўтмиш давридаги миқдор кўрсаткичлари статистик маълумотлар ва карталар асосида таҳлил этилади, ўсиш ва кўпайиш суръатлари, унинг ўртача, энг паст ва энг юқори даражалари атрофлича ўрганилади ва карталари солиштирилади. Натижада, бунинг сабаблари, омил ва жараёнлари илмий жиҳатдан аниқланади.

Аҳоли карталарида тафсилотларни аниқ ва илмий ўрганиш учун ҳар хил статистик жадваллар, график ва диаграммалар билан бойитиш мақсадга мувофиқдир. Бундай қўшимча материаллар (элементлар) картани янада бойитиши ва илмий асосланишининг муҳим шарти ҳисобланади. Бунда қўшимча тарзда берилган материаллари бир-бирини такрорламаслиги керак.

Аҳоли зичлиги ва жойлашувининг кўрсатувчи карталар айна пайтда ана шу худуднинг демографик ва экологик сиғимини аниқлашга ёрдам беради, улар жойнинг мавжуд салоҳиятидан қай даражада фойдаланишини ҳам акс эттиради. Шунингдек, шаҳар ва қишлоқлар тўри ва тизимининг катта-кичиклиги, турли вазибалар бўйича тақсимланиши, аҳоли манзилгоҳларнинг зичлиги, улар ўртасидаги масофа каби масалаларни ҳам карталардан аниқлаш мумкин. Зеро, аҳоли зичлигининг худудий тафовутларини яъни унинг турли реал географик районларда тоғ ва тоғ-олди, текислик, воҳа ва водийларда, шаҳар атрофидаги миқдорини, буларнинг сабаблари ва қонуниятларини бошқа манбалар географик карталар каби кўрсатиб бера олмайди.

Хулоса қилиб айтганда аҳоли жойлашуви ва ривожланиши билан боғлиқ муаммоларни чуқур ва атрофлича таҳлил этишда аҳоли карталаридан катта илмий манбаа сифатида фойдаланиш мумкин. Қолаверса, бундай карталар аҳоли билан боғлиқ географик муаммоларни таҳлил ва ташҳис этишга ҳамда башорат қилишга асос бўлиб хизмат қилади. Бунда замонавий ГАТ технологияларидан фойдаланган ҳолда турли тасвирлаш усуллари ва картографик белгилардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Берлянт А.М. Картография. –М.: Аспект-Пресс, 2002. 306 с.
2. Мирзалиев Т., Мусаев И.М., Сафаров Э.Ю. Ижтимоий-иқтисодий картография. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2009. 142 б
3. Мирзалиев Т., Картография.-Тошкент., Университет, 2006. 246 б.
4. Солиев А.А. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёти: танлаган асарлар. //– Тошкент: Камалак. 2013. -184 б.
5. Mirzaaxmedov X., Akaboev I. Mavzuli kartalar tuzishda geoaxborot tizimini qo'llash afzalliklari. Farg'ona vodiysi geograflari uyushmasining ilmiy–amaliy seminari materiallari. -Namangan, 2015, 165-167 b.

**ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА СУВ ХЎЖАЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ  
МУАММОЛАРИ**

*А. Баратов*

*НамДУ*

*Резюме. В статье исследуются вопросы дефицита оросительной воды и вопросы рационального использования водных ресурсов Ферганской долине*

*Resume. In this article there outlined topic is about effectively using water resources and deficiency of water resources in the regions of Fergana*

Фарғона водий қадимдан суғорма деҳқончилик ривожланган ва суғориш иншоотлари барпо қилинган ҳудуд ҳисобланади. Замонавий суғориш иншоотлари ва Норин дарёси сувларидан фойдаланишга Қўқон хонлиги даврида асос солинган бўлса, кейинчалик XX аср бошларида Чор Россиясининг мустамлакачилик сиёсати билан Фарғона водийсида ирригация тизимини кенгайтириш ва ривожлантиришга доир масалалар кун тартибига қўйилган.

Бунга кўра Фарғона водийсининг энг катта дарёси Сирдарё сувларидан самарали фойдаланиш мақсадида уни илмий нуқтаи-назардан ўрганиш ва мавжуд гидротехник иншоотлар барпо этиш режалари ишлаб чиқилган. Аслида, Норин дарёси-Катта Норин ва Кичик Норин дарёларининг қўшилишидан ҳосил бўлади. Дарёнинг узунлиги 534 км ва ҳавзаси 58370 км<sup>2</sup>. Қорадарёнинг узунлиги 177 км ва ҳавзаси 28630 км<sup>2</sup>. Йиллик сув оқими Норин дарёсида (Учқурғон пости) йилига ўртача 13,5 км<sup>3</sup> (энг кўп 18,3 км<sup>3</sup> ва энг оз оқим 9,9 км<sup>3</sup>), Қорадарё (Кампирровот пости) ўртача 3,9 км<sup>3</sup> (энг кўп 5,5 км<sup>3</sup>, энг кам 1,7 км<sup>3</sup>) ва водийдаги бошқа барча дарё ва сойларнинг ўртача йиллик сув оқими 7,7 км<sup>3</sup> (энг кўп 9,7 км<sup>3</sup>, энг кам 5,5 км<sup>3</sup>). Фарғона водийси бўйича жами дарёларнинг ўртача йиллик сув оқими 25,0 км<sup>3</sup> ва энг кўп йиллик сув оқими 35,5 км<sup>3</sup> ва энг кам йиллик сув оқими 17,1 км<sup>3</sup> ни ташкил қилади.

Мавжуд дарё сувларидан самарали фойдаланиш мақсадида, кейинги 50 йил мобайнида Фарғона водийсининг барча вилоятларидаги мавжуд ер ресурсларининг ғоят интенсив суръатда ўзлаштирилиши хисобига, йирик суғориш тизимлари-магистрал каналлар қурилиши амалга оширилди.

Фарғона водийси вилоятларида қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш мақсадида улкан сув хўжалиги шакилланган. Водий вилоятларида жами 11306 та гидротехник иншоотлар барпо этилган бўлиб, суғориш тармоғи узунлиги 7566,7 км.ни ташкил қилмоқда. Буни вилоятлар мисолида кўриб чиқадиган бўлсак:

какую форму контроля использовать на занятии. По нашему мнению, компьютерное тестирование не может заменить экзамен, подготовка к которому включает в себя запоминание материала, развивает культуру речи, умение выражать свои мысли, участвовать в диалоге, вырабатывает навыки логического рассуждения. Компьютерный тест не позволяет судить об этих достижениях учащегося. Таким образом, электронное тестирование не является альтернативой другим формам итогового контроля, а дополняет их.

### **Список литературы**

1. Фоломкина С.К. Обучение чтению на иностранном языке в неязыковом ВУЗе. М., 1987.
2. Конышева А.В. Контроль результатов обучения иностранному языку. СПб, 2004. С. 42.
3. Миролубова, А.А. Вопросы контроля обученности учащихся иностранному языку / А.А. Миролубова // Методическое пособие под ред. А.А. Миролубова. – Обнинск. Титул, 2001. – 80 с.
4. Зайцева Л.В. Некоторые аспекты контроля знаний в дистанционном обучении // Сборник научных трудов 4-й международной конференции «Образование и виртуальность – 2000» – Харьков – Севастополь: УАДО, 2000, - с. 126 – 131. 5. Зайцева Л.В., Прокофьева Н.О. Проблемы компьютерного контроля знаний // Proceedings. IEEE International Conference on Advanced Learning Technologies (ICALT 2002). 9-12 September 2002. Kazan, Tatrstan, Russia, 2002, – p. 102 - 106.

## **ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ВОСИТАСИДА БИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИНИ ФАОЛЛАШТИРИШ**

*Н.Фуломов*

*Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия институти талабаси*

### **Аннотация**

*В статье представлены проблемы использования информационно-коммуникационных технологий в подготовке педагогов, а также вопросы изготовления электронных учебников и виртуальных стендов по общетехническим дисциплинам.*

### **Annotation**

*The article deals with the creation of virtual boards and text-books on general technical subjects as well as the problems of training teacher-meeting the present demands on information-communication technologies*

Бугунги кунда ахборотлар шиддати ва янгиликлар оқими тобора кундалик ҳаётимизнинг ажралмас бўлагига айланиб бормоқда. Бу эса ўз ўрнида ҳар бир шахсан фикрий етукликни, тўғри мушоҳада юрита олишни, ахборотдан

фойдаланиш маданиятини шакллантиришни тақозо этади. Айниқса бу жараён жамиятнинг сезиларли қисмини ташкил этувчи ёшлар онги ва шу ўринда кескин бурилишлар, янгича қарашларни вужудга келишига таъсир кўрсатади. Таълим мазмунини такомиллаштириш, интеграциялаш, ахборот технологияларига асосланган таълимни ташкил этиш эса ана шундай тезкор давр тақозосидир.

Соғлом фикр юритувчи ва маънавий жиҳатдан мукаммал, ақлан етук, фикран теран, ривожланган шахсни тарбиялаш таълимда ёш хусусиятларига эътиборли бўлиш, ўқитишда таълимнинг барча бўғинлараро алоқадорлигини таъмин этиш ва шахс онги ва тафаккурида янгича ғоя, тасаввурларни шаклланишига имкон берувчи замонавий фаол усуллардан фойдаланишни талаб этади. Олий таълимдаги ижтимоий, гуманитар фанлар доирасида таълимни ноанъанавий усулларини қўлланилиши талаба ёшларни ижодий тафаккурини шаклланишида, мулоқот имконини кенгайтишида, воқеа-ҳодисаларга нисбатан баҳолашлари ва қарашларини шаклланишида ва яна шунингдек, дарс жараёнида вужудга келган қизгин мунозара ва мантиқий ечимларни бевосита иштирокчиси сифатида ўз фаолиятдан психологик қониқиш ҳиссини вужудга келишида муҳим аҳамиятга эга. Зеро, канчалик таълим жараёнидаги берилаётган янги маълумотлар талабадаги мавжуд тасаввурлар ва тажрибаларга уйғунлашган бўлса, уни идрок этиш, билиш жараёнлари орқали таҳлил қилиш ва баҳолаш фаоллашади. 1-2-курс талабаларида абстракт тафаккур, мантиқий фикрлаш, танқидий баҳолаш, қиёслаб таҳлил қилиш имконини янада такомиллаштиришида «Муаммоли ўқитиш», «Ақлий хужум», «Индивидуал ўқитиш» каби турли субъектив фаолликни талаб этувчи усуллар орқали таълимни ташкил этилиши юқори самарали аҳамиятга эга. Шунингдек, таълимни энг сўнгги интернет хабарларидан фойдаланилган ва турли слайдлар кўринишида ташкил этилиши талабаларда ижодий тафаккурни, ички фаолликни, эркин мулоқотга киришиш, ўз ҳулқини бошқариш имконини шакллантирибгина қолмай, мулоқот маданияти ва савиясини ўзлаштиришига кучли таъсир кўрсатади. Шахс маънавияти, руҳий олами кўринишлари унинг мулоқоти орқали намоён бўлади. Сир эмаски, бугунги кунда ёшларни мулоқот савияси, маданияти, мулоқот орқали ҳиссий ҳолатларини баён эта олиш имкониятида қўпол нуқсонлар кўзга ташланади. Бу муаммо ечими эса уларни таълим жараёнида ўз устида ишлашларини ташкил этиш, ўзга шахсларни ва ўзини ўзгалар қарашлари (рефлексия) билан баҳолай олишларини юзага келтириш орқали ҳал этиш мумкин. Бу эса кенг дунёқарашни, бой маълумотлар захирасини, турли ахборотлар тизимидан фойдалана олишларини тақозо этади. Бундан ташқари таълимда индивидуал хусусиятларни эътиборга олган ҳолда ва ички имкониятларга кўра турли усулларни қўлланилиши, талабаларни турли вазиятларда фаоллик кўрсатишларини талаб этилиши улардаги очилмай қолган имкониятларни, забт этилмаган янги қирраларни кашф этилишига туртки бўлади.

Мана шундай шахс билиш жараёнларини ўзаро уйғунлигини, ва фаоллигини талаб этадиган усуллардан бири бўлган «Ақлий хужум» усули мантиқий

фикрлашни, хотира, диққат, идрок, ҳаёл, нутқ жараёнлари узвийлигини, тафаккур тезлиги ва нутқий маҳоратни мукаммал даражасини намоён этишни талаб қилади. Бундан ташқари ҳал этилаётган муаммо ечимига қадар турли ёндошишлар, таърифлар кенг камровли фикр юритишга, ўз ақлий салоҳиятини қай даражада эканлигини баҳолай олишга шароит яратади. Психологик нуқтаи назардан, шахс ўз қобилиятлари ва имконларини қай даражада адекват баҳолай олиши уни жамиятда фаоллик кўрсатишига, шахслараро муносабатлар тизимига осон кириша олишига, ички салоҳиятидан оқилона, самарали фойдалана олишига замин яратади. Бундан ташқари бир хилликка йўғрилган таълим мазмуни шахс хотирасида кам кўзғолишлар ҳосил қилади, тасаввурлар тизимида ассоциатив боғланишлар узвийлиги фаол бўлмайди. Таълимдаги маълумотлар тизими қанчалик янги бўлиб, инновацион технологиялар асосида ёритилган тарзда узатилса ўзлаштириш жараёнида сифат даражасини ошишига олиб келади. Таълимда иложи борича визуал воситалар, слайдлар асосида ўқитишни ташкил этилиши аниқ, мавҳумликларсиз, мавжуд билимлар билан боғланган мустаҳкам тасаввурлар тизимида ўрин олган тушунчаларни ҳосил бўлишига олиб келади.

Интерфаол усуллардан таълим жараёнида самарали фойдаланиш ҳам шахс фаоллигини таъминловчи, ўзига нисбатан талабчанликни оширувчи, бевосита ўзини вазиятни фаол иштирокчиси сифатида эркин идрок қилишига, мавжуд нуқсон ва камчиликларини тўғрилашига таъсир этувчи омил бўлиб хизмат қилади. Бунда эса таълимни мультимедиа кўринишида ташкил этиш мақсадга мувофиқдир. Таълимда қанчалик мураккаб билиш жараёнларини иштироки талаб этилишига эришилса, талаба шахсини яширин бўлган ички имкониятлари, қобилият қирралари намоён бўлади. Бевосита таълим жараёнида талаба ўзи ҳам таълим мазмунини ёритувчи сифатида фаоллик кўрсатиши, муаммони ифодалашда изланиши ўзлаштириш даражасини юқори савияга кўтарилишига олиб келади.

Талаба шахсини баркамол маънавий-руҳий олами мукаммаллилигини, теран интеллектуал салоҳиятини шакллантириш, етук камолот эгаси қилиб тарбиялаш аввало таълим жараёнида белгиланадиган аниқ мақсадлар билан баҳоланади. Тараққиёт сари юз тутиб бораётган бугунги ахборотлар асри эртанги кун ёшларидан турли муаммоли вазиятларда ўзини-ўзи тўғри баҳолай оладиган, мустақил фикрига эга бўлган, ақлий ва руҳий имкониятларидан юксак саъйи-ҳаракатлар йўлида фойдалана оладиган ижобий хусусиятлар соҳиби бўлишни тақозо этмоқда. Бу эса тўғри ташкил этилган таъсирчан, инновацион таълим ҳамда ўқитиш жараёнида таркиб топиб борадиган инсоний сифатлар, ахлоқий хусусиятлар, кўникмага айланиб борадиган ижодий фаоллик даражаси билан белгиланади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Махкамов У. Kasbiy mahorat. O'quv qo'llanma. T.: TDIU .-2014
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T: Tafakkur-Bo'ston, 2016

## **OSON VA QIZIQARLI GRAMMATIKA**

*Madinabonu Jo`rayeva NamDU Ingliz tili va adabiyoti yo`nalishi 2-bosqich talabasi*

### **Аннотация**

*В этой статье основное внимание уделяется изучению языков, в частности английского языка и его грамматики, в эффективной организации молодежного досуга.*

*Статья включает введение учебной программы, основной части, заключения и списка литературы, в которой описываются простые способы изучения грамматики английского языка. Статья предназначена для читателей и учителей, которые начали изучать английский язык, а теперь учатся и учат.*

### **Annotation**

*This article focuses on the learning of languages, in particular the English language and its grammar, in the effective organization of youth leisure. The article includes the introduction of the curriculum, the main part, the conclusion and the list of literature used, which describes the easy way to learn English grammar. The article is intended for readers and teachers who have started to study English and now learn and teach.*

Har bir tilni o`rganish bir necha bosqichlarni muvaffaqiyatli va qunt bilan bosib o`tishni talab etadi. Ayniqsa tilni egallashda o`rganilayotgan uning grammatikasini o`rganish katta ahamiyat kasb etadi. Shu o`rinda savol tug`ilishi tabiiy, albatta. Nega aynan grammatika til o`rganish uchun asosiy vosita hisoblanadi? Grammatikaning asosiy vosita sifatida e`tirof etilishiga sabab, uning barcha tillar uchun umumiyligi va til o`rganuvchilar uchun nihoyatda muhimligidir. Bu esa nafaqat tilni mukammal, balki qiyinchiliklarsiz bir muncha osonroq o`rganishga yordam beradi.

Grammatika deganda ko`pchilikning tasavvurida murakkab, chigal, o`rganish uchun qiyin bo`lgan turli xildagi qoidalar yig`indisi paydo bo`ladi. Grammatika bu tilning ma`lum bir asosini tashkil qiladi va turli xildagi grammatik qoidalar, so`z turkumlari, turfa gramatik tuzilmalar yig`indisidan iborat. Grammatikani o`rganish qanchalik murakkab tuyilmasin uni o`rganishni ham oson usullari mavjud, albatta.

“Qalovini topsa, qor ham yonadi” deganlaridek, grammatikani o`rganishni osonlashtirish maqsadida sinalgan va foydali usullar o`rganib chiqilgan va bu amaliyotga tatbiq etilganda o`z samarasini bermoqda.

Yuqorida aytib o`tilganidek grammatikaning biroz mashaqqati-yu qiyinchiliklarini bartaraf etish maqsadida quyida bir necha samarali va oson o`rganishga yordam beradigan tavsiyalar berib o`tamiz. Bu tavsiyalar endigina grammatikani o`rganishni boshlagan, davom ettirayotgan yoki kimgadir o`rgatishga urinayotgan o`rgatuvchilar uchun kerakli manbaa bo`ladi degan umiddamiz.

Ingliz tili grammatikasini to'liq va eng muhimi oson o'rganish uchun quyidagi sinovdan o'tgan, ishonchli hamda to'liq natija beradigan oddiy ko'rsatmalarga amal qilgan holda o'rganishni tavsiya etamiz.

### **1. Ingliz tili grammatikasini o'rganishdan avval o'z ona tilingiz grammatikasini mukammal bilishingizga ishonch hosil qiling.**

O'z ona tilini bilmagan kishi qanday qilib boshqa bir chet tilini o'rganishi va bu tilda mukammal gaplasha olishi mumkin?! To'g'ri, chet tillarini o'rganish bu juda yaxshi mashg'ulot, ammo uni o'rganishdan avval o'z ona tilingiz grammatikasini to'liq o'rgansangiz yoki avval olgan bilimlaringizni bir chetdan takrorlab olsangiz, xorijiy tilni o'rganishda mashaqqatlaringiz biroz kamaygan bo'ladi. Ingliz tili va o'zbek tilida grammatikaning kelib chiqishi, tuzilishi va o'rganilishi turlicha bo'lishi mumkin, biroq grammatikaning barcha tillar uchun umumiy jihatlari borki, bu umumiylik barcha tillarni o'zaro bir-biri bilan bog'laydi va umumlashtiradi. Shuning uchun, o'zbek tili grammatikasini yaxshi bilgan ingliz tilini o'rganuvchilar uchun tillarni qiyoslab, taqqoslab umumiy jihatlarni birlashtirib o'rganish, ingliz tilini o'rganishni anchagina osonlashtiradi. Shunday ekan o'z ona tilingizni qanchalik yaxshi bilsangiz, uning grammatik qoidalari va tuzilmalarini yaxshi tushunsangiz ingliz tilini ham shunchalik oson o'rgana olasiz.

### **2. Ingliz tilini o'rganmang. Ingliz tilida yashang!**

Grammatikani tilni shunchaki o'rganish orqali oson o'zlashtirish, yaxshi tushunib olish juda mushkul. Uni o'rganish uchun faqat Grammatik qoidalarni yodlash, grammatikaga oid kitoblar o'qish yoki zerikarli grammatika darslariga qayta-qayta qatnashaverishning foydasi yo'q.

Grammatikani o'rganishni osonlashtirishga bo'lgan ilk qadam bu til grammatikasini bajonidil xohish bilan o'rganish, uni yodlashmas balki, butun vujudingiz bilan his qilib, tushunishingiz kerak. Bir so'z bilan aytganda grammatik qoidalarni faqat yodlab qaytarish bilan siz hech qachon grammatika bilimdoni bo'lib qolmaysiz, uni qalban xohish bilan xis qilish va asl mohiyatini tushunishgina sizga yordam bera oladi. Biroq, savol tug'iladi buni qanday o'rganish mumkin? Tasavvur qiling ingliz tilida sifat (adjective) mavzusini o'rganyapsiz, bir talay qoidalar sizni cho'chitishni boshladi, ammo qo'rqmang! Darrov qo'lingizga qog'oz va qalam olingda o'zingiz uchun tushunarli va qiziqarli bo'lgan shaxsiy qoida yarating. Bu qoidalar balki kitoblardagidek murakkab bo'lmas, lekin eng muhimi sizning salohiyatingiz va qarashlaringizga uyg'un bo'lsin. Ular sizga nafaqat qiziqarli, balki sifat mavzusini o'rganishni osonlashtiruvchi vosita bo'lishi lozim. Shu tariqa barcha mavzularni o'zingizga moslagan holda, qarashlaringizdan kelib chiqib o'rganishga odatlaning, bu sizga grammatikaning yengil va qiziqarli taraflarini ko'rishga ko'maklashadi.

### **3. Xato qilishdan qo'rqmang!**

Xatolar insonni yuksaklikka yetaklashini bilasizmi? Agar bilmasangiz, bilib olingki, ingliz tilini o'rganayotganda yoki grammatikadan turli mashqlar bajarish davomida xatolar qilishingiz va ularni to'g'rilashga, boshqa takrorlamaslikka harakat

qilishingiz bu faqat va faqat sizning foydangizga hisoblanadi. Xato qilgan paytingizda o`rganishga bo`lgan qiziqishingizning tushib ketishi, natijada xatolarni to`g`rilashga sarflanishi kerak bo`lgan vaqtingizni xatolardan xafa bo`lishga sarflab qo`yishingiz mumkin. Bu ishingizning o`zi eng katta xatodir. Zero, donishmandalar aytib o`tganidek, “Bugungi aqlim bo`lganida, kechagi xatolarni qilmasdim, kechagi xatolarni qilmaganimda esa bugungi aqlim bo`lmasdi”.

#### **4. Do`stlaringiz bilan o`rganing!**

O`rganish va uni amalga tatbiq etish jarayonida yo`l qo`yilayotgan kamchiliklar insonning o`ziga bilinmasligi mumkin. Xuddi shunday vaziyatlarda ingliz tili grammatikasini do`stlar davrasida o`rganish eng samarali usul hisoblanadi. Ular bilan birga tilni o`rganish sizga nafaqat qiziqarli bo`libgina qolmay, balki kamchiliklarni bartaraf etuvchi usul sifatida ham xizmat qiladi. Faqat bilmayotgan yoki tushunmayotgan ma`lumotingizni atrofingizdagilardan so`rashga tortinmang, bilimingiz va salohiyatingizni boshqalar bilan birgalikda o`stirishni odat qiling. Axir, aytishadiku : “So`rab-so`rab o`rgangan olim - orlanib so`ramagan o`ziga zolim”.

#### **5. Grammatikani o`yinlar bilan qiziqarli mashg`ulotga aylantiring!**

Nihoyat, eng samarali usullardan biri - bu o`yinlar va turli grammatik mashg`ulotlar bilan o`rganishdir. Bu usul bilan har bir ingliz tilini o`rganmoqchi bo`lgan o`rganuvchini qiziqtirish va ingliz tilini o`rgatuvchilar uchun grammatikani o`rgatishni osonlashtirish mumkin. Oyinlar faqat qiziqiligi yoki ko`ngilochar deb hisoblab uni grammatika darslarida qo`llamaslik – o`qituvchilarning eng katta xatolaridan biridir. O`yinlar darslarni jonlantiribgina qolmay, grammatikani esda qolarli tarzda qiziqish va qunt bilan o`rganishga undaydi. Shunday ekan biz o`rganuvhchi sifatida o`yinlar orqali grammatikani sevib, dildan oson o`rgana olishimiz, o`qituvchi sifatida esa o`rganuvchilarimizni darslarga jalb qila olishimiz va ularga zerikarli va murakkab qoidalarni quvnoq uslubda o`rgata olishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, har bir narsani o`rganish uchun avvalo insonda xohish-istak bo`lishi lozim. Istaksiz biror bir natijaga erishish, muvaffaqiyat qozonish juda mushkul. O`rganish uchun faqat odatiy usullarda o`rganish emas, balki o`zi uchun qulay yo`llarini izlash, o`z ustida ishlashni aslo to`xtatmaslik lozim. Ushbu tavsiyalar o`quvchilarga ingliz grammatikasini oson o`zlashtirishga yordam beradi.

#### **Foyadanilgan adabiyotlar.**

1. Azar B “Ingliz grammatikasi asoslari” Pearson Londman nashr. 2011 y.
2. Freeman D “Grammatikadan grammatikagacha tilni o`rgatish” Heinle nashr. 2003y
3. Master P “Ingliz grammatikasi va texnik yozish” AQSH. Ingliz Tili dasturlari nashr. 2004 y

## **USING SIMULATIONS IN THE CLASSROOM.**

*Abdullayeva Nargiza NamDU Fakultetlararo chet tillar kafedrasi katta o`qituvchisi*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada B1 darajadagi ingliz tili o`rganuvchilarining og`zaki nutqini o`stirish uchun ingliz tili darslarida “simulation” tehnikasidan foydalanish, uning afzallik tomonlari, an`anaviy til o`rgatish metodining eng ko`p qo`llaniluvchi dialogik nutqni yodlash (dialogue acting) va shahnalashtirish(role play) texnikasidan farqli tomonlari va boshqa dars o`tish davomidagi ustunlik jihatlari borasida fikr bildirilgan. Maqolada shuningdek “simulation” tehnikasining asosiy faktorlaridan hisoblangan haqiqiy muhitni yaratish, o`qituvchi tomonidan topshiriq sifatida har bir til o`rganuvchiga uning hususiyatlariga mos holda rollar taqdim etish hamda “simulation”ning qolipini to`g`ri bayon qilib berish alohida ahamiyatga ega ekanligi ham bayon etilgan.*

### **Аннотация**

*В этой статье говорится о методе развития устной речи студентов на уроках иностранного языка. В частности речь идёт об использовании техники “симуляции” которая способствует не только расширению кругозора студентов но и свободной коммуникабельности.*

As a teacher of English language I participated in training course several months ago and one of the final tasks was to have micro-teaching with our colleagues. One of my experienced colleagues advised me to use “simulation” technique in order to have a good result in my teaching class. My theme was teaching conversation in small groups for B1 level students. So I was interested in this technique and began to focus on it.

Simulation is a kind of activity producing conditions which are similar to real condition, especially in order to test something. The main goal of a simulation is to give learners exposure to a representation of real-life structure. A simulation entails unexpected events in which “real communication” not played or acted dialogue, can happen. In traditional method we were taught how to do role plays or to act dialogues. Many times teachers often confuse simulations and role plays even though they use them. The major difference between simulations and role plays is that in simulation the essential facts are provided to participants. In simulations teacher gives only functional instructions like participant’s age, sex or duties and so on but in role plays students are given scripts or written dialogue beforehand. According to Jones there are three essential elements in simulation. They are followings: reality of function, simulated environment, structure. He also mentioned that participants must step inside the function mentally and behaviorally so as to fulfill their duties and responsibilities in the situation. The most important part of simulations is having participants accept the reality of function (roles and duties) fully, not thinking as learners but taking the role; otherwise the simulation

simply will not work. The role of learners in simulation, therefore, is taking the functional roles, stepping into the event, shaping the event. In simulations a provided environment must be simulated. For example: If we need a door, we can provide a simulated environment by putting two chairs together.

In my micro-teaching as I mentioned it should be focused on teaching communication for B1 level students. I used CLT (communicative language teaching) method as a tool of getting success. As a technique it was used “simulation”. In simulation learners communicate each other in order to cope with their functions. They use their real life, usage of language show their roles which are learned by heart. So simulation is the best way of making students drawn into the language class. Students work in groups or in pair in simulations and they discuss with each other while preparing their tasks. In this stage they share their ideas and if they have action discussion they understand how the language works. If the outcome is good the team feels proud, if there are some mistakes they learn something out. The usefulness of this technique teacher only guides the students and the students discover for themselves how they can effectively use simulations. As we mentioned above in simulations teachers are less active than learners. But the task should be given accurately I think I tried to do this one and by the way I encouraged the participants with my praising words. In this activity even students who had poor vocabulary tried to act something. It was useful for some learners who had kinesthetic learning styles because as we know these kinds of learners learn something easily by doing and acting it.

The topic of the lesson was “Dangers of mobile phones”. The main goal of my lesson was to show the advantages of mobile phones. According to my lesson plan I used “simulation” technique in the main part of the lesson. I divided the class into three groups and gave them instructions. I used cards with written tasks in this stage. The two groups did their simulations and the last group watched and gave their ideas about simulations of two other groups. I expected that the group A might get a good result while showing the simulation because all of them were good at English but the group B was very active and did their task successfully. One of the participants in my micro-teaching shared her ideas about simulation technique and said that she liked her acting so much and she even forgot the words which she should say during their simulation as they had planned with group before acting. She said that she used all her words from the real life situations.

From my teaching experience I used role plays and acting dialogues but “simulation” technique was totally new for me. I found out that using simulation in teaching for improving speaking skill is very useful and learners felt free while showing their simulations. They used their daily life language and it gives them being natural.

### **References.**

1. Usage of Simulations and Language Games in ESL Classes. M.Sarpparaje.,Phil. Assistant Professor. MepcoSchlenk Engineering College. Sivakasi. India .

2. Using Simulation in Teaching English for Specific Purposes. Gill Sturtridge, English Language Teaching Institute, British Council. London.
3. [http://www.languages.dk/methods/documents/Simulation\\_Manual.pdf](http://www.languages.dk/methods/documents/Simulation_Manual.pdf)

## **ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА В ОБЛАСТИ МАШИНОСТРОЕНИЯ**

*Г. Бурхонова, старший преподаватель ФерПИ*

### **Annotatsiya**

*Ko'pgina zamonaviy metodistlar an'anaviy ta'limning dolzarbligi va hozirgi kunda ta'lim tizimida ta'limni tashkil etishning yangi didaktik shakllariga muhtojligiga ishonadi. Mutaxassislarining texnik mutaxassislik bo'yicha o'qitish birinchi navbatda kommunikativ ko'nikmalarning shakllanishini ta'minlaydi. Treningning maqsadi kelajakda professional faoliyatda chet tilini amaliy qo'llash uchun etarlicha darajaga erishishdir. Ushbu maqolada xorijiy tillar o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar berilgan.*

### **Annotation**

*Many modern methodologists believe that traditional education is outdated and needs new didactic forms of educational organization in the education system nowadays. Specialists' training in technical specialties provides first of all the formation of communicative skills. The aim of training is to achieve a level sufficient for practical use of the foreign language in the future professional activity. In this article are represented the methodical recommendations for teachers of a foreign language in nonlinguistic specialties.*

Развитие промышленности на территории республики в первую очередь связано с экономическими и научно-техническими отношениями со странами с высоким уровнем технического развития, к которым относятся Германия, Австрия, Швейцария, страны Северной Европы и др., где немецкий язык используется как язык международных экономических отношений. В связи с быстрым развитием современных промышленных технологий необходимо постоянное закрепление и обогащения знаний по техническим дисциплинам. Поэтому научные библиотеки учебных заведений республики приобретают специализированную литературу на иностранном языке, которая позволяет будущим инженерам и техникам ознакомиться с новыми достижениями технического развития за рубежом. Прямые связи с представителями иностранных компаний, правильная интерпретация каталогов для покупки различных машин, руководства и инструкции эксплуатации оборудования и объектов или проведение переговоров с представителями иностранных компаний, покупающих или производящих станки, трактора, запасные части и т.д. часто подразумевает знание немецкого языка. Здесь необходимо отметить тот факт, что студенты технических учебных заведений,

инженеры и техники, направляемые за границу для обучения, повышения квалификации или посещения различных международных конференций и конгрессов находится в постоянном общении с носителями языка. Знание немецкого и английского языков дает возможность сэкономить время при деловом общении и благодаря личному контакту наладить деловые отношения с партнерами по бизнесу.

Многие современные методисты считают, что традиционное образование устарело и необходимы новые дидактические формы организации обучения в современной системе образования. Это в связано с тем, что сегодняшнее высшее образование пытается вырастить творческую личность, целостно воспринимающую мир, способную активно действовать в профессиональной и социальной сферах, обеспечивая динамическое и устойчивое развитие человечества. Современный специалист должен обладать такими профессиональными и личностными качествами, как умение профессионально подходить к решению технических задач и проблем, использование современных информационных технологий при разработке новых образцов техники, владение графической и компьютерной культурой, умение выявлять приоритетные решения задач с учетом нравственных аспектов деятельности, способности к творческому профессиональному саморазвитию [2; 53].

Какую роль играет иностранный язык в процессе обучения современного специалиста? Иностранный язык – это вспомогательное средство, предназначенное для формирования профессиональной направленности студента. Современный специалист не может обойтись без владения определенным уровнем языка, поэтому для учебного процесса требуется конкретизация и актуализация цели профессионально-ориентированного иноязычного обучения. Данная цель должна учитывать направленность на формирование способности к профессиональному и профессионально-деловому общению. Учебный процесс, ориентированный на определенную специальность, например: машиностроение, экономика, юриспруденция, психология и т.д. предусматривает формирование у студентов способности иноязычного общения в конкретных, профессиональных ситуациях с учетом особенностей профессионального мышления, то есть – профессионально ориентированное обучение. Под профессионально-ориентированным обучением понимают обучение, основанное на учете потребностей студентов в изучении иностранного языка, диктуемых особенностями будущей профессии или специальности, которые, в свою очередь, требуют его изучения [3].

Подготовка специалистов по техническим специальностям предусматривает формирование коммуникативных умений. Наряду с высокой лингвистической компетенцией родного языка обучаемый получает знания немецкого языка для общения как в официальной, так и в неофициальной среде, для выступлений на конференциях, при обсуждении договоров, проектов, составлении деловых писем. Целью обучения в данном случае является достижение уровня, достаточного для

практического использования иностранного языка в будущей профессиональной деятельности.

Что должен усвоить обучающийся в процессе обучения, чтобы качество и уровень владения иностранным языком соответствовали его запросам и целям, а также целям и задачам данного уровня обучения? По мнению Н.Д. Гальсковой [1], в содержание обучения иностранному языку необходимо включать: сферы коммуникативной деятельности, темы и ситуации, речевые действия и речевой материал, учитывающие профессиональную направленность студентов; языковой материал (фонетический, лексический, грамматический, орфографический), правила его оформления и навыки оперирования им; комплекс специальных (речевых) умений, характеризующих уровень практического овладения иностранным языком как средством общения, в том числе в ситуациях профессионального и делового общения, совместной производственной и научной работы; систему знаний национально-культурных особенностей и реалий страны изучаемого языка.

Учебник „Germana pentru ingineri și tehnicieni” Ing. Benno Oepauscheg Grete Klaster-Ungureanu (1973), который является основным вспомогательным средством для обогащения словарного запаса, разговорной лексики и технического языка, который ориентирован на технические достижения в сфере машиностроения и автоматизации производства, непосредственно затрагивающих профессиональные интересы обучающихся, предоставляет им возможность для профессионального роста [4]. В учебнике представлены технические термины, лексические единицы, которые употребляются в промышленности, технике, науке и т.д. Как известно, многие термины очень трудно выучить даже на родном языке, а что сказать о немецком языке, который славится своим «богатым воображением» в создании слов. Данный учебник немецкого языка для технических вузов отличается узкой тематической подборкой лексики по следующим дисциплинам математика, обработка металлов, машиностроение и автоматизация производства, но он в малой мере отражает лексические единицы, употребляемые в быту и бизнесе. Авторы учебника придерживались основным принципам обучения иностранному языку: последовательность, повторяемость и компетентность. При изучение, представленного в учебнике языкового материала, устанавливается двусторонняя связь между стремлением студента приобрести специальные знания и успешностью овладения языком.

На первом этапе обучения развиваются коммуникативные умения по всем видам речевой (говорения, аудирования, чтения, письма) на основе общей и профессиональной лексики. Например на занятии часто используются работа в группах или по парам. Конечной целью обучения на этапе (A1) является развитие следующих умений: умение вести беседу по определенной разговорной теме, краткая передача содержания прослушенного текста, правильная артикуляция,

четкость речи, написание короткого электронного письма с соблюдением стандартов и грамматических структур.

На втором этапе обучения (A2) предполагается обучение монологической речи, например передать содержание диалога в форме монолога и наоборот, в соответствии с определенной реальной профессиональной сферой, ситуацией.

Третий этап (B1) направлен на формирование умений создавать различные жанры монологических текстов: сообщение информации профессионального характера, выступлений с рефератом, высказывание собственного мнения по тексту.

На четвертом этапе (B2) большое внимание уделяется обучению письму, которое развивает коммуникативную компетенцию, необходимую для профессионального письменного общения, проявляющейся в умениях реферативного изложения, аннотирования, а также перевода профессионально значимого текста с иностранного языка на родной язык и с родного языка на иностранный. Обучаемый должен овладеть навыками в разговорной речи по телефону, уметь подготовиться к выступлению с докладом/презентацией на иностранном языке, уметь высказаться в ходе дискуссии, обсуждения, как с предварительной подготовкой, так и без нее, а также формировать умения владения всеми видами чтения публикаций разных функциональных стилей и жанров, в том числе специальной литературы.

### **Литература**

1. Гальскова, Н.Д. Современная методика обучения иностранному языку: пособие для учителя. М: АРКТИ Глосса, 2000. 165 с.
2. Ельцова В.А., Соловьёва О.Н., Соловьев А.В. Теоретические и практические аспекты требований, предъявляемых к профессиональной деятельности инженера.//Проблемы международной интеграции национальных образовательных стандартов № 3 2007. с. 53-57
3. Махутин Д.Л. Профессионально-ориентированное обучение иностранному языку студентов лингвистических специальностей. (просмотрено 10.05.2013 – <http://www.lib.tsu.ru/mminfo/000349304/14/image/14-121.pdf>)
4. Oepauscheg, Benno/ Klaster-Ungureanu, Grete Germana pentru ingineri și tehnicieni. București, Editura Tehnică, 1973. 561 с.

## **THE EFFECTIVENESS OF AUDIO-VISUAL AIDS IN LANGUAGE TEACHING.**

*Galiakberova Albina Rinatovna, senior teacher of Fergana Polytechnic Institute*

### **Аннотация**

*Данная статья рассматривает значимость аудиовизуальных средств в эпоху современного языкового обучения с развитием технологий и новых инноваций. В настоящее время учителя языка используют различные аудиовизуальные средства для облегчения учебного процесса. Целью этой статьи является изучение преимуществ использования аудиовизуальных средств в обучении английскому языку.*

### **Аннотация**

*Ушбу мақолада замонавий тил ўргатиши даврида янги инновациялар ва технология ривожланиши билан биргаликда аудиовизуал воситаларни аҳамияти берилган. Уқув жараёнини осонлаштириши мақсадида хозирги кунда ўқитувчилар турли аудиовизуал воситалари билан қўлланиб келмоқда. Мақоланинг асосий мақсади аудиовизуал воситаларни афзалликларини ўрганишидир.*

Language learning is a complex process which requires the language teacher to use modern technology which implies the application of scientific knowledge to practical tasks by organizations that involve people and machines. It is a fact that technology cannot be separated from society. Machines have social origins and they emerge from the needs of society. Therefore, teachers need technologies relevant to the teaching/learning process. If the educationalists want students to be technologically equipped, all the changes and preparations ought to be done within the curriculum, school, teaching organization and finance.

The term "audio-visual aids" is commonly misapplied. The aids themselves must be something either audible or visual, or both. The common types of audible aids are the spoken word, recognizable sound effects, and music. The most frequently used visual aids are people, pictures, cartoons, graphics, maps, the printed word, and three-dimensional models. When we talk about a motion picture projector or a blackboard, we are talking about the means of presenting the aids, and not the aids themselves.

It is a well-known fact that audio-visual materials are of a great help in stimulating and facilitating the learning of a foreign language. According to Wright many media and many styles of audio-visual presentation are useful to the language learner. That is to say, all audio-visual materials have positive contributions to language learning as long as they are used at the right time, in the right place. In language learning and teaching process, the learner uses his eyes as well as his ears; however, his eyes are basic in learning. It is claimed that it clearly contributes to the understanding of another culture by providing vicarious contact with speakers of the language, through both audio and visual means.

In recent years, the use of audio-visual aids in English classes has grown rapidly as a result of the increasing emphasis on communicative techniques. Being a rich and

valuable resource, audiovisual aids are well-liked by both students and teachers. Students like them because audio-visual aids presentations are interesting, challenging, and stimulating to watch and listen. Audio-visual aids show them how people behave in the culture whose language they are learning by bringing into the classroom a wide range of communicative situations. Another important factor for teachers that makes it more interesting and enjoyable is that it helps to promote comprehension. We know that deficiencies in vocabulary can make even a simple task very difficult for the students. Audiovisual aids make meaning clearer by illustrating relationships in a way that is not possible with words, which prove a well-known saying that a picture is worth a thousand words. Two minutes of audiovisual aids can provide an hour of classroom work, or it can be used to introduce a range of activities for five minutes. A ten-minute program can be useful for more advanced students; less advanced students may wish something much shorter because their limited command of the language also limits their attention span.

It is obvious that non-native speakers of a language rely more heavily on audiovisual aids clues to support their understanding and there is no doubt that audiovisual aids are an obvious medium for helping learners to interpret their clues effectively. According to many researches, language teachers like audiovisual aids because they motivate learners, bring the real world into the classroom, contextualizes language naturally and enables learners to experience authentic language in a controlled environment. Moreover, in this issue educators claim that audiovisual aids can give students realistic models to imitate for role-play; can increase awareness of other cultures by teaching appropriateness and suitability.

### **Used literature**

1. Ashraf Rizvi M. Effective Technical Communication. 2007.
2. Chadha R.K. Communication Techniques and Skills. 2001.

## **INGLIZ TILIDA TINGLAB TUSHUNISHDAGI QIYINCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI**

*Namangan tumani XTBga qarashli 2-maktab Ingliz tili o'qituvchisi Daliyeva Surayyo*

***Annotation.** About English difficulties of listening and their destroying way in this article.*

***Аннотация.** Об английских трудностях слушания и их разрушения путь в этой статье.*

Zamonaviy metodikada ta'limning predmeti nutq faoliyatining turlari tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv hisoblanadi.

Ma'lumki, og'zaki nutq tinglab tushunish (audirovaniye) va gapirish (so'zlash) jarayonidan iborat. 1960 yillargacha o'rta maktablarda nutqni tinglab tushunishni alohida o'rgatilmagan edi. O'qituvchilar o'quvchilarga chet tilda gapirishni o'rgatilsa, ular chet tildagi nutqni tinglab tushunaveradilar, degan fikrda edilar. Amalda esa o'rta maktab bitiruvchilari chet tildagi nutqni tinglab tushunishga qiynalar yoki butunlay tushunmas edilar. Shuning uchun ham 1960-yildan

boshlab barcha metodist, psixolog va lingvistlar o'quvchilarga tinglab tushunishni maxsus o'rgatish kerak degan xulosaga keldilar.

Tinglab tushunish nutq faoliyatining reseptiv-axborot qabul qilish turiga kiradi. Nutq faoliyatining ushbu turisiz til vositasida muomala sodir bo'lmaydi. Bundan tashqari ma'lum tilni o'rgatish jarayoni o'quvchilarga til materialini auditiv usul bilan taqdim qilishni taqozo qildi. Bu bilan o'quvchilar ongida til birliklarining (bo'g'in, so'z, so'z birikmalari, jumla) tovush timsollari shakllantiriladi. Bu jarayonda tinglab tushunish til materialini esda saqlash uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tinglab tushunish nutq faoliyatining turi sifatida o'z ob'ekti, predmeti va mahsuliga ega.

Tinglab tushunishning o'ziga xos qiyinchiliklari bor. ular 2 ta asosiy qismdan iborat. Bular ekstralingvistik va lingvistik qiyinchiliklar.

Ekstrolingvistik qiyinchiliklarga;

1. Tinglyotgan nutq mexanik nutq bo'shlig'i. Fonogrammamadan, videofonogrammamadan nutqni tinglashlik;

2. So'zlovchining o'zidan jonli nutqni tinglashlik;

3. Nutqning tembri;

4. Nutqning tezligi;

5. Nutqning kimgadir, nimagadir qaratilgan bo'lishligi;

6. Tinglayotgan sharoit, vaziyat, sinfda o'quvchi, talabalarning intizomi, shovqini, ularning ko'p-kamligi;

7. Nutq ehtiyoji bo'lishi;

8. O'quvchi, talabaaning diqqati;

9. Nutqning bir yoki bir necha marta tinglanishligi;

10. Tinglab tushunishda tayanch vositalarning, mazmunli rasmlarning bo'lishligi kiradi.

Lingvistik qiyinchiliklar:

1. Nutqning monologik, diolog shaklida bo'lishligi;

2. Fonetik qiyinchiliklar, so'zlarning to'g'ri talaffuz qilinishi;

3. Leksik qiyinchiliklar, so'zlar tanish, ko'p ma'noli bo'lishligi, konversiya;

4. Grammatik qiyinchiliklar-zamonlar, grammatik shakllar, gap tuzilishlarning tanishligi;

5. Stilistik qiyinchiliklar. Nutqni sheva yoki adabiy tilda bo'lishligi.

Tinglab tushunishning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun quyidagi uch omil nazarda tutiladi. Tinglovchining o'ziga bog'liqlik (eshitish malakasining rivojlanganligi, xotirasi, diqqati xususiyatlari), tinglash shart-sharoiti (nutq tezligi, til materiali hajmi va shakli hamda so'zlanayotgan nutqning qancha vaqt davom etishi) va, nihoyat, qo'llangan materialning lingvistik jihatlari (tinglovchi til tajribasiga mos kelish-kelmasligi) hisobga olinadi.

Ingliz tilda nutqni tinglab tushunishdagi qiyinchiliklar:

1. Tilga oid qiyinchiliklar.

2. Mazmunga doir qiyinchiliklar.

3. Nutqiy idrok qilishning shart- sharoitidagi qiyinchiliklar.

4. Nutq shakliga oid qiyinchiliklar.

5. Tilshunoslik nutqtai nazaridan sodir bo'ladigan qiyinchiliklar.

6. Audio matn strukturasi qiyinchiliklar.

Tinglab tushunishning psixofiziologik mexanizmlaridan birinchi mexanizmni ruxshunoslar nutqni idrok etish deb nomlaganlar. Ushbu mexanizm eshitish xotirasi mexanizmi bilan chambarchas bog'liq. Ichida gapirish mexanizmi faoliyatiga ko'ra audiomatni idrok etish paytida nutq harakati analizatori ishlaydi.

Eshitish sezgisi kelayotgan signallarni xotirada qoliplangan andozaga solishtirish mexanizmi.

Nutqni tinglab tushunishni o'rganish va tushunganlikni tekshirish.

Tinglab tushunishning mazmuni tinglab tushunish nimalarni va nimalarga o'rgatish ko'zda tutiladi. U o'rta maktab ingliz tili dasturida har bir sinf uchun belgilab berilgan. G.V.Rogova mazmuni 3 qismga bo'ldi. Bular quyidagi qismlardan iborat:

1. Lingvistik qism. Bunga til va nutq materiali kiradi.

2. Psixolingvistik qism. bu ovoqli nutqni tinglash, tushunish malaka, ko'nikmasiga erishtirishdir.

3. Metodik qism. O'quvchilarga tinglash, tushunish yo'l-usullarini o'rgatish, hamda tinglab tushunish texnologiyasi orqali uni qonun qoida, tamoyillar, metodlar, vositalar orqali o'rgatiladi.

Gapirish va tinglab tushunish jarayoni og'zaki nutqning ikki uzviy bog'langan tomonidir. Ularda ishlatiladigan leksik va grammatik hodisalar umiylikka ega. Shuning uchun ham tinglab tushunishni o'rgatishga kirishilarekan, albatta gapirishni egallash davrida tinglash bilan ham mashg'ul bo'lgani ma'quldir. O'qish va yozishni mashq qilishda ham tinglab tushunish «ishtirok» etadi. O'qiyotgan yoki fikrni bayon etayotgan kishi til materialini tinglab tushuna oladi. Ma'lum bo'lishicha, o'rganayotgan til birligi tinglash (eshitish sezgisi - analizatori), gapirish (nutq harakat sezgisi - analizatori), yozuv (qo'l harakat sezgisi - analizatori) va o'qish (ko'ruv sezgi - analizatori) orqali o'zlashtirilganda puxta dinamik stereotip shakllanishiga olib keladi.

Dars boshlanishidagi chet til sun'iy muhitini yaratishga mo'ljallangan mashqlarning ko'p qismi tinglab tushunish bo'yicha bajariladi. Darsning asosiy qismi va yakunida ham tinglab tushunish mashqlari yetakchilik qiladi. Nutqni tinglab tushunishni o'rgatishda, avvalo nimani o'rgatish, ikkinchidan, qanday qilib o'rgatish, nihoyat, tushunganlikni qaysi yo'l bilan aniqlashni bilish talab qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ишмухаммедов Р. , Ўқув жараёнида интерфаол услублар ва педагогик технологияларни қўллаш услубияти. –Т.:РБИММ. 2008.
2. G.V.Rogova “Ingliz tili o'qitish metodikasi”-«o'qituvchi»,1996
3. Жалолов Ж. Чет тили ўқитиш методикаси.-«ўқитувчи», 1996
4. Хошимов О.У. Якубов И. Инглиз тили ўқитиш методикаси. –Т.: 1993
5. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)

## **YOSH FUTBOLCHILARDA BO'LAJAK O'YIN VA MUSOBAQA OLDIDAN EMOTSIONAL TANGLIK VA UNI TUG'DIRUVCHI OMILLAR.**

*Djuraev Elyor Madaminovich Farg'ona Davlat Universiteti Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedراسi o'qituvchisi.*

*Djuraeva O'g'iloy Axmadjon qizi. Farg'ona Davlat Universiteti CHet tillar fakul'tuti 4-bosqich talabasi.*

### **Аннотация**

*В этой статье описывается эмоциональный стресс и менталитет потенциальных игроков и конкурсы до конкуренции, а также практические и теоретические рекомендации по их устранению.*

### **Annotation**

*This article outlines the emotional stress and mentality of potential players and pre-competition contests and practical and theoretical guidelines for dealing with them.*

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida sportni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar yurtimizda har jihatdan sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda. Istiqlol yillarida mamlakatimizning eng chekka hududlarida ham qad rostlagan zamonaviy o'yingohlar, suv havzalari, sport inshootlarining o'g'il – qizlar bilan gavjumligini ko'rib, Vatanimiz mustaqilligining xalqimiz hayotida yaratayotgan ulug' o'zgarishlariga amin bo'lamiz. Bunday beqiyos imkoniyatlar yurtimizning barcha hududlarida ko'plab iste'dodli sportchilarni, xususan, mohir charm to'p ustalarini kashf etishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning har tomonlama jismoniy, ma'naviy jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Bu o'rinda inson ruhiyati qonunlarini o'rganuvchi psixologiya fani va bu sohada faoliyat yuritayotgan ruhshunoslar alohida ahamiyat kasb etadi. Insonni jamiyatimiz uchun to'laqonli, faol, barkamol shaxs sifatida shakllantirish uning faoliyatidagi samaradorligini yanada oshirishda psixologiya ilmi va uning amaliyotda to'g'ri yo'nalishga ega bo'lishi juda muhimdir.

Sportning xar bir turida odatdagidan ortiq asab – harakat kuchi sarf etilishi talab qilinadi. Sportchidagi harakatlar doimo ongli ravishda kechadi. Insonning ruhiy jarayonlari o'rtasidagi e'tibor alohida ahamiyatga egadir. Futbolchilar muskul harakatlarini tasavvurini aniq tafakkur asosida shakllantirishlari zarur. Bajarilayotgan harakat texnikasi to'g'ri bo'lishi kerak. Odatda musobaqalarga chiqishdan oldin bajariladigan mashg'ulotning maqsadi faqat fiziologik samaraga ega bo'libgina qolmay, balki, ma'lum muskul – harakat tasavvurlarini xam belgilashdan iboratdir.

Sportchilarni xususan futbolchilarni sport formalarini yil davomida yuqori darajada ushlab turish uchun ulardan tinimsiz mehnat talab etiladi, undan tashqari o'z

sport formasini yo'qotishiga turli kuchli salbiy xis–tuyg`ular ham ta'sir etishi mumkin. Yuksak mahoratga erishishga ega bo'lish sportchidan faqat sport harakatlariga e'tiborni jamlashni talab qiladi. Lekin bu jarayonda unga turli ruhiy to'siqlar halaqit beradi. Ular sportchi e'tiborini asosiy mashg'ulot yoki musobaqaga tayyorgarlik ko'rishda bir muncha to'sqinliklar keltirib chiqaradi. Bu ruhiy to'sqinliklar hammasi sportchi ruhiyatini susayishiga olib keladi. Ularda o'z kuchiga ishonchsizlik paydo bo'ladi, ulardagi harakatlar susayib boradi. O'yin davomida raqib tomonidan yetkazilgan kuchli jarohat futbolchini uzoq muddat safdan chiqarishi, uning harakat faoliyatini va sport formasini buzilishiga olib kelishi hamda eng achinarlishi futbolchini keyingi o'yinlarda oldingidek shijoat bilan harakat qilishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari murabbiylar jamoaning yuksak natijaga erishishi maqsadida mashg'ulot jarayonida yuklamalar hajmini me'yoridan ortirib yuborishadi. Bu esa futbolchilarning jismoniy holatini va uning ko'rsatkichlarini mashg'ulot jarayonida o'stirishi mumkin, ammo musobaqa jarayonida mashg'ulotdagi ko'rsatkichga erisha olmaydi. Bu esa futbolchilarda kuchli asabiylanishni yuzaga keltiradi.

Futbolchilarni asosiy harakatlardan chalg'ituvchi yana bir xolat ular tomon bildirilayotgan kuchli salbiy xis – tuyg'ular bilan bog'lik fikrlardir. Bu fikrlar futbolchilar ongida yetakchi o'ringa chiqib olishi natijasida ularda mashg'ulot hamda o'yin davomidagi asosiy harakatlarni buzilishiga olib keladi. Undan tashqari futbolchilar o'yin davomida quyidagi ruhiy holatlarni boshdan kechiradi.

- jaroxat olishdan qo'rqish, masalan, xarakatlarni mukammal darajada bajarmaslik.
- Raqib jamoaning darajasi yuqoriligidan qo'rqish.
- Xakamlarni noto'g'ri qarorlari va harakatlari to'g'risida fikrlar
- Mag'lubiyatdan qo'rqish
- Tomoshobinlarning munosabati bilan bog'lik fikrlar.

Bunday ruhiy holatlarni yengib o'tish uchun futbolchilar hamda murabbiylar ko'proq nimalarga e'tibor qaratishlari kerak.

-turli xil shart-sharoitlarda musobaqa o'tkazish orqali bolalarda tajriba va ko'nikma hosil qilish.

-o'yinlar va musoboqa davrida e'tiborni chalg'ituvchi fikrlarni ongli ravishda yenga olish, e'tiborni faqatgina asosiy harakatlarni bajarishga qaratish

Bunday ruhiy to'siqlarni yengish uchun sportchi ongli ravishda mashg'ulotlarni davom ettirishi va uning salbiy emotsional kechinmalariga e'tiborni qaratmasligi lozim.

Ko'p hollarda mashg'ulot jarayonida odatiy bulmagan mashqlarni bajarishda, shuningdek jamoaga yangi kelib qo'shilgan yosh futbolchilarda ham uyaliq tuyg'ulari yuzaga keladi. Bu ruhiy to'siq futbolchilar uchun juda kuchli ta'sir etadi. U ayniqsa tomoshobinlarni yoqimsiz ovozlari bilan ifodalangan extiyotsiz aytilgan so'zlar yosh o'sib kelayotgan futbolchilarning ruhiyatiga salbiy ta'sir yetkazish bilan bir qatorda ularda ushbu sport turiga bo'lgan qiziqishni susayishiga, o'ziga bo'lgan ishonchni pasayishiga olib keladi.

Бола сурат чизмоқда, она унга яқинлашаб, “яна машина, ўйинчоқларни чизяпсанми! Кел ундан кўра ёзишни, ўқишни ўрганамиз!”, деб мурожаат қилмоқда. Бир қарашда бу оддий вазият, она бола билан муҳимроқ вазифа билан шуғулланмоқчи. Бирок, мактабгача ва кичик мактаб ёшидаги боланинг руҳий ва шахсий ривожланиши учун сурат чизиш етакчи фаолият ҳисобланади. Бинобарин, бола сурат чизаётганда ота-она у билан суҳбатлашиши, кўпроқ савол бериши, тасвирланган предметлар тўғрисида тўлароқ маълумот бериши, сурат чизишни янги усуллари ўргатиши, болани ҳар томондан қўллаб-қувватлаши жуда муҳим.

Болани мактабга тайёрлашда ота-она аввало боланинг диққат турғунлигини, хотира фаоллигини, сўз бойлигини, тафаккур ривожини таъминлаши лозим. Ота-онанинг фаоллиги боланинг мактаб таълимига тез ва осон мослашишига, қўл моторикасини ривожланишига, ўқиш ва ёзиш кўникмаларини мустаҳкамланишига замин яратиши мумкин. Боланинг мактаб таълимига ҳам жисмоний, ҳам руҳий, ҳам маънавий тайёрлашда ота-она нималарга эътибор бериши лозим?

**Биринчидан**, боланинг кун тартиби қатъий бўлиши лозим. Бола вақтида овқатланиши, дам олиши, жисмоний машқлар билан шуғулланишини таъминлаш керак. Агар болада камқонлик аломатлари бўлса, бу албатта унинг ўқиш фаолиятига таъсир қилади, болада билиш жараенларининг сустиги кузатилади. Шундай экан, ота-она боланинг овқатланиш рационига ҳам алоҳида эътибор бериши даркор.

**Иккинчидан**, руҳий зўриқишни олдини олиш учун ота-она аввалдан, болани ўқиш жараенига, 45 дақиқалик дарс жараенига, янги муҳитга мослашишига тайёрлаб бориши керак. Бунинг учун ота-она уй шароитида фарзандининг дўстлари билан “мактаб-мактаб”, оилавий “билағон-топағон” каби ўйинларни ташкил этиб,

болани ихтиерий равишда узоқ муддат шу машғулот билан шуғулланиш кўникмасини таркиб топтириши зарур.

**Учинчидан**, бош мия структурасининг яхши ривожланиши, асаб-психика холатининг тайёр бўлиши турли кўл-моторика ўйинларига ҳам боғлиқ. Шундай экан, ота-она болани тайёрлашда майда кўл ҳаракатларини талаб қилувчи ўйинлар (мисол тариқасида, халқимизнинг “тўп-тош” ўйинини келтириш мумкин) ва машғулотларни (тугма қадаш, майда тошчаларни, чўпларни санаш ва ҳоқ.) ташкил этиши мақсадга мувофиқ бўлади.

**Тўртинчидан**, бола ота-онанинг меҳрини, ўзини кераклигини ҳис этиши лозим. Ота-онанинг бундай руҳий кўллаб-қувватлаши болада ўзига ишонч ҳиссини мустаҳкамлайди, янги шароитга, муҳитга тез мослашишига ердам беради. Шундай экан, ота-она боланинг куни қандай ўтганлиги, дўстлари билан муносабати қандайлигини, мактабда қандай янгиликлар рўй бергани тўғрисида самимий тарзда қизиқиши жуда муҳим.

Хулоса тарзида шуни таъкидлаш лозимки, болани мактабга тайёрлигини фақат унинг ёзиши ва ўқий олиш кўникмаларигина ташкил қилмайди. Ота-она ўз фарзандини мактаб таълимига тайёрлашда унинг руҳий, жисмоний, маънавий ривожланиши шакллантириши, ўқиш мотивациясини таркиб топтириши, индивидуал хусусиятларига асосланган ҳолда, диққат, хотира, тафаккур, хаел, ирода сифатларини мустаҳкамлаши лозим. Ҳар бир бола болалар жамоасига кира олиш, бошқалар билан бирга ҳаракат қилиш, баъзан ёрдам бериш, баъзан ўзини ҳимоя қилиш ўқувларини эгаллай олиши лозим. Шундагина у шахслараро муносабатларда ижобий натижага эришиб, атрофдагиларга нисбатан самимий ва хайрихоҳ бўлади, бу эса, комиллик сари илк қадам ҳисобланади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Беляускайте Р.Ф. (1987). Рисуночные пробы как средство диагностики развития личности ребенка. В сб. научных трудов «Диагностическая и коррекционная работа школьного психолога»: М., С. 67-80.
2. Варга А.Я., Смехов В.А. (1986). Психологическая коррекция взаимоотношений детей и родителей // Вестник Московского Университета. Сер. 14: Психология. - №4.- С.12-31.

## **РОЛЬ СЕМЬИ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ**

*Набиева Н.М.*

*Ферганский политехнический институт*

*Аннотация. Мақолада муаллиф томонидан hozirgi кунда ёшлар тарбияси масалалари ўрганилган. Ёшларни тарбияси жараёнида оила ўрни ҳақида фикр юргизилган. Муаллиф томонидан тарбияга оид тавсиялар берилган.*

*Annotation. This article examines the issues of educating young people in modern times. The author in his article considers the actual issues of educating young people in the context of globalization. The article contains recommendations concerning the education of the younger generation.*

В настоящее время особенно актуальными становятся вопросы воспитания молодёжи. И напрашивается вопрос – почему именно в современное время? И сразу же можно сформулировать ответ – на сегодняшний день для молодёжи очень много искушений. Это и глобальная сеть интернет, а так же огромный поток информации в мире медиа. Что же делать? Не секрет и то, что в наше время во всём мире в целом остро стоит вопрос увеличения статистики суицидов среди представителей молодого поколения.

Именно поэтому на наш взгляд просто необходимо пересмотреть некоторые принципы в воспитании молодого поколения. В нашей стране в целях воспитания молодёжи в духе почтительного отношения к старшим с малых лет детям прививаются навыки уважительного отношения к взрослым, а особенно к людям преклонного возраста. В настоящее время особую роль приобретают проблемы формирования духовного, нравственного и физического здоровья подрастающего поколения, воспитания нового типа граждан – истинных патриотов, самостоятельно мыслящих, активно действующих, обладающих интеллектуальным потенциалом и нравственными принципами.

На востоке отношение к жизни устроено на основе воспитанности, духовной устремлённости и философии благородства. С нашей точки зрения именно менталитет той или иной нации способствует правильному воспитанию. Но на сегодняшний день в семье родители при воспитании детей сталкиваются со многими трудностями, в частности окружением их ребёнка.

Что же может негативно повлиять на молодого человека или девушку – это их окружающая среда. Но если с детства ребёнку постарались привить навыки уважительного отношения к старшим, то в подростковом возрасте и во взрослой жизни эти принципы остаются.

Образовательные учреждения тоже вносят свой весомый вклад в воспитание молодого поколения. Это школы, лицеи, колледжи, а затем высшие учебные заведения. Духовно-нравственное воспитание подрастающего поколения является

первостепенной задачей современной образовательной системы и представляет собой важный компонент социального заказа для образования.

Но следует отметить, что фундамент правильного воспитания закладывается в семье. В наше динамично развивающееся время происходит погоня за материальным благополучием, в чём нет ничего предосудительного. Но родители порой заботятся только о материальном обеспечении детей и забывают о нравственных ценностях. Они считают, что главная их цель – это материальное благополучие ребёнка.

Но потом к сожалению выявляется, что это не главные приоритеты в жизни человека, что помимо материального благосостояния ребёнку необходимо прививать духовные ценности. Мы часто задаёмся вопросом – почему наши дети не читают художественную литературу, а если читают то только единицы. У детей появляется зависимость от достижений научно-технического прогресса – это гаджеты, компьютеры и так далее. А было бы прекрасно, если бы большее количество нашей молодёжи увлекалось бы чтением книг, классической музыкой. У нас есть одарённые дети, которых надо поддерживать, а зачастую происходит такая ситуация, когда происходит «уровнировка».

В своей статье мы хотели бы обратить внимание на вопросы воздействия махалли на воспитание молодёжи. На примере данного института мы можем проследить также поэтапную реализацию на деле основного принципа проводимых в нашей стране масштабных демократических реформ — «От сильного государства — к сильному гражданскому обществу» и других общественных структур в воспитании здорового ребенка, особенно девочек, оказание им содействия в овладении современными знаниями и профессиями, вовлечении в различные кружки, развитии предпринимательства, усиление ответственности махалли и других общественных структур за укрепление в семьях и обществе взаимопонимания, мира и спокойствия, своевременное и адресное оказание материальной и моральной помощи малообеспеченным семьям. Благодаря махалле, в Узбекистане веками формировались и сохранились особые принципы мотивации социального и экономического поведения населения, уважения общественных ценностей, этики взаимоотношений, гарантирующей безусловное выполнение принятых на себя обязательств и ответственности перед обществом.

В заключении мы хотели бы привести некоторые рекомендации и выводы по теме:

Во первых - семья оказывает наиболее сильное воздействие на поведение и выбор подростков. Большинство подростков хотели бы получить совет и поддержку от своих родителей. Однако за редким исключением родители не готовы обсуждать вопросы со своими детьми, которые растут и не уверены, какая информация должна быть предоставлена детям.

Во вторых - в педагогической теории и практике категория «ценностного воспитания» должна стать приоритетной.

В третьих – воспитание у молодёжи готовности и способности к духовному развитию, нравственному самосовершенствованию, самооценке, пониманию смысла своей жизни, индивидуально ответственному поведению.

Использованная литература:

1. Гагарина К. Е. Роль учителя в духовно-нравственном воспитании подрастающего поколения // Молодой ученый. — 2011. — №3. Т.2. — С. 110-115.
2. Газиева У. И., Атамуратова Д. Р. Роль духовного воспитания в семье и махалле // Молодой ученый. — 2016. — №10. — С. 1083-1084.
3. Фаизова В. Б. Роль семьи в формировании ценностных ориентаций молодёжи материалы II Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, ноябрь 2012 г.). — СПб.: Реноме, 2012. — С. 188-191.

### **ШАХС РУҲИЯТИДА СЕНСОР ДЕПРИВАЦИЯНИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ**

*Ориббоева Дилафрўз Дадамирзаевна НамДУ ўқитувчи  
Маматураимова Мохина Абдулазиз қизи НамДУ талаба*

*Abstract: Emotional states, which are observed a human`s character , are all different kinds and motley, one of them is deprivation. Its is considered that deprivation is a feeling that being limited all needed chances or lost opportunities that help satisfy all demands for life.*

*Аннотация: Депривация—это лишение человека чего то сущностно ему необходимого, обязательно влекущее за собой некое искажение (разрушение, опустошение, жизни данного человека)*

Шахс хулқ-атворида кузатиладиган эмоционал ҳолатлар турли-туман, ранг-баранг бўлиб, улардан бири депривациядир. Депривация ҳаёт учун муҳим бўлган эҳтиёжларни қондириш имкониятларининг чекланганлиги ёки улардан маҳрум бўлиш билан боғлиқ кечинма ҳисобланади. Депривация тушунчаси сўнгги пайтларда психологик адабиётларда кенг қўлланилмоқда. Бироқ бу тушунчанинг мазмунини аниқлашда бир тўхтамга келинган эмас. “Депривация” инглизча “deprivatsion” сўзидан олинган бўлиб “маҳрум бўлиш, йўқотиш” маъносини билдиради. Депривацион вазият муҳим психик эҳтиёжларни қондириш имконияти мавжуд бўлмаган ҳаётий ҳолатдир. Бир хил депривация вазиятига тушиб қолган болалар ўзларини турлича тутадилар.

Каттароқ ёшдаги болалар оғир шароитга мослашишга ҳаракат қиладилар. Бироқ гўдақлар инсоният жамиятидан ажралиб қолса яшаб кета олмайди. Ижтимоий изоляция тушунчасидан сепарация тушунчасини фарқлаш лозим. Сепарация нафақат болани онасидан узоқлашиши, балки боланинг ҳар қандай ижтимоий алоқаларини тўхтатиб қўйишидир. Сепарация тасодифий ёки босқичма-босқич пайдо бўладиган, тўлиқ ёки қисман, қисқа ёки узоқ муддатли бўлиши

мумкин. Сепарация ўзаро алоқанинг бузилиши натижаси бўлиб, болаларда ҳам, ота-оналарда ҳам кузатилиши мумкин. Ҳозирги кунга қадар сенсор қўзғатувчилар инсонларга қандай таъсир этиши ҳақида қўплаб эмпирик маълумотлар тўпланган. Масалан, узоқ муддатли парвозлар давомида учувчида онг ҳолатининг ўзгарганлиги ҳақида маълумотлар мавжуд. Учувчилар ёлғизлик ва монотонлик (бир хиллик) ни одамни эзиб юборадиган муҳит сифатида идрок қиладилар. Агар парвоз мутлоқ бир хил ҳолатда давом этса вазият янада мураккаблашиши кузатилади.

Сенсор депривациянинг экспериментал ўрганилганлиги ҳолатини таҳлил қилсак, психология фанида бир неча тадқиқотлар олиб борилганлигини кузатса бўлади. 1975 йили Мак Гилл университетида Д.Хебб бошчилигида қуйидагича тажриба ўтказилган: коллежнинг бир гуруҳ талабаларига ҳеч нарса билан шуғулланмасликлари учун кунига 20 доллардан ҳақ тўланган. Улар ўзлари учун қулай бўлган ўринда қўзғатувчиларни боғланган, ярим шаффоф, ташқаридаги нарсаларни аниқ фарқлашга имкон бермайдиган боғламлар билан ётишган, қулоқлари енгил шовқинни эшитиб турган. Хонада вентилятор ғириллаб турган. Текширувчиларнинг қўлларида қўлқоп бўлиб, унинг ичига тактил сезгирликни минимал даражага келтирадиган махсус аппарат ўрнатилган. Мазкур изоляция шароитида бир неча соат бўлгандан сўнг текширилувчиларда мақсадга мувофиқ фикрлашнинг қийинлашуви, диққатни тўплай олмаслик, тез таъсирланувчанлик каби ҳолатлар кузатилган. Текшириладиган талабалар шунчалик зерикашадик, ҳар қандай қўзғатувчининг таъсир қилиши ҳақида орзу қила бошлашди. Бироқ уни қўлга киритгач нима қилишни билмай қолдилар, оддий вазиятларни ҳам таҳлил қила олмадилар. Бундай ҳолат тажриба вақти тугагандан кейин 12-24 соатгача давом этган. Тажрибада иштирок этган ҳар бир вақт учун ҳақ тўланган бўлса ҳам талабалар 72-соатдан ортиқ чидай олмаганлар. Энг кўп мазкур шароитда иштирок этганларда эса турли галлюцинациялар ҳам пайдо бўла бошлаган.

Сенсор депривациянинг механизмлари масаласига келсак, психологияда ягона талқин мавжуд эмас. Уни ўрганиш жараёнида масаланинг турли томонларига эътибор беришади. Хеббнинг ёзишича, агар инсон ҳаётидаги барча воқеа ва ҳодисаларни нейрофизиологик даражада қайд этилса, унинг инсон ҳаётида яна қайта кузатилишини аниқлаш мумкин. Одатий сенсор ҳодисалар инсон руҳиятида кучли ва ёқимсиз қўзғалиш ёки стрессни вужудга келтиради. Шундай қилиб, ташқи олам ҳодисалари нафақат нерв контурларининг пайдо бўлиши учун балки нерв алоқалар ва боғланишларини мустахкамлаш учун ҳам муҳимдир.

Когнитив назариётчиларнинг фикрича, ташқи оламдан келаётган қўзғатувчилар чекланганлиги инсонга ташқи муҳит моделини тузишда қийинчилик туғдиради. Агар депривация болалик даврида пайдо бўлса, бундай моделни тузиш янада қийинлашади. Депривация кечроқ ҳосил бўлса бу ҳолат ташқи муҳит образини яратишга ҳалақит беради.

Психоаналитик тадқиқотларда асосий эътибор сенсор депривациянинг эмоционал жиҳатларига қаратилган. Қоронғи хона, беркитилган кўзлар, боғлаб кўйилган кўллар, изоляция шароити бўлиб эҳтиёжлар тажриба ўтказувчи томонидан қондирилади. Шу тарзда текширилувчи худди гўдак каби боғланиб қолиш эҳтиёжига эга бўлади, бу унда регрессив хулқ-атворни вужудга келтиради. Маълумотларнинг кўрсатишича, текширилувчиларнинг кўриш иллюзиялари тўғрисидаги хикоялари кўп жиҳатдан уларга берилган йўриқномага ҳам боғлиқдир. (Масалан, “Нимани кўраётган бўлсангиз, шуни тавсифланг”. “Ўз кечинмаларингиз тўғрисида маълумот беринг” ва бошқалар)

Инсоннинг ҳолатига нафақат кўзғатувчиларнинг етишмаслиги, балки ички органик кўзғатувчилар ва йўриқномада акс этган эътибор қаратилиши керак бўлган омиллар ҳам таъсир кўрсатади. Шундай қилиб сенсор депривацияни вужудга келиши кўплаб ноаниқ омиллар таъсирига боғлиқ деган хулосага келиш мумкин. Й.Лангмейер ва З.Матейчекларнинг фикрича, сенсор депривацияни вужудга келтирувчи омилларни фарқлаш қанчалик қийин бўлса, унинг механизмларини изоҳлаш ҳам шунчалик қийинчилик туғдиради.

Сенсор депривациянинг асоратларига тўхталадиган бўлсак, кўплаб тадқиқотларда сенсор депривация шароитида бўлган кишиларнинг психик ҳолатлари ва хулқ-атворлари тавсифланган. Субъектнинг индивидуал хусусиятига боғлиқ ҳолда асоратларни умумий ва махсус турларга ажратиш мумкин. Ўрганилаётган ҳодисалар кўлами шунчалик кўпки, уни ягона тизимга солиш ниҳоятда мушкул. Сенсор депривацияни ўрганиш учун М.Цукерман томонидан тавсия этилган таснифга эътибор қаратиш мумкин.

1. Дикқатни тўплаш ва фикрни йўналтиришнинг бузилиши;
2. Тафаккурнинг фантазия ва орзулар билан бандлиги;
3. Вақтни мўлжалга олишдаги бузилишлар;
4. Идрокка хос иллюзия ва алданишлар;
5. Хавотирлик ва фаолликка эҳтиёж;
6. Нохуш соматик сезгилар: бош оғриғи, орқа, энса ва кўзлардаги оғриқ;
7. Алаҳсираш;
8. Безовталиқ ва кўрқув;
9. Мавжуд кўзғатувчиларга нисбатан эътиборнинг кучайиши;
10. Зерикиш, фобия ва табиий эҳтиёжлар билан боғлиқ бошқа ҳолатлар.

Сенсор депривация вазиятидаги инсон ҳолатини аниқлаш учун, унга таъсир этувчи омиллар ролига индивидуал асоратларига эътибор бериш зарур. Мазкур вазиятларга инсонларнинг реакцияси аввало уларда ҳукмрон эҳтиёжлар, кўникмалар тизими, ҳимоя ва мослашиш механизмларига боғлиқ. Маълумотларда аниқланишича, экстрове́рт кишиларда интровертларга нисбатан кучлироқ намоён бўлади. А.Силверман талабаларнинг 6-нафарини (экстрове́рт ва интровертларни) танлаб олиб, уни 2 соатлик сенсор депривация шароитида ушлаб турган.

Экстрове́ртлар жуда ёмон натижа кўрсатишган бетоқат, ўта кўзгалувчан бўлиб қолишган. Интрово́ертлар эса мазкур вазиятда ўзларини анча хотиржам тутганлар. Демак, тадқиқот натижаларидан кўриниб турибдики, асаб тизими, психик жараёнлари барқарор кишилар сенсор депривация шароитига тезроқ мослаша оладилар.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Лангмейер Й, Матейчек З, Психическая депривация в детском возрасте. Прага: Авицениум, Мед издательство, 1984
2. Психическая депривация: Хрестоматия Сост Н.Н.Крыгина–Магниторск: Из-воМаГУ 2003

### **СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ТАРҒИБ ҚИЛИШ, ПСИХОЛОГИК ЗЎРИҚИШЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ВА РУҲИЙ ХОЛАТЛАРНИ БОШҚАРИШ УСУЛЛАРИ.**

*Қосимова Наргиза*

*“Жисмоний маданият ва спорт” кафедраси ўқитувчиси*

*Андижон қишлоқ хўжалик институти*

*В этой статье описываются теоретические и практические примеры пропаганды здорового образа жизни среди людей и предотвращения различных психологических напряжений и управления психическими ситуациями.*

*This article describes theoretical and practical examples of promoting healthy lifestyles among people and preventing various psychological stresses and managing mental situations.*

Сўнгги пайтда ўсмилар орасида руҳий зўриқишга дучор бўлиш узатилмоқда. Руҳий зўриқиш, яъни стресс ҳолати ёш, жинс танламайди. **Стресс** (инг. Stress-таранглик, зўриқиш) бу – психик реакция бўлиб, яъни бошқа шароитга ўрганишни, ўтишни билдиради. Ҳаётдаги ўзгаришлар, тез олиб бориладиган ишлар одам организмида реакция келтириб чиқаради. Стресс организмнинг тотал мобилизацияси ҳисобланади, яъни ўта оғир, мураккаб вазиятдан чиқиш ёки қийин шароитга мослашиш. Стрессорлар (кўзғатувчилар) вегетатив ўзгаришлар – қон-томирнинг уриши тезлашуви, қонда қанд миқдорининг ошиши, қон босимининг кўтарилиши ва ҳок.ни вужудга келтириб, организмни интенсив ҳаракатларга тайёрлайди. Шу билин бирга, **дистресс** (инг. Distress- ғам-ташвиш, уқубат)-хаёт учун хавфли бўлган, стресснинг энг оғир салбий кўриниши. У инсон қийин аҳволга тушиб қолганда бирон-бир яқинларидан ажраганда юз беради.

Руҳий зўриқишларни олдини олишда жуда кўп фойдали тавсиялар мавжуд, уларнинг энг асосийси бу ички имкониятлардан фойдаланиш. Инсоният ўз тарихи давомида шахснинг ички имкониятларини, хусусан, мия иш фаолиятини фаоллаштириш йўлида жуда кўп услубларни ишлаб чиққан. Дуолар ўқиш, ҳар хил

ўсимликлардан тайёрланган дори-дармонлар, статистик ва динамик машқлар, овқатланишдаги парhezлар шулар жумласидандир.

Эътибор қилсангиз, буларнинг негизда инсон ҳаёт тарзини қўллаб-қувватловчи 3 та асосий омилни фаоллаштириш мақсадлари мужассам эканлигини англайсиз:

1. *Биохимик омил.*
2. *Физиологик омил.*
3. *Эмоционал-психик омил.*

Бу омилларнинг ҳар бири ҳали-ҳамон ўз таъсир кучини йўқотганича йўқ.

Инсон миясидаги биохимик жараёнлар кўп қиррали бўлса ҳам булардан иккитаси энг зарури ҳисобланади.

Булар овқатланиш ва нафас олишдир. Шунинг учун рухий зўриқишни олдини олишда олдин куйидаги маслаҳатларимизга қатъий риоя қилинг:

Кўп овқатланманг; нотаниш жойларда, нотаниш шахслар тайёрлаган таомларни истеъмол қилманг; жуда ёғли ва каллорияси кўп бўлган овқатни ейишдан ўзингизни сақланг; эски, кўп вақт туриб қолган маҳсулотлардан тайёрланган овқатни истеъмол қилманг; кечки соат 10 дан сўнг овқатланманг; толқон ёки зоғора нон бўлса яна ҳам яхши; чой ўрнига мевалардан тайёрланган компот ёки қайнатилган сув ичинг ва ҳок.

Тўғри нафас олиш организмда бўлаётган биохимик омилларни фаоллаштиради. Шунинг учун:

- нафас йўллари, бурун ва қулоқ бўшлиғи, бадан терисини – тоза сақланг;
- чекманг ёки иложи борича бу куни чекишни камайтинг;
- ҳаво алмашмайдиган, дим хонада узоқ вақт ўтирманг;
- ҳар ҳил токсик (бензин, керосин, лак, ацетон, турли хил бўёқлар) моддага эга бўлган маҳсулотларни ҳидламанг;
- ўта тор, нафасингизни қисадиган ёки синтетик матолардан тайёрланган кийимларни кийманг.

Шу куни иложи борича кўпроқ очиқ ҳавода сайр қилинг. Эрта билан баданингизни ҳўл сочиқ билан артинг ёки душ қабул қилинг. Бадан нафас олишида товон ҳам катта аҳамиятга эга, шунинг учун кўпроқ яланг оёқ юринг. Ҳар уч соатда тавсиямизнинг биринчи қисмида берилган нафас олиш машқларини бажаринг. Булардан ташқари, оддий шарларни пуфлаб шишириш ҳам яхши натижа беради.

Саҳар соат 4 дан 7 гача ва кечки 9 дан 11 гача ҳавода озон моддаси кўп бўлади. Табиат сизга берган бундай имкониятдан ўзингизни олиб қочманг.

## **2. Жисмоний физиологик омилларни фаоллаштириши.**

Бу кунни сизга одат бўлиб қолган жисмоний машқлар ва ҳўл сочиқ билан баданни артишдан бошланг. Сўнг соат 7 дан 8 гача аутоген машқларга ўтинг. Уй ишлари ва жисмоний меҳнат билан банд бўлинг. Кейин эса фаол ўйинлар (теннис, воллейбол, баскетбол...) билан шуғулланинг. Бундай меҳнат ва машқ давомида баданингизни терлаш ҳолатигача олиб боринг, чунки сизнинг организмиз тер

орқали сизда сақланиб келаётган кўркувларни ва стресс ҳолатларини чиқариб юборади.

Иложи борича бу куни 5-6 км. масофани пиёда босиб ўтинг, сайр қилинг. Жисмоний активлигингиз баданингизнинг барча қисмларини – бошдан тортиб, то панжа учларигача 15 дақиқа давомида уқаланг. Кунингизни аутоген машқлар билан тугатинг ва тоза, ҳавоси яхши алмаштирилган хонада ухланг.

### **3. Эмоционал-психик омилларни фаоллаштириши.**

Эмоционал-психик омил одам организмининг асосан *турли* безларига, юрак уришига, қон оқими ва қон босимига, миянинг ва баданнинг барча нерв хужайраларига таъсир этади. Эрталаб табассум билан уйғонинг ва ётган жойингизда яхшилаб керишинг. Бунда баданингизнинг барча суяклари, мушаклари иложи борича яхшилаб тортилсин, чўзилсин.

Шундан сўнг ичингизда ёки овоз чиқариб «Мен ўзимнинг ички имкониятларимга ишонаман, мен ўзимнинг ички омадимга ишонаман» формуласини такрорланг.

Бу куннинг аҳамиятини ёдингиздан чиқарманг ва бош миянгиини ҳар хил кераксиз маълумотлардан асранг. Ўқув китобларингизни, дафтарларингизни тартибли қилиб кўзингиз тушмайдиган жойга олиб қўйинг, уларни эсингиздан чиқаринг. Миянгиини дам олишига руҳсат беринг, чунки охирги ойларда олган маълумотларингиз онг остингиз ёрдамида керакли жойларга жойлансин.

Классик куйларни кўпроқ тингланг ва қанча кўп тингласангиз бош миянгиининг ўнг қисми шунчалик ўз иш фаолиятини кучайтиради. Миянгиини ўнг қисми эса онг ости иш фолияти учун жавобгардир. Қушларнинг сайрашига, дарахт барглари, ариқда оқаётган сув шивирлашига эътиборингизни қаратинг.

Ҳар бир инсон асосий маълумотни кўриш орқали қабул қилади. Шунинг учун чарчаган шахсинг кўзлари ўз-ўзидан юмилиб кетади. Жахлингиз, хурсандчилигингиз ёки яхши-ёмон кайфиятингиз ҳам кўздан чиққан нурлар орқали тарқалади.

Демак, биз кўзимизнинг кўриш нервларини доимий равишда тинчлантиришимиз лозим бўлади. Буни ҳисобга олиб, шу куни:

- сизга ёқимли бўлган шахслар билан учрашиш имкониятини топинг;
- мусаффо кўм-кўк осмонда учаётган оппоқ булутларга бир неча дақиқа қараб туринг;
- тинч оқаётган ёки тўпланиб турган сувга назар солинг;
- ҳовлингизда ёки кўнада ўсаётган гулларга тикилиб қаранг ва ҳ.к.

Қадимги Хитой ва Шарқ уламолари ўз ҳаётлари давомида доно одамнинг қуввати тинчликда, осойишталикда деб билишган. Шунинг учун бук уни ётишдан олдин сизга қувват берадиган дуоларни такрорлаб ётинг.

Юқорида кўрсатилган учала омилни қанчалик бир-бирига мос ҳолатда ўтказсангиз, ички имкониятларингизни келгуси кун учун шунчалик фаоллаштирган бўласиз.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Беляускайте Р.Ф. (1987). Рисуночные пробы как средство диагностики развития личности ребенка. В сб. научных трудов «Диагностическая и коррекционная работа школьного психолога»: М., С. 67-80.
2. Варга А.Я., Смехов В.А. (1986). Психологическая коррекция взаимоотношений детей и родителей // Вестник Московского Университета. Сер. 14: Психология. - №4.- С.12-31.

## **ЖЕНЩИНЫ И ИХ РОЛЬ В ПРОГРЕССЕ ОБЩЕСТВА**

*Набиева Н.М.*

*Ферганский политехнический институт*

*Аннотация. Мақолада муаллиф томонидан аёлларни жамият тараққиётидаги ўрни ҳақида фикр-мулоҳазалар келтирилган. Мақолада муаллиф ўрганилаётган соҳа мутахассисларини фикрларини ва тегишли статистик маълумотларни келтирган.*

*Annotation. The article presents data on the role of modern women in the progress of society. The author in his article refers to the relevant statistical data, as well as to the opinion of specialists of the researched field.*

Каждое человеческое общество может гармонично развиваться, продвигаясь к более высокому состоянию, если в нем не принижена роль женщины. Зададимся вопросом: какова же роль женщины в прогрессе современного общества? И последует такой ответ: роль женщины в обществе неопределимо высока. Женщина в семье, на работе, в общественной деятельности играет огромную роль. Совершим экскурс в историю. До того как стали проповедовать исламскую религию в той же Саудовской Аравии и близлежащих странах было ужасное отношение к женщинам, девочкам. Новорожденных девочек убивали. А ислам внёс умиротворение в эти страны и повысил статус женщины в семье.

Возвратимся к современности. В наше динамично развивающееся время женщины, так же как и мужчины стремятся к самореализации в профессиональной деятельности. Мы считаем, что всё зависит от характера, среды воспитания, менталитета и жизненных принципов женщины. Женщины делятся на несколько типов в данном контексте.

-Первый тип женщин, которые пытаются соответствовать образу успешной женщины. Для нее важен имидж. Она отлично выглядит, свежая, подтянутая, милая, улыбчивая и кокетливая.

-Ко второму типу относятся карьеристки. Их мало заботит внешняя красота. Для них работа стоит на первом плане, что касается личной сферы, то на нее времени практически не хватает.

В связи с тем, что социальная роль женщины в современном обществе за последние десятилетия претерпевает радикальные изменения, естественно, меняются также статусы представительниц слабого пола.

Так, психологи-современники склонны рассматривать следующие основные категории женщин: лидеры, карьеристки, домохозяйки, обладательницы свободных профессий.

Женщины-лидеры по чертам характера во многом напоминают мужчин: они целеустремленные, уверены в собственных силах и всего добиваются самостоятельно, не надеясь на чью-либо помощь. Статус женщины в современном обществе, которая выбрала роль домохозяйки, как правило, рассматривается сегодня не с лучшей стороны.

Бесспорно, что просвещение женщины — путь к прогрессу нации, ибо женщина воспитывает своих детей и формирует их сознание, мировоззрение, кругозор. Образованная женщина понимает, что богатства семьи заключается, прежде всего, в здоровых и образованных детях, и, тратя деньги на здоровье и образование, она инвестирует в будущее своих детей и, конечно же, в свое будущее.

Что же мы можем сказать об узбекских женщинах? Приведём некоторые статистические данные. На сегодняшний день женщины составляют от 36 до 50% членов политических партий и занимают большее, чем мужчины, количество должностей в некоторых ведомствах, таких как Министерство здравоохранения и Министерство народного образования, согласно данным узбекского Комитета Женщин.

Согласно результатам опроса, проведенного ташкентским государственным центром «Ижтимоий Фикр», более 70% женщин-респондентов выразили уверенность в том, что в будущем их роль в государственном и общественном строительстве возрастет.

Как показал мониторинг общественного мнения, современная женщина Узбекистана – это социально активная личность, которая получает образование, овладевает профессией, осуществляет карьерный рост, принимает непосредственное участие в жизни общества. 97,2% опрошенных считают себя счастливыми. Большинство узбекистанских женщин (86,1%) удовлетворены своей жизнью.

Женщины играют жизненно важную роль в сохранении безопасности в стране, отметил президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев в своем поздравлении 6 марта по случаю Международного женского дня. По убеждению ведущих специалистов данной области роль женщины в современном обществе заключается не только в выполнении своих прямых обязанностей на работе, но также реализации себя в качестве хорошей матери, примерной жены и хозяйки. Не исключением является такая ситуация, когда женщина в погоне за карьерным ростом забывает о своих прямых обязанностях по отношению к детям, не уделяет им должного внимания и с их стороны это воспринимается весьма болезненно. Можно привести примеры выдающихся женщин, которые достигли высот в своей

карьере, но при этом сталкивались с серьезными проблемами с детьми, это популярная телеведущая Валентина Леонтьева. На наш взгляд женщина должна найти золотую середину между карьерным ростом и семьей. В итоге хотелось бы отметить, что в современном обществе роль женщины в прогрессе общества неопределима:

- во первых становление нашей страны в качестве правового демократического государства с сильным гражданским обществом является важнейшим фактором роста общественной и политической активности женщин;

- во вторых роль женщины в жизни общества измеряется также трудом учителей, врачей, медсестер, фермеров, представителей науки и культуры, а также всех сфер деятельности. Ибо сегодня нет профессии, которой бы не владела женщина;

- в третьих свой вклад в процессы по укреплению статуса женщины в современном обществе вносят и партии Узбекистана.

Список использованной литературы:

1. <http://blogforlady.com/semya/rol-zhenshhiny-v-sovremennom-obshhestve#ixzz4gUWvVPrb>

2. Мусурманкулов Ф. У., Бердалиева Г. А. Роль женщин в духовной жизни Республики Узбекистан // Молодой ученый. — 2016. — №13. — С. 632-6343.

3. Морозов В.А., Аверкина Т.О. «Социальные роли современной женщины в представлении студентов» Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований № 11 2016 год

## **О ПОДГОТОВКЕ МОЛОДЁЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ**

*З. Усманова*

*Ферганский Политехнический Институт*

*Аннотация. Ушбу мақолада муаллиф томонидан ёшларни оила қуриши жараёнидаги масалалар кенг ёритилган. Мавзу доирасида фикр-мулохазалар, таклифлар келтирилган.*

*Annotation. In this article, the author covers issues related to questions of young people's readiness for family life. The article gives conclusions and recommendations on the topic under study.*

В современное время актуальными становятся вопросы совершенствования социально-педагогических основ подготовки молодёжи к семейной жизни. Подготовка к семейной жизни разворачивается на ранних этапах жизни.

Для понимания семьи как социального института большое значение имеет анализ ролевых отношений в семье. Семейная роль – один из видов социальных

ролей человека в обществе. Семейные роли определяются местом и функциями личности в семейной группе и подразделяются в первую очередь на супружеские (жена, муж), родительские (мать, отец), детские (сын, дочь, брат, сестра), межпоколенные и внутривозрастные (дед, бабушка, старший, младший). Устойчивость брачно-семейных отношений зависит от готовности молодых людей к семейной жизни, а также от их непосредственного отношения к браку.

Так же необходимо отметить, что устойчивость брачно-семейных отношений зависит от готовности молодых людей к семейной жизни, где готовность к браку понимается как система социально-психологических установок личности, определяющая эмоционально положительное отношение к семейному образу жизни, а это всё закладывается в семье будущего супруга или супруги. Важнейшая социальная функция современной семьи – воспитание будущего семьянина, то есть подготовка подрастающего поколения к брачно-семейным отношениям. Это обусловлено усиливающимися негативными процессами: деградацией семейного образа жизни, снижением престижа семьи, потребности иметь детей, ростом разводов положения молодежи в обществе, тенденции и перспективы ее развития представляют для общества большой интерес и практическое значение, прежде всего потому, что они определяют его будущее. Здесь существенное место занимают отношение молодежи к браку и семье как основной ячейке общества.

Молодые люди ищут в семье своих родителей поддержку и опору в процессе социализации, а свою будущую семью готовы строить на основе гуманистических и нравственных принципов, но испытывают при этом огромный недостаток в психологических знаниях и умениях.

Среди многих аспектов проблемы формирования готовности молодежи к семейной жизни в данное время выделяется правильное понимание социальной роли семьи и брака в современном обществе, наличие гражданского правового сознания.

Специалисты так формулируют основные направления деятельности по подготовке к семейной жизни:

- нравственная (осознание ценности брака, детей и т. д.);
- психологическая (сумма психологических знаний, необходимых в супружеской жизни);
- педагогическая (навыки и способности к воспитанию детей);
- санитарно-гигиеническая (гигиена брака и быта);
- экономическая и хозяйственно-бытовая.

В заключении хотелось бы отметить, что ценности формируемые в каждой семье подсознательно переносятся на детей, воспитывающихся именно в этой атмосфере, а затем передаются из поколение в поколение. Мы надеемся, что соблюдение наших национальных традиций положительно повлияет на формирование института семьи и в становлении молодых семей. На наш взгляд в брачно-семейных отношениях необходимо поддерживать чувство ответственности

у молодых к семейным узам. Мы считаем, что если у молодожёнов будет ответственное отношение к семейному очагу, обязанностям супругов друг перед другом, перед детьми и родителями, именно тогда семейные узы будут достаточно прочными и смогут перетерпеть «бури» и «ураганы» в семейной жизни.

Согласно нашей религии поводом для развода в семье могут быть две причины – это измена или воровство. Но статистика разводов показывает, что семьи распадаются в большинстве случаев не из-за этих причин, а из-за так называемых «мелочей жизни». Всем известно, что есть понятие «бывших супругов», но понятия «бывших детей» не бывает, а в процессе развода в основном «под удар» попадают именно дети. И по нашему глубокому убеждению пока в обществе не искоренится «легкомысленное отношение» к семейной жизни количество разводов не уменьшится. Родители растят своих дочерей, но при этом в обществе бытует мнение, во что бы то не стало необходимо «вовремя выдать» дочь замуж. И это часто приводит к негативным последствиям, не изучив семьи, не проанализировав устои, ценности той или иной семьи родители выдают замуж своих дочерей. Всем известно, что в каждой семье есть свои моральные ценности, а если идёт переселение личности из одной среды в другую, то ей необходимо адаптироваться, а этот процесс проходит достаточно сложно. Когда мы выращиваем цветок мы холим его и лелеем, чтобы он прижился к почве. Так почему же к семейным отношениям мы относимся не так бережно? По нашему мнению, родители должны более ответственно относиться к брачным узам и «не спешить» с заключением брака.

Есть ещё один немаловажный аспект при подготовке молодёжи к семейной жизни – это материальный аспект. Зачастую родители невесты «лезут из кожи вон» для обеспечения материального благосостояния своих детей, считая, что если у детей «всё будет», то их брак будет счастливым. Но реальность показывает иное, то есть то, что материальный статус не всегда помогает в укреплении брачных уз.

Таким образом, подготовка молодежи к семейной жизни представляет собой комплекс всесторонних взаимодействий с родителями, учителями, сверстниками, с другими людьми, со средствами культуры и массовой информации, в результате которых происходит осознание особенностей брачно-семейных взаимоотношений, развитие соответствующих чувств, формирование представлений, взглядов, убеждений, качеств и привычек, связанных с готовностью к браку и семейной жизни.

#### Список литературы:

1. Андреева Т.В. Психология современной семьи. – СПб, 2005
2. Андреева Т.В. Психология семьи. СПб, 2007

## **ПСИХОЛОГИЯДА ДЕПРИВАЦИЯГА ОИД ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР**

*Ориббоева Дилафрўз Дадамирзаевна*

*НамДУ ўқитувчи*

*Ёқубжоновна Хилола Адхамжон қизи*

*НамДУ талаба*

*Abstract: psychical deprivation is a psychological state which limits chances that helps to satisfy all significant psychological necessities for a long time.*

*Аннотация: Психическая депривация это психическое состояние при котором важные для субъекта психические потребности ограничиваются.*

Боланинг психик эҳтиёжлари шубҳасиз атроф-муҳит билан бевосита муносабатлари жараёнида кондирилади. У ёки бу сабабалар мазкур алоқани ўрнатишга ҳалақит берса, ахборот келадиган муҳитдан ажралиб қолса, албатта у ахборот танқислигидан азият чекади. Бу изоляция турлича даражада бўлиши мумкин. Инсоният муҳитидан тўла ажралиб қолиши психик эҳтиёжларнинг кондирилмаслигига, ривожланиш бўлмаслигига олиб келади. Психик депривация пайдо бўлишининг асосий омили- ижтимоий, ҳиссий, сенсор кўзгаутвчиларнинг етарли миқдорда етиб келмаслигидир. Шунингдек бола ва муҳит ўртасида дастлаб тузилган, сўнгра тўхтатиб қўйилган алоқалар ҳам психик депривацияни вужудга келтирувчи омил бўлиши мумкин.

Психик депривациянинг учта асосий варианты ҳиссий, сенсор ва ижтимоий депривация фаркланади. Ифодаланиш даражасига кўра тўлиқ ва қисман депривация бўлиши мумкин. Й.Лангмейер ва З.Матейчеклар психик депривациянинг нисбийлиги ва шартлилигини таъкидлаб, бир маданиятда норма ҳисобланган ҳаёт, бошқа маданиятда аномал деб қаралиши мумкинлигини кўрсатиб ўтишган. Ҳиссий ва сенсор депривация бошқа кишига нисбатан ҳиссий муносабат ўрната олмаслик ёки аввал ўрнатилган алоқаларнинг бузилиши билан пайдо бўлади. Болалар уйлари, касалхона, интернат ва бошқа ёпиқ турдаги муассасаларга тушиб қолган болалар шундай ҳолатга тушиб қоладилар. Депривация шароити болалар учун ҳамма ёш даврларида ҳам бирдай ҳавфлидир.

Н.М.Шелованов раҳбарлигидаги бир гуруҳ олимлар мазкур муаммони ўрганишга ўз ҳиссаларини қўшишган, уларнинг таъкидлашича бола бош миёсидаги машқ қилмаган марказлар секин-аста нормал ишламай қолади ва атрофия кузатилади. Н.М.Шеловановнинг ёзишича, унинг ходимлари томонидан олинган маълумотлар болалар ривожланиши ҳақидаги янги ғояларни ишлаб чиқишга туртки бўлди. Машҳур психолог Л.И.Божович таъсиротга бўлган эҳтиёж боланинг руҳий тараққиётида хал қилувчи роль ўйнайди. Бу эҳтиёж бола ҳаётининг учинчи, бешинчи ҳафталарида пайдо бўлади ва бошқа ижтимоий эҳтиёжларнинг ривожланиши учун асос бўлиб хизмат қилади, боланинг онаси билан муносабати ҳам шундай ижтимоий табиатга эгадир деган фаразни илгари

суради. Мазкур фараз кўпчилик психологларнинг дастлаб органик эҳтиёжлар устун бўлади деган қарашларига қарама-қаршидир.

Л.И.Божовичнинг фаразини исботи сифатида гўдаклардаги эмоционал ҳаётини ўрганиш тажрибаси натижалари келтирилади. М.Ю.Кистяковская бола ҳаётининг биринчи ойидаги эмоцияларни таҳлил қилиб, улар боланинг сезги аъзоларига (айниқса кўз ва қулоқ) ташқи кўзғатувчиларнинг таъсир этиши натижасида пайдо бўлиши ни исботлаб берган. Унинг ёзишича, эмоциялар боладаги мавжуд органик эҳтиёжларнинг қондирилиши натижасида пайдо бўлиши ҳақидаги фикр нотўғридир. Тадқиқотларда аниқланишича, органик эҳтиёжларнинг қондирилиши салбий эмоционал реакцияларни вужудга келтириш имкониятини пасайтиради, бу билан ижобий эмоциялар вужудга келишига қулайлик яратади. Болада турли предметларни кўргач жилмайиш каби эмоцияларни вужудга келтиради.

Табассумнинг йўқлиги, ҳеч бир фаолиятда иштирок этмай юриш болалар ва меҳрибонлик уйларида яшайдиган болаларга хос эканлиги хали эрамиздан аввалги асрлардаёқ аниқланган эди. 1760 йилда испан епископининг ёзишича : “Болалар уйида гўдаклар маюс бўлиб қолади ва ҳатто ўлиши мумкин”. Илмий факт сифатида бу муаммо XX- асрдагина ўрганила бошланди. бу феномен америкалик психолог Р.Спитц томонидан илк бора изчил ўрганилган ва госпитализм деган тушунча билан изоҳланган. Р.Спитц аниқлаган янгилик шунда эдики, ёпиқ турдаги муассасада болалар ёмон овқатланиши ёмон тиббий хизматдан эмас, балки бу ердаги махсус шароит, қашшоқ муҳитдан кўпроқ азият чекадилар. У ана шундай болалар уйларининг бирини кузатиш жараёнида болалар 15-18 ойгача шиша боксларда ётган ҳолда парваршланаётганини кўрган. Улар шу пайтгача ўринларидан туришни, юришни билишмаган. Шубҳасиз уларнинг аклий таракқиёти ҳам нормада бўлмаган. Б.Лофенфельднинг таъкидлашича, бундай депривация шароитидаги болаларнинг ривожланишини туғма ёки маълум сабабга кўра кўзи кўрмай қолган болаларнинг ривожланиши билан қиёслаш мумкин. Т.Левин томонидан ўтказилган тадқиқотларда Роршах методикаси ёрдамида қар ва соқов болаларнинг шахсга хос хусусиятлари ўрганилган. Натижалар етим болаларнинг кўрсаткичлари билан бир хил бўлган.

Шундай қилиб, қашшоқ муҳит нафақат болаларнинг сенсор қобилиятлари, балки барча шахс хусусиятларининг ривожланишига ҳам салбий таъсир кўрсатади. Й.Лангмейер ва З.Матейчекларнинг таъкидлашича, онасиз тарбияланаётган болалар оналик меҳр-мухаббатининг йўқлиги, эмоционал алоқалар мавжуд эмаслигидан еттинчи ойдан бошлаб азоб чекади, унғача қашшоқ ташқи муҳит патоген омил сифатида таъсир кўрсатади.

Болалар психологияси ва педагогикасида алоҳида ўринга эга бўлган машҳур сенсор тарбия тизимининг муаллифи, аҳолининг кам таъминланган қатлами фарзандлар учун ясли ва болалар уйлари ташкилотчиларидан бири Монтесорининг фикрича, болалар сенсор ривожланиши учун энг қулай давр

икки ярим ёшдан олти ёшгача бўлган даврдир. Шунингдек сенсор депривация турли ёш давларида боланинг психик ривожланишига турлича таъсир этиши мумкин. Мазкур ҳолатни эътиборга олган ҳолда ҳар бир ёш даврида боланинг ривожланиши учун зарур бўлган муҳитни яратиш муҳимдир.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Лангмейер Й, Матейчек З, Психическая депривация в детском возрасте. Прага: Авицениум, Мед издательство, 1984
2. Психическая депривация: Хрестоматия Сост Н.Н.Крыгина–Магниторск: Из-воМаГУ 2003